

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

ТОШКЕНТ МОЛИЯ ИНСТИТУТИ

ЭРНАЗАРОВА МАФТУНА БАХТИЁР ҚИЗИ

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ УЙ ХЎЖАЛИКЛАРИДА
ИНВЕСТИЦИЯЛАШНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ**

Магистр академик даражасини олиш учун ёзилган

ДИССЕРТАЦИЯ

Илмий раҳбар:

и.ф.н., доц. Хакимов Б.

Тошкент - 2015

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB UY XO'JALIKLARI VA ULARNING INVESTITSION FAOLIYATINING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI.....	7
1.1. Uy xo'jaliklarini boshqa iqtisodiy subyektlar bilan munosabatining asosiy jihatlari.....	7
1.2. Uy xo'jaliklarining turlari, xususiyatlari va nazariy-huquqiy asoslari.....	18
1.3. Uy xo'jaliklari investitsiya faoliyatini tashkil etish xususiyatlari va yo'nalishlari.....	27
<i>Birinchi bob bo'yicha xulosa.....</i>	
II BOB. O'ZBEKISTONDA UY XO'JALIKLARI INVESTITSIYA FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISH AMALIYOTI TAHLILI.....	37
2.1. Uy xo'jaliklarini mikrokreditlash institutlari hisobidan investitsiyalashni takomillashtirish.....	37
2.2. Uy xo'jaliklari aktivlari – investitsiya faoliyatini jadallashtirishdagi roli.....	52
2.3. Uy xo'jaliklari moliyaviy barqarorligini ta'minlashda davlatning aholi turmush darajasini yaxshilash borasidagi siyosati.....	57
<i>Ikkinchi bob bo'yicha xulosa.....</i>	
III BOB. UY XO'JALIKLARI INVESTITSIYALASHNI TAKOMILLASHTIRISH VA UNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	68
3.1. Uy xo'jaliklarida istiqbolli investitsiyalarni moliyalashtirish.....	68
3.2. Uy xo'jaligi moliyasini mustahkamlashda davlat rolining kuchayishi.....	77
<i>Uchinchi bob bo'yicha xulosa.....</i>	
XULOSA.....	89
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	93

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi. Zamonaviy bozor iqtisodiyotini qaror toptirishda milliy iqtisodiyotda turli darajadagi o'zaro iqtisodiy munosabatlarning ko'p subyekтли hamda ular o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarning g'oyat murakkabligidan dalolat beradi. O'zaro iqtisodiy aloqalar qanchalik turlanmasin ular individual, korporativ, umum iqtisodiy mazmunga ega bo'lgan turli darajadagi va shaklan farqlanuvchi munosabatlar ko'p subyekтли bo'lar ekan, ulardan asosiylari uy xo'jaliklari, davlat tashkilotlari, firma va xo'jaliklar va nihoyat nodavlat va notijorat tashkilotlaridir. Bu yerda eng yetakchi rolni uy xo'jaliklari o'ynaydi, chunki iqtisodiyotning taqdiri ularning naqadar faol bo'lishi yoki bo'lmasliklariga bevosita bog'liq.

Iqtisodiyotimizning jadal va mutanosib rivojlanib borayotgani aholi hayot darajasi va sifatini izchil oshirish uchun mustahkam zamin yaratmoqda. Budget tashkilotlari xodimlarining ish haqi, pensiya va stipendiyalar hajmi o'tgan yili 23,2 foizga oshdi. Aholining jon boshiga to'g'ri keladigan real daromadlar esa 10,2 foizga ko'paydi. Aholi daromadlari tarkibida tadbirkorlik faoliyatidan olinayotgan daromadlar ulushi tobora ortib bormoqda. Mustaqillik yillarida bu boradagi ko'rsatkich 10,6 foizdan 52 foizga o'sdi. Bu Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlaridagi eng yuqori ko'rsatkichlardan biridir. Bu natijalar so'nggi yillarda aholimizning ijtimoiy farovonligi muttasil o'sib borayotganidan dalolat beradi¹.

Uy xo'jaliklarining milliy jamg'armadagi rolining ortib borishi, ya'ni, aholini ijtimoiy himoyalashni, ular daromadlari va farovonligini oshirish uy xo'jaliklarini turli tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish orqali ulardagi mavjud investitsiya resurslarining iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishga safarbar etilishini takomillashtirish talab etilishi uy xo'jaliklari investitsiyalarini moliyalashtirish masalasining hozirgi kunda hal etilishi kutilayotgan dolzarb muammolardan biri ekanligini ko'rsatadi.

¹ Karimov I.A. Mamlakatimizni 2014 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan ma'ruzasidan

Tadqiqot obyekti va predmeti. Tadqiqot obyekti sifatida O'zbekiston Respublikasida uy xo'jaliklari investitsiya faoliyatini moliyalashtirish amaliyoti olingan. Uy xo'jaligi investitsiyalarini moliyalashtirishda vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar majmuasi dissertatsiyaning predmetini tashkil etadi.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari. O'zbekiston uy xo'jaliklari investitsiyalarini moliyalashtirishni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Yuqorida ko'rsatilgan maqsaddan kelib chiqib, dissertatsiya ishida quyidagi vazifalar belgilandi:

- Uy xo'jaliklari investitsiyalarining nazariy asoslarini tadqiq etish va xususiyatlarini aniqlash;
- Uy xo'jaliklarini mikrokreditlash institutlari hisobidan investitsiyalashni takomillashtirish yo'llarini ishlab chiqish;
- Uy xo'jaliklarida investitsiyalashni takomillashtirish va uning samaradorligini oshirish;
- Uy xo'jaliklari aktivlari – investitsiya faoliyatini jadallashtirishdagi roli.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari. Magistrlik dissertatsiyasi yuzasidan olib borilgan tadqiqot ishida ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarning amaliyotda qo'llanilishi milliy iqtisodiyotda uy xo'jaliklari iqtisodiy samaradorligining oshishiga olib kelishi mumkin.

Tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar sharhi (tahlili). Uy xo'jaliklarining iqtisodiy mazmuni va funksiyalari bilan bog'liq masalalarga bo'lgan ustuvorlik g'arb iqtisodchilari, xususan mazkur masalalar J.M.Keyns, K.R.Makkonell, S.R.Bryu, J.R.Xiks, P.Xayne, P.T.Samuelson va boshqalar tomonidan o'rganilgan². Shuningdek, mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan A.V.Vahobov hamda T.S.Malikov tomonidan nashr qilingan darslik³,

² Кэмпбелл Р. Макконелл, Стенли Р.Брю Экономикс: Принципы, проблемы и политика. Таллин.:А.О. «Римол», 1993. 800с.; Кейнс Ж.М. Избранные произведения. Пер. с англ. – М.: Экономика, 1993. – 293 с.; Хикс Ж.Р. Стоимость и капитал. – М.: Изд. Группа «Прогресс», «Университет», 1993.-289 с. Хайне П. Экономический обзор мышления. Пер. с англ. – М. : 1997. -440 с.; Самуэльсон П.Т. Экономика 1,2 – М.: «Алгон» , 1992. -704 с.

³ A.V.Vahobov hamda T.S.Malikov "Moliya" T.2012: 559-593 b,

A.O'lmasov va A.Vahobovlar tomonidan nashr qilingan darsliklarda⁴ uy xo'jaligiga bag'ishlangan maxsus boblar kiritildi. Shu bilan birga, bu soha bo'yicha iqtisodchilardan X.Axmadjonov va R.Saidovlar tomonidan bajarilgan dissertatsiyalar asosan moliya ixtisosligiga taaluqli bo'lgan⁵. Biroq, ularda uy xo'jaliklari daromadlari, xarajatlari va investitsiyalariga oid va nazariya uchun ahamiyatli ma'lumotlar mavjuddir. Uy xo'jaliklari "xonadon xo'jaliklari" talqinidagi va uni rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy jihatlariga bag'ishlangan yagona nomzodlik dissertatsiyasi bag'ishlandi⁶.

Tadqiqotda qo'llanilgan metodikaning tavsifi. Ilmiy tadqiqotning nazariy va uslubiy asosi bo'lib dialektik uslub, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov asarlari va mazkur muammoni hal qilish bo'yicha xorijiy mamlakatlar hamda O'zbekiston iqtisodchi olimlarining ilmiy g'oyalar va yo'nalishlari asos qilib olingan.

Shuningdek, tadqiqot jarayonida nazariy yondashuv, iqtisodiy statistik va tarkibiy-funksional tahlil, qiyosiy tahlil, guruhlashtirish, grafik jadval va boshqa usullardan foydalanildi. Shuningdek, tadqiqot ishiga qo'yilgan maqsadga erishishda O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan Qonunlar, hukumat qarorlari, farmonlariga asoslandi hamda xorij, MDH iqtisodchi olimlarining iqtisodiy fan tarixida va hozirgi zamon bozor iqtisodiyotini qaror toptirishdagi uy xo'jaligi, uning iqtisodiyotdagi asosiy vazifalari xususidagi fikr mulohazalari bayon qilingan ilmiy-amaliy anjumanlar materiallaridan unumli foydalanildi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalari bo'yicha asoslangan nazariy fikrlar va qonun qoidalar aholi farovonligini oshirish hamda turmush darajasini yaxshilash borasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar ustuvor yo'nalishini ulardan uy xo'jaliklarini investitsiyalash amaliyotini takomillashtirishga bag'ishlangan istiqboldagi

⁴ A.O'lmasov, A.Vahobov "Iqtisodiyot nazariyasi" T.:2010, 65-6er

⁵ X.Axmadjonov "O'zbekiston xonadonlari moliya resurslarni shakllanishi va ishlatilishi" iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. T.2006 y; R.B.Saidov "O'zbekiston Respublikasi uy xo'jaliklarida investitsiyalashni takomillashtirish iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. T. 2011y.

⁶ F.A.Axmedov "Bozor munosabatlari sharoitida xonadon xo'jaliklarining rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy jihatlari" iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. T. 2011y.

maxsus ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirishda foydalanish mumkin. Mamlakat uy xo'jaliklarini investitsiyalash amaliyotini takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqilishida qo'llanishining mumkinligi bilan belgilanadi.

Dissertatsiya materiallaridan oliy o'quv yurtlarida «Moliya», «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik», «Loyihalarini moliyalashtirish», «Investitsiyalarni moliyalashtirish», «Pul, kredit va banklar», «Moliya bozori va qimmatli qog'ozlar» fanlari o'quv dasturlarini takomillashtirishda va o'qitishda foydalanish mumkin.

Ish tuzilmasining tavsifi. Dissertatsiya ishi tarkibiy jihatdan kirish, uch bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat.

I BOB. UY XO'JALIKLARI VA ULARNING INVESTITSION FAOLIYATINING NAZARIY–HUQUQIY ASOSLARI

1.1. Uy xo'jaliklarini boshqa iqtisodiy subyektlar bilan munosabatining asosiy jihatlari

Iqtisodiyot nazariyasiga ko'ra uy xo'jaliklari deyilganda, bir yoki bir nechta odam tomonidan umumiy budjetga ega bo'lib yashay oladigan xo'jalik faoliyati tushuniladi. Uy xo'jaligi o'ziga yirik va kichik kapital, yer, mulk, qimmatli qog'ozlar egalarini ularni jamiyat ishlab chiqarishda qatnashishdan qat'iy nazar o'zida birlashtiradi.

Uy xo'jaligini boshqarish, oilani ishlab chiqarish faoliyatini shaklini oladi. Uy xo'jaligida oila iste'molini qondirishga mo'ljallangan mahsulotlar va xizmatlar amalga oshiriladi. Uy xo'jaliklari bozorda doimo sotish uchun mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarish, oilani mehnat faoliyati bilan shug'ullanishdan yoki o'z tomorqasida tovar yo'nalishidagi qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishdan dalolat beradi. Uy xo'jaligida bozorda sotish uchun to'xtovsiz mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarish, shuningdek, o'z tomorqasida tovar yo'nalishidagi qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish xususiy tadbirkorlikni anglatadi. Bir vaqtning o'zida uy xo'jaliklari iqtisodiyotda tovarlar va xizmatlarni iste'mol qiluvchilar sifatida maydonga chiqadi, u esa bozor iqtisodiyoti tamoyillariga rioya qilinayotganidan dalolat beradi. Bu esa uy xo'jaligini mamlakat yalpi ijtimoiy daromadini bir qismini jamg'arishda, real va moliyaviy aktivlarni sotib olish orqali moliyaviy zahiralarni hosil qilishda ishtirok etish orqali o'z daromadlarini mustahkamlab, soliq to'lovchisi sifatida davlatning markazlashtirilgan moliyaviy fondlarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi davrda iqtisodiy adabiyotlarda "uy xo'jaligi" tushunchasining xilma-xil talqini mavjud. Ushbu talqinlar bir-biridan sezilarli darajada fark kiladi.

V. Jerebin, A. Romanovlarning fikricha, uy xo'jaligi deganda bir individ tomonidan yoki birgalikda istiqomat qiladigan va umumiy budjetga ega bo'lgan individlar tomonidan yuritiladigan xo'jalik tushuniladi .

V.Radaevning fikriga ko'ra, uy xo'jaligi bandlik sohasi bo'lib, bunda bir oila yoki oilaviy guruhlar o'zining shaxsiy mehnati bilan ushbu oilaning (oilaviy guruhlarining) ehtiyojlarini natural tovarlar va xizmatlar shaklida ta'minlaydi.

B.Rayzberg, L.Lofovskiy, E.Starodubtsevalar uy xo'jaligini iqtisodiy faoliyatning uch asosiy subyektlaridan biri deb hisoblaydi va shaxs yoki oila doimiy istiqomat qiladigan joydagi iqtisodiy obyektlar va jarayonlarni kamrab oladi.

A. Mamedovanning fikriga ko'ra, uy xo'jaliklarida takror ishlab chiqarishning o'ziga xos xususiyatlari har bir tarixiy davrga xos bo'lgan tashqi shart-sharoitlar bilan belgilanadi.

O'zbekistonlik olimlar Z.Yuldashev, T.Malikovlarning fikricha uy xo'jaligi - bu bir joyda birgalikda yashayotgan va umumiy xo'jalikni yuritayotgan, umumiy budjetga ega bo'lgan, iqtisodiy qarorlarni birgalikda qabul qiladigan shaxslar guruhi ham va bir vaqtning o'zida, o'zining iste'molini mustaqil ravishda ta'minlayotgan yagona bir shaxs (kishi) ham hisoblanishi mumkin, deb ta'rif beradilar.

Yuqorida nomlari zikr etilgan iqtisodchi olimlar uy xo'jaligini, birinchidan, bir joyda doimiy istiqomat qiladigan va umumiy budjetga ega bo'lgan individlar yuritadigan xo'jalik ekanligini e'tirof etadilar; ikkinchidan, oila yoki alohida shaxsning ehtiyojlarini natural shakldagi tovarlar va xizmatlar bilan qondirishni ta'minlash imkonini beradigan xo'jalik ekanligini tan oladilar; uchinchidan, individ yoki oila doimiy istiqomat qiladigan joydagi iqtisodiy obyektlar va jarayonlarning yig'indisi ekanligi umume'tirof etiladi.

Fikrimizcha, uy xo'jaligi - bu bir joyda doimiy istiqomat qiladigan bir yoki undan ortiq individlar tomonidan yuritiladigan xo'jalik bo'lib, ular o'z mehnatlari bilan oilaning yoki individning ehtiyojlarini natural va pul shaklida qondirishni ta'minlaydi va uy xo'jaligi tarkibi bitta shaxs, oila hamda oilalar

guruhidan yoki qarindoshlik rishtalari bilan bog'lanmagan shaxslardan iborat bo'lishi ham mumkin.

Uy-xo'jaliklari moliyasi har bir davlat moliya tizimining ajralmas tarkibiy qismi (elementi) hisoblanadi. Bozor munosabatlari tizimida uy xo'jaliklarining moliyaviy ahamiyati uning iqtisodiy jihatdan nimaga mo'ljallanganligi bilan belgilanadi. Bir tomondan, uy xo'jaliklari ishlab chiqarish omillarining (mehnat, yer, kapital, tadbirkorlik qobiliyati va boshqalarning) xususiy egalari hisoblanadi va xuddi shu asosda o'zlarining daromadlar manbalari va moliyaviy tushilmalarini shakllantiradi. Boshqa bir tomondan esa, uy xo'jaliklari iqtisodiyotda tovarlar va xizmatlarni iste'mol qiluvchilar sifatida maydonga chiqadi va demak, bozor talabini belgilab (aniqlab) beradi. Bir vaqtning o'zida, uy xo'jaliklari jamiyat yalpi daromadining bir qismini jamg'aradi, real va moliyaviy aktivlarni sotib olish orqali moliyaviy rezervlarni yaratishda ishtirok etadi, soliq to'lovlari orqali esa davlatning markazlashtirilgan moliyaviy fondlarini shakllantirishda katta (muhim) rol o'ynaydi.

Uy xo'jaligining iqtisodiy manfaatdorligi shundaki undagi ishlab chiqarish omillarini maksimal darajada naf beradigan holda joylashtirish daromad manbaalaridan maksimal foydalanishga intilish hosil bo'ladi. Ish haqidan tashqari mavjud aktivlardan foyda va renta olish xususiy mulkchilik instituti tufayli mumkin bo'ladi. Ammo buning uchun funksional cheklanmagan mustaqil uy xo'jaliklarining mavjudligi talab qilinadi.


A.Marshall fikriga ko'ra “inson xatti-harakati, uning hayotida xo'jalik faoliyatiga ko'proq kuchli va mustahkam ta'sir qiladigan undovchi motivlar”⁷ mavjud. Bu motivlar ostida uning fikriga ko'ra manfaatlar yotadi.

Uy xo'jaliklari manfaatlari bir xil emas, ular turlanadi. Ammo bunga qaramay manfaatlar tizimini umumiy ko'rinishda olib ularni quyidagicha tasvirlash mumkin (1.1.1-Rasm.)

⁷А.Маршалл Принципы политической экономии. 1984 г., стр 176

Uy xo'jaligi manfaatdorligi tizimini ko'rib chiqqanda bu tizim tarkibidan manfaatlarining har xil turlarini iqtisodiy subyektning maqomini ifodalashini ko'ramiz.

Har bir tur uchun konkret ehtiyojlarni qondirish bilan bog'liq xarakterli xususiyatlar bor. Tadbirkor xo'jaligida uning manfaatini foyda ifodalasa ishchi-xizmatchi xo'jaligida bu ish haqida gavdalanadi. Pensioner xonadonlar manfaatining homiysi esa pensiyadir. Turli daromadlarni ta'minlanishi turli xo'jaliklar manfaatini yuzaga chiqarishdan o'zga narsa emas albatta.




1.1.1-Rasm. Uy xo'jaliklari iqtisodiy manfaatlari⁸

⁸Mavzuga oid adabiyotlar asosida magistr tomonidan tuzildi.

Turli xo'jalik iqtisodiy manfaatlari o'zaro bog'liqdir. Ular bir-birini to'ldirishi va ular o'rtasida ziddiyatlar bo'lishi mumkin. Mehnat bozoridagi manfaatlar o'rtasidagi ziddiyat mehnat bozoridagi oldi-sottisida amalga oshirilib uy xo'jaligi manfaatlari va firma iqtisodiy manfaatlariga zid kelishi mumkin. Chunki maksimal foydaga intilish ishlab chiqarishda tejamkorlikni talab qiladi, bu esa mehnat haqi hisobidan ham bo'lishi mumkin. Biroq foydani baham ko'rish tadbirkor va ishchi xonadonlari manfaatini uyg'unlashtirib, jamiyatda ijtimoiy inoqlik va barqarorlikka olib keladi. Iqtisodiy manfaatlarning o'ziga xosligi bir tomondan konkret iqtisodiy tizim obyektiv sharoitlari bilan ikkinchi tomondan alohida xo'jalik subyektlari manfaatlarini anglash darajasiga bog'liqdir.

Ta'kidlash muhimki, iqtisodiy manfaatkor uning subyekt tomonidan anglanganidan so'ng mustaqil tarzda amalga oshirilishi mumkin. Odatda manfaatlarni anglab etish ularni ro'yobga chiqish jarayonida muhim rol o'ynaydi, chunki subyekt tomonidan chuqur anglagan manfaat kuchli stimullar yaratadi. Subyektlar tomonidan anglagan manfaatlar ularning maqsadini hosil etadi, maqsadga intilish esa iqtisodiy faollik chaqiruvchi stimul bo'ladi.

Uy xo'jaliklari manfaatlariga xos dinamik o'zgarishlarni quyidagicha ifodalash mumkin. (1.1.2-Rasm).




1.1.2-Rasm. Ehtiyojlar transformatsiyasi⁹

Uy xo'jaliklari o'z manfaati yo'lida boshqa subyektlar bilan muntazam aloqa o'rnatadiki, bu tabiatan takror ishlab chiqarish jarayonidagi munosabatlardir. Uy xo'jaliklari boshqa subyektlar ishtirokisiz o'z manfaatini yuzaga chiqara olmaydi, chunki boshqalar bilan hisoblashmaslik aslo mumkin emas.

⁹Mavzuga oid adabiyotlar asosida magistr tomonidan tuzildi.

Uy xo'jaliklari iqtisodiy subyekti sifatida qaralganda ularning bozor munosabatlaridagi ishtirokiga urg'u berish zarur. Ular xo'jalik yurituvchi subyektlar sifatida ijtimoiy takror ishlab chiqarishda ishtirok etadi. Buni xo'jaliklarni makroiqtisodiy oborotdagi ishtirokidani ko'rish mumkin. (1.1.2-Rasm)¹⁰

Chizmadan shuni ko'rish mumkinki uy xo'jaligi boshqa subyektlar bilan tovar-pul munosabatiga kirishadi. Bu takror ishlab chiqarishning hamma bosqichlarida mavjud bo'ladi. Bu jarayonda u eng avvalo resurslar egasi sifatida maydonga chiqadi. Uning ixtiyoridagi moddiy, moliyaviy resurslar va mehnat resurslari bozorga taklif etiladi. Bu yerda ular pulga almashtiriladi, ya'ni firmalar, davlat va nodavlat tashkilotlariga sotiladi. Bundan tushgan pul iste'mol bozoriga chiqib tovar va xizmatlarni sotib olishga sarflanadi.



1.1.3-Rasm. Makroiqtisodiyotda tovar pul oqimida uy xo'jaliklari ishtiroki¹¹

Bozordan olingan tovarlar iste'mol etilib ehtiyojlarni qondirishga xizmat qiladi. Uy xo'jaliklari makroiqtisodiy oborotda faol qatnashadi. Bu esa takror ishlab chiqarishdan o'zga narsa emas. Ular takror ishlab chiqarishning hamma bosqichlarida – fazalaridagi iqtisodiy aloqalarni ishtirokchisi hisoblanadi. Ammo ayrim fazalarda bu aloqalar o'z xususiyatiga ega. Birinchi ishlab

¹⁰ Adabiyotlardagi g'oyalarga tayangan holda magistrant tomonidan chizilgan.

¹¹ Adabiyotlardagi g'oyalarga tayangan holda magistr tomonidan chizilgan.

chiqarish fazasida ular resurslari ishlab chiqarish omillariga aylanib tovar va xizmatlar yaratiladi. Bu jarayonda uy xo'jalik ikki xil ishtirok etadi: birinchidan ular o'z resurslarini firmalardagi ishlab chiqarish jarayoniga kiritadi; ikkinchidan ularni o'zlari mustaqil ishlatadilar. Ulardan chiqqan insoniy omil nafaqat milliy, balki boshqa yerdagi ishlab chiqarishga ham kiritiladi. Bunga xo'jaliklar ish kuchi eksporti orqali erishadilar, ya'ni ular hozir modaga kirgan ibora bilan aytganda "gosterbayterlar"ni ya'ni mehmon ishchilarni yetkazib berishadi. Aytilgan ishlarni bajarish yuzasidan uy xo'jaliklari firmalar bilan bozor munosabatlariga kirishadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida uy xo'jaliklari o'zlarining ichida va o'zlariga nisbatan tashqi bozor subyektlari sanalganlar bilan moliyaviy munosabatda bo'ladi. Shunga muvofiq ravishda uy xo'jaliklarida mavjud bo'lgan moliyaviy munosabatlar majmuini ikki guruhga bo'lish mumkin:

- ichki;
- tashqi.

Individlar — uy xo'jaligi a'zolarining ehtiyojlarini yanada soddaroq qondirish maqsadida zaruriy (kerak bo'lgan) pul fondlarini (joriy iste'mol darajasini, pul rezervlarini, investitsiyalashtirishni ushlab (saqlab) turish uchun va h.k.) shakllantirish va ulardan foydalanishga oid uning ishtirokchilari (a'zolari) o'rtasida vujudga keladigan munosabatlar uy xo'jaligining ichki moliyaviy munosabatlari hisoblanadi.

Uy xo'jaliklarining tashqi moliyaviy munosabatlari ularning boshqa iqtisodiy subyektlar bilan bo'lgan o'zaro aloqalari orqali namoyon bo'ladi. Korxonalar va tashkilotlar moliyasi bilan uy xo'jaliklari bevosita o'zaro bog'langan: firmalarga iqtisodiy resurslarni taqdim etib (berib), ularning egalari sifatida uy xo'jaliklari yaratgan mahsulotning qiymatidan o'z hissalarini (ulushlarini) oladilar va demak, ular shu bilan yalpi mahsulotni birlamchi taqsimlashda ishtirok etadilar. Bu munosabatlar o'zining yana bir muhim iqtisodiy tomoniga ega: ular iqtisodiyotda aholi daromadlarining boshlang'ich darajasini belgilab beradiki, bu narsa, o'z navbatida, iste'molning shakllanishi,

ko'lam va tarkibiy tuzilmasiga, to'lovga layoqatli talabning shakllanishiga va nihoyat, uy xo'jaliklari tomonidan jamg'arish funksiyasining amalga oshirilishiga to'g'ridan-to'g'ri o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Uy xo'jaliklarining o'zlari o'rtasidagi (uy xo'jaliklararo) moliyaviy munosabatlar uy xo'jaliklari sektorining ichida moliyaviy resurslarning harakatlanishi jarayonida vujudga keladigan munosabatlar sifatida qaraladi. Bu yerda ushbu jarayon hamma vaqt ham oydinlashmagan va kuchsiz tartibga solinuvchi hisoblanadi. Moliyaning bu sohasiga, jumladan, quyidagilarni kiritish mumkin:

- fermer xo'jaliklarining hamkorlikdagi maqsadli fondlari;
- iste'mol kooperatsiyasiga xizmat ko'rsatuvchi fondlar;
- uy xo'jaliklari o'rtasidagi norasmiy kredit munosabatlari;
- uy xo'jaliklari sektori doirasida (chegasida) hamkorlikdagi pul fondlarini shakllantirish va ulardan foydalanish xususidagi boshqa munosabatlar.


Uy xo'jaliklarining moliyaviy institutlar bilan o'zaro aloqalari moliyaviy munosabatlarning alohida guruhini ifodalaydi. Ularning kredit muassasalari bilan munosabatlari uy xo'jaligi budjeti defitsitini to'ldirish (iste'mol krediti vositasida, yordamida), bo'sh turgan pul mablag'larini bank hisob varaqlarida joylashtirish yoki ularni saqlash va jamg'arish maqsadida boshqa moliyaviy aktivlarga qo'yish orqali namoyon bo'ladi. Uy xo'jaliklarining sug'urta kompaniyalari bilan bo'ladigan munosabatlari esa turli ko'rinishdagi sug'urta fondlarini shakllantirish va ulardan foydalanish jarayoni namoyon bo'ladi.

Uy xo'jaliklari takror ishlab chiqarishning taqsimlash fazasida ishtiroki g'oyat murakkab kechadi, chunki taqsimlashning o'zi ko'p bosqichli bo'lib, unda ko'pchilik subyektlar qatnashadi. Taqsimlash jarayonida uy xo'jaligi yaratilgan mahsulot va xizmatlar bozor qiymatidan o'z ulushini oladiki, bu bozor iqtisodiyotidagi taqsimlash qonuniga binoan yuz beradi. Bu ulushning miqdori uy xo'jaliklarini takror ishlab chiqarishda naqadar ishtirok etishiga bog'liq bo'ladi. Taqsimlash jarayonida mahsulot va xizmatlarning bir qismi uy

xo'jaliklari olsa boshqa qismi firmalarga tegadi. Bu qismlar qayta taqsimlanib ulardan olingan chegirmalar davlat va nodavlat tashkilotlarning ulushiga aylanadi. Taqsimlashdan so'ng keladigan ayirboshlash fazasida tovar va mahsulotlar pulga ayirboshlanadi, ya'ni bu yerda oldi-sotti munosabatlari paydo bo'ladi. Shuni aytish o'rinliki taqsimlash jarayonida uy xo'jaliklari mahsulot va xizmatlarning o'zini emas, balki ularning bozor narxi belgilaydigan pul-qiyamat shaklidagi ekvivalentini oladilar, bozor orqali bu pulni real tovar va xizmatlarga ayirboshlaydilar. Iste'mol tovarlari bozorida uy xo'jaliklari tovarlarga talab bildiruvchi bo'lsa, firmalar tovarlarni, sotuvchi-taklif etuvchi vazifasini o'taydilar. Bu yerdagi munosabat talab va taklif qonuniga binoan kechadi.

Iste'mol fazasida tovar va xizmatlarni muayyan maqsad yo'lida ishlatilishi, ya'ni sarflab yuborilishi yuz beradi. Bu jarayonda firmalarning ishlab chiqarish iste'moli qondiriladi, ya'ni ular ilgari sarflangan resurslar o'rnini to'ldiradilar va yangidan qo'shimcha resurslarni ishlab chiqarishga yuboradilar. Uy xo'jaliklarining iste'mol jarayonidagi munosabati boshqa subyektlar bilan emas, balki xo'jalikni o'zida birlashgan iste'molchilar o'rtasida bo'ladi, ammo iste'mol ish kuchini takroran yaratib firmalarga yetkazib berishga xizmat qiladi. Uy xo'jaligida qisman bo'lsada ishlab chiqarish iste'moli bo'ladi va bu oilaviy ishlab chiqarishdagi resurslarni tiklash va ularni ko'paytirishga qaratiladi.

Uy xo'jaliklarining firmalar bilan bo'ladigan munosabati mikro darajada bo'lib tovar, xizmat va pul oqimlarining qarama-qarshi harakatini keltirib chiqaradi. Xo'jaliklar firmalarga resurs berib, ulardan buning haqi sifatida pul oladilar. (1.1.4-Rasm.)



1.1.4-rasm. Uy xo'jaliklari va firmalarning o'zaro aloqalari¹²

¹² Adabiyotlardagi g'oyalarga tayangan holda magistr tomonidan chizilgan.

Uy xo'jaliklarining firmalar bilan munosabati ko'p qirralidir, chunki turli tipdagi xo'jaliklar turlicha maqsadni ko'zlagan holda funksional farqlanuvchi har xil firmalar bilan munosabatda bo'ladilar. Bularning obyekti pul, tovar, xizmatlar, kapital va ko'chmas mulk bo'lsa ularning subyektlari bir tomondan tadbirkor, ishchi-xizmatchi pentsionerlar xonadoni, ikkinchi tomonda esa tovar chiqaruvchi firmalar, fermer xo'jaliklari, banklar, sug'urta, investitsiya va trast kompaniyalari kabilardir. Ularning aloqalari tovarlar bozori bilan cheklanmay pul kapital, moliyaviy aktivlar, ko'chmas mulk bozorida ham amal qiladi. Bu bozorlarda ishtirok etishdan maqsad o'z manfaatlarini yuzaga chiqarish, ya'ni ish haqi, foyda, dividend, foiz va renta olinishidir. Bu bilan kundalik hayotiy ehtiyojlar qondirilibgina qolmay kapital hosil etib boylik orttirishga ham erishiladi.

Uy xo'jaliklarini boshqalar bilan munosabati aksariyat hollarda bozor munosabati tavsifiga ega, ammo nobozor munosabatlari ham bor. Hozirgi adabiyotda nobozor munosabatlarning mavjudligi ham e'tirof etiladi¹³.

Nobozor munosabatlari uy xo'jaliklarining davlat bilan bo'lgan aloqalariga xos. Davlat va uy xo'jaliklari o'rtasidagi moliyaviy munosabatlar ham to'g'ridan-to'g'ri (bevosita) va qaytarma (yana orqaga qaytariluvchi) aloqalar asosida quriladi (vujudga keladi) va ular budjet hamda nobudjet fondlarni shakllantirish va ulardan foydalanishdagi munosabatlarni ifodalaydi. Uy xo'jaliklarining daromadlari va mol mulklari soliqqa tortilish obyekti sifatida maydonga chiqadi va demak, budjet tizimi daromadlar bazasining tuzilmaviy elementi hisoblanadi. Bir vaqtning o'zida soliqlar, pensiya tizimi, ijtimoiy transfertlar orqali davlat moliyaviy oqimlarni uy xo'jaliklarining turli guruhlariga o'rtasida qayta taqsimlaydi. Uy xo'jaliklari va davlat o'rtasidagi moliyaviy munosabatlarni amalga oshirish jarayonida milliy daromadning ikkilamchi qayta taqsimlanishi sodir bodadi. Bozor iqtisodiyoli sharoitida davlat uy xo'jaliklariga tegishli bo'lgan daromadning taqsimlanishjarayoniga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir

¹³К.Р.Макконел, С.Л.Брю экономика, принципы, проблемы и политики м.1992 стр П.Самуэльсон экономики том 1 м.1992, стр... R.Xasanov Bozor daromadlari mohiyati, tarkibiy tuzilishi va tabaqalanishi. T.: 2004 86-bet

qilish instrumentlariga ega emas. Moliyaviy munosabatlarning bu sohasi davlat tomonidan eng kam darajada reglamentatsiya qilinadi. Buning sababi shundaki, uy xo'jaliklari pul fondlarini shakllantirishning zarurligi, usuli va maqsadi to'g'risida, ularni sarflashning o'lchami va vaqti xususida qarorlar qabul qilishda mustaqildir. Shu bilan birgalikda davlat uy xo'jaliklariga tegishli bo'lgan daromad va yakuniy (oxirgi) iste'molning o'lchamiga (ko'lamiga) ta'sir etishi mumkin. Bu narsa, jumladan, quyidagilar orqali amalga oshirilishi mumkin:

- soliq orqali tartibga solish (tartiblash);
- mehnat haqini to'lash stavkalarini o'rnatish (belgilash);
- birinchi darajali zaruriy mahsulotlar baholarini tartibga solish (tartiblash);
- imtiyozlar tizimi;
- Sog'liqni saqlash va maorifni budjetdan moliyalashtirish orqali ijtimoiy ta'minotni rivojlantirish;
- va boshqalar.

Ularning davlat tashkilotlariga ish kuchi yetkazib berib uning bozor qiymatini ish haqi shaklida olishi bozor munosabati, albatta. Biroq ularning davlatga soliq to'lashi va davlatning bepul sotsial xizmatlaridan foydalanishida nobozor munosabatlari gavdalanadi. Bir qarashda soliqlar davlat xizmatlarining haqi sifatida ko'rinadi. Biroq, ayrim xo'jaliklar to'lagan soliq summasi bilan ular oladigan bepul xizmatlar qiymati o'rtasida tenglik yo'q, demak ayriboshlashdagi ekvivalentlik bo'lmaydi. Davlat xizmatlari xususiy xizmatlardan farqliroq bozor narxiga ega emas ular aholi uchun tekin. Shunday ekan bu yerda bozor munosabatlari bo'lishi mumkin emas. Ayrim tadqiqotlarda davlat sotsial xizmatlari tovar emasligi, ularni yaratish taqsimlash va ulardan foydalanish nobozor munosabatlar sifatida talqin etiladi. Shu fikrga qo'shilgan holda uy xo'jaliklarining davlat bilan munosabatlarida nobozor munosabatlarini ustuvor ekanligini ta'kidlash o'rinli bo'lsa kerak. Davlat bilan bo'lgan munosabatlarning yana bir jihati ularni makroiqtisodiy xarakterda bo'lishidir. Bular pul va tovar xizmatlar oqimining bir-biriga qarab yo'nalishini bildiradi.

Uy xo'jaliklari va davlat o'rtasidagi ayriboshlash, bu yerda ish kuchini davlatga yetkazib berib uning haqini olishga asoslangan bozor munosabatlari, pul shaklida soliqlar to'lash, lekin bepul xizmatlardan foydalanish tariqasidagi nobozor munosabatlari ko'rsatildi. Uy xo'jaliklari o'zaro munosabatga ham kirishadi. Bu g'oyat cheklangan kredit munosabatidir, u minidarajada yuz beradi. Turli tadqiqotlar ko'rsatishicha bu yerda tanish-bilish, qavm-qarindoshlar o'rtasida pulni oldi-berdisi yuz beradi. Bu yerda pul bo'la turib undan foiz undirilmaganda nobozor munosabati paydo bo'ladi, foizli o'zaro kredit berilganda bozor munosabati paydo bo'ladi. Demak xo'jaliklararo munosabatlar obyekti pul bo'lgani holda aloqalar tabiatan nobozor bo'lishi mumkin. Munosabatlarning xarakterini ular obyekting o'zi emas, balki ularni bozor qoidalariga binoan bo'lishi yoki bo'lmasligi belgilab beradi. Xo'jaliklarning ichki aloqalari minidarajada va ular vakillari o'rtasida bo'ladi. Ular nobozor munosabati tasnifiga ega, chunki bu yerda ayriboshlash munosabati yo'q. Bu birinchidan, ikkinchidan uy xo'jaliklarida o'zi uchun, ya'ni natural ishlab chiqarish, iste'molni notovar shakli bor, bu ham nobozor munosabatining bir ko'rinishidir.

Uy xo'jaliklarining iqtisodiy munosabatlari tashqi bo'lganda ular o'zgalar bilan bo'ladi, ichki bo'lganda xo'jalikni tashkil etuvchi kishilar o'rtasida bo'ladi. Bular miqyosan va tabiatan bir xil emas. Boshqalar bilan aloqalar keng ko'lamli bo'lsa, ichki aloqalar tor doirada kechadi.

Yuqorida aytilganlarga tayanib, shuni qayd etish mumkinki, uy xo'jaliklari ishtirok etadigan munosabatlar klassifikatsiyasi amalga oshirilganda, shu munosabatlarning xakteri amal qilish darajasi mezon sifatida qabul qilinishi mumkin.

1.2. Uy xo'jaliklarining turlari, xususiyatlari va nazariy-huquqiy asoslari

Uy xo'jaligi ko'lam jihatidan ministruktura hosil etuvchi g'oyat kichik guruh bo'lsada, uning ichki tuzilishi g'oyat murakkabdir. Bu yerda qon-qarindoshlik, iqtisodiy va sotsial munosabatlar o'zaro tirmashib ketgani holda

amal qiladi. Shuni hisobga olgan holda uning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish mumkin. Ilmiy adabiyotni o'rganish va undagi g'oyalarni umumlashtirgan holda shuni aytish mumkinki, tipologiya etnodemografik, iqtisodiy va sotsial mezonlar asosida o'tkazilishi mumkin. Uy xo'jaligi ko'p hollarda oila asosida quriladi, shu sababli unga etnodemografik xarakteristikasini berish mumkin. Shu jihatdan uy xo'jaligini quyidagi tiplarga ajratish mumkin:

1. Bir oilali;
2. Ko'p oilali;
3. Oilasiz;
4. Aralash;

Bir oilali xo'jaliklar tarkiban kichik bo'lib, oila a'zolarining o'zidan tashkil topadi. Ko'p oilali xo'jaliklar tabiatdan patriorxal bo'lib, o'zida turli oila guruhlarini birlashtiradi. Bular bir nechta mustaqil oilalarning majmuasi bo'lib, buva-buvi, ota-ona, o'g'il-qizlar, hatto nabiralar oilasining birdamligini anglatadi.

Patriorxal belgilari bor uy xo'jaliklari aslida an'anaviy tizimga xos bo'ladi. Bozor munosabati rivojlangan patriorxal aloqalar uziladi, oilalar bir nechta mustaqil xo'jaliklar hosil etadilar. Bu jarayon bozor kuchlarining naqadar kuchli harakat qilishiga bog'liq, shu sababli bozor munosabatlari endigina rivojlanayotgan mamlakatlarda patriorxal aloqalar oz-ko'pdir saqlanib qoladi. Buni O'zbekistonda ham kuzatish mumkin. Bu yerda patriorxal oilalarni parchalanishi va yangi oilalarni vujudga kelishi natijasida so'nggi 20 yilda uy xo'jaliklari ko'payib bordi, lekin patriorxal xo'jaliklar ham uchrab turadi. Bu yerda etnik omil ta'siri ham bor, ya'ni milliy mentalitet, patriorxal munosabatlarni oziqlantiradi. Ular uzoq davr davomida takroriy yaratilib kelganidan milliy an'ana shakliga kirib qolgan. Buni biryoqlama talqin etib bozor munosabati bilan sig'ishmaydigan salbiy hodisa deb bo'lmaydi, chunki ularda mehr-oqibat, o'zaro yordam va hamkorlik kabi umuminsoniy va ijobiy qadriyatlar ham mavjuddir. Oilasizlar xo'jaligi bu so'qqaboshlar xo'jaligi

hisoblanadi, uni yuzaga kelishi va saqlanib qolishi aholi hayot umri bilan bog'liq. Kishilar uzoq yashagan joyda bevalar xonadoni kam bo'ladi, ammo oila buzilishi ko'p bo'lganda so'qqaboshlar xonadoni ko'payadi. O'zbekistonda oilaviy rishtalarni kuchli bo'lishi va aholi umrining uzayishi natijasida so'qqaboshlar xonadoni kamchilikni hosil etadi. O'zbekistonda aralash xo'jaliklar ham kam uchraydi. Bunday xo'jaliklarning xususiyati shundaki, bu yerda qon-qarindoshlik munosabati bor kishilar bilan o'zgalar birlashib yagona xo'jalik hosil etadi. O'zgalar bir yerda xo'jayinlar bilan birga istiqomat qiluvchi uy xizmatchilari, qo'riqchilar va murabbiylardan iboratdir. Aralash xo'jaliklar aholining boy toifasi, ayniqsa magnatlar va oligarxlar sezilarli miqdorda bo'lgan joyda uchraydi. O'zbekistonda davlatning faol sotsial siyosati aholini o'ta boy va o'ta kambag'allarga ajralishiga va zudlik bilan oligarxlar hosil etilishiga yo'l bermaganidan aralash xo'jaliklar onda-sonda uchraydi.

Xo'jaliklarning etnodemografik tavsifini miqdoran baholash xo'jaliklar tipologiyasiga aniqlik kiritishi mumkin, biroq buning uchun aholi ro'yxatlari o'z vaqtida o'tkazilishi lozim. O'zbekistonda esa buni ilojini qila olmasligi uy xo'jaliklarini atroflicha tahlil etishga imkon bermaydi. Xo'jaliklar tipologiyasi uchun iqtisodiy mezonlar muhim, garchi bu etnodemografik omillar ta'sirida bo'lsada. Iqtisodiy jihatdan olinganda daromad miqdori tipologiyaning bosh mezoni bo'la oladi. Shu jihatdan xo'jaliklarni quyidagi tiplarga ajratish mumkin:

1. Kambag'allar – kam daromadlilar.
2. O'rta xollar – daromadi o'rtachalar.
3. Boylar – daromadi ko'plar.

Kambag'allar xonadoni – bu daromadi tirikchilik minimumiga etmaydiganlar xonadoni. Bu guruhni detallashtirib undan odatdagi kambag'allar va o'ta kambag'allarni ajratib ko'rsatish mumkin. Mamlakatlarning taraqqiyot darajasi har xil bo'lganidan kambag'allik chegarasini aniqlashning miqdoriy ko'rsatkichlari (daromad miqdori) bir xil bo'lishi mumkin emas. Dunyoning boy va kambag'al mamlakatlarida qabul qilingan tirikchilik minimumining qiymati turlicha, shu sababli bir yerda daromad miqdoriga qarab kambag'allar guruhini

hosil etuvchi uy xo'jaliklari boshqa yerda o'rta hollarga xos daromad sohibi bo'lishlari mumkin. Iqtisodiy taraqqiyot darajasini hisobga olmay turib xo'jaliklar tipologiyasini aniqlab bo'lmaydi. Ayrim mualliflar O'zbekistonda kambag'al xo'jaliklarni aniqlashda jon boshiga yaratilgan YaIM miqdorini nazarda tutib oziq-ovqat iste'moli minimumiga qarab belgilashni taklif etishadi. Bizningcha bu to'g'ri yondashuvdir.

Daromadga binoan tipologiya amalga oshirilganda xo'jaliklar A.Djinni belgilagan kvintel va detsil guruhlarga ajratiladi. Kvintel guruhiga xo'jaliklarning har guruhidan olingan 20%, detsillarga esa 10% kiritiladi. O'zbekistonda ham bunday tipologiya amal qilinadi. O'zbekistonda o'tkazilgan saylanma statistik tahlilga ko'ra uy xo'jaliklari quyidagicha taqsimlanadi: 1 va 2 kvintel - 22%, 3 kvintel -60%, 4 va 5 kvintel - 18%. Bu kvintellar jon boshiga hisoblangan daromadlar jihatidan jiddiy farqlanadi. Birinchi va beshinchi kvintellar o'rtasidagi farq 8 martadir¹⁴.

Kvintel guruhlarini Maslou piramidasiga joylashtirilganda ular quyidagi toifalarni tashkil etadi:

Birinchi Kvintel o'ta kambag'allar, g'oyat kam ta'minlanganlar;

Ikkinchi Kvintel kambag'allar – kam ta'minlanganlar. Har ikkala kvintel quyi sinflarni hosil etadi; Uchinchi Kvintel – o'rta xollar, ya'ni o'rta sinf vakillari; To'rtinchi Kvintel – boylar; Beshinchi Kvintel – g'oyat boylar;

Oxirgi ikki kvintelga kiruvchilar jamiyatning yuqori sinfini hosil etadilar. Uy xo'jaliklari iqtisodiy jihatdan turlarga ajratilganida daromadlarning faqat miqdori emas, uning manbaalarini ham nazarda tutish lozim. Shu jihatdan qaralganda uy xo'jaliklari quyidagi tiplarga ajraladi:

1) Mehnat daromadiga ega bo'lganlar. Bular yollanib ishlab daromad topuvchilar, kapital sohibi emas, ular o'z mulki bo'lgan ish kuchini sotib daromad oladilar. Ular firmalar, fermer xo'jaliklari, davlat idora va tashkilotlariga yollanib kun ko'radilar, ular daromadi ish haqi shakliga ega;

¹⁴ Saidov R. O'zbekiston respublikasi uy xo'jaliklarida investitsiyalashni takomillashtirish: i.f.n. diss. avtoreferati

2) Tadbirkorlik daromadi oluvchilar. Bu toifaning kapitali bor, u ishga solinadi va daromad olinadi. Bunday xo'jaliklar tarkiban bir hil emas. Ulardan biri kapital keltiradigan va foyda ko'rinishidagi daromad olsa, boshqasi o'z mulkini ijaraga berib mol-mulk daromadi shaklidagi kapital daromadi va renta shaklidagi daromadini oladilar. Ularning yana bir turi pul kapitali keltiradigan va foiz shaklidagi daromadni oladilar;

3) O'zini o'zi ish bilan ta'minlab daromad oluvchilar. Bu toifaga yakka mehnat bilan shug'ullanuvchilar va tomorqa, dala-hovli sohiblarini kiritish mumkin. O'zbekistonda bu toifani tadbirkorlar safiga kiritib, ular daromadini tadbirkorlik daromadiga qo'shadilar. Bizningcha bu to'g'ri emas, bu yerda har xil usulda ishlatiluvchi mulk, tabiatan turlicha daromadlar sun'iy ravishda birlashtiriladi. Bu yerda aralash daromad mavjud bo'lib, bu mehnat, kapital va ko'chmas mulk keltirilgan daromadlar jamlanadi, shu bois aytilgan toifani xo'jaliklarning alohida turiga kiritish ilmiy jihatdan to'g'ri bo'ladi.

Xo'jaliklarning daromadga binoan tipologiyasida sotsial transfertlar tariqasidagi daromadlar ham muhim o'rin tutadi. Bularga odatda pensiya, nafaqa va stipendiyalarni kiritishadi. Ularni O'zbekiston uy xo'jaliklari yalpi daromadidagi hissasi yuqori emas va pasayishiga qarab boradi. Transfert daromadi oluvchi xo'jaliklar sof holda kamdan kam uchraydi. Bular odatda mustaqil yashovchi pensiyanerlar xo'jaligidir, bular ja'mi pensiya oluvchilarning qariyb 5-6% tashkil etadi. Ammo mustaqil pensiyanerlar xo'jaligiga kelgan barcha tushumlar miqdoran kichik, shu sababli ular eng kam daromad oluvchilarni tashkil etadi.

Xo'jaliklar iqtisodiy jihatdan guruhlashtirilganda mulkiy munosabatni va bandlikni ham hisobga olish lozim. Shu jihatdan olganda o'z mulkiga ega yoki o'zga mulkini ijaraga oluvchi xonadonlar farqlanadi.

Uy xo'jaliklarini ular yelkasiga tushadigan sotsial yuk jihatidan ham tasniflash zarur. Bu ishda etnodemografik va iqtisodiy omillarning ta'sirini birgalikda nazarda tutiladi. Demografik omillar uy xo'jaligidagi mehnatga layoqatli kishilar bilan mehnatga layoqatsizlar o'rtasidagi nisbatni belgilaydi.

Iqtisodiy omillar esa bir xo'jalikka hisoblangan daromadlarni turlicha qiladi. Bundan xonadondagi daromad topuvchilar bilan boqimandalar nisbati kelib chiqadi. Natijada xonadonga tushadigan sotsial yuk ya'ni ishga yaroqsizlarni boqish sarfi har xil bo'ladi. Agar daromad kam bo'lgan holda qaramoqdagilar ko'p bo'lsa, sotsial yuk shunchalik og'ir bo'ladi. Aksincha daromad ko'p bo'laturib qaramoqdagilar oz bo'lsa aytilgan yuk yengillashadi. O'zbekiston sharoitida bu yuk kamayishga moyil bo'lsada, u ancha og'ir. Keyingi paytda xonadonda ishlovchilar soni, oshgani holda daromad topmaydiganlar (bolalar) yoki kam transfert daromadiga ega bo'lganlar (pensionerlar) soni qisqarib bordi. Natijada sotsial yuk qisqardi. Biroq xo'jaliklarda daromadning mutloq miqdori kamligidan sotsial yuk ancha og'irligicha qolmoqda, chunki kam ta'minlanganlar xonadonining yalpi daromaddagi hissasi salmoqli o'rin (22%) egallaydi. Xo'jaliklar tavsiflanganda bandlik darajasi va xududiy xususiyatlarni ham nazarda tutiladi. Ish bilan bandlar va ishsizlarning maqomi bir xil emas albatta, bu xo'jaliklar farovonligi sotsial va xatto ruhiy holatini belgilaydi. Xududiy jihatdan shahar va qishloqdagi uy xo'jaliklari farqlanadi. Shahardagilar industrial mehnat bilan mashg'ul bo'lib ko'p daromad olgani holda o'z mehnatidan to'laroq qoniqadi shahar hayotidagi qulaylikdan foydalanib yuqori turmush sifatiga erishadi. Aksincha qishloqdagilar asosan kam unumli agrar mehnat bilan band bo'lib kichik daromad ko'rgani holda zerikarli mehnat bilan band bo'ladilar, lekin bandlik darajasi past yuradi. Bu yerda turmush sifati ham pastroq. Uy xo'jaligi tipologiyasini sotsial belgilarga qarab ham aniqlash lozim. Shu jihatdan ularni ishchi, xizmatchi, dehqon, tadbirkor va pensiyanerlar xo'jaligiga ajratish mumkin. Bu xo'jaliklarni qaysi sotsial toifaga mansubligini bildiradi. Bu mansublik bir qator iqtisodiy oqibatlar mavjudligini bildiradi. Bu mulkni bo'lishi yoki bo'lmasligi, mavjud mulkning miqdori, uni daromad keltirishi bilan tavsiflanadi. Uy xo'jaliklari jamiyatdagi sotsial va iqtisodiy o'zgarishlar ta'siriga beriladi, buning natijasida mustaqil va qaram xo'jaliklar paydo bo'ladi. Ularning nisbati bozor islohotlarining chuqurligi va izchilligiga, ular yaratadigan erkinlik darajasiga bog'liqdir. Institutsional jihatdan qaralganda

chegaralangan va mustaqil, turg'un va noturg'un xo'jaliklarni ajratish mumkin. Iqtisodiy mustaqillikka ega xo'jaliklarni tom ma'nodagi xususiy xo'jaliklar deb atash mumkin. Ular xususiy mulk erkinligiga asoslanadi, bozor talabiga qarab muqobil tanlovga boradi. O'z manfaatlaridan kelib chiqqan holda iqtisodiy qarorlarga keladi, o'z faoliyati uchun o'zi javobgar bo'ladi, ular funksional cheklanishlardan yiroq turadi, davlatga qaram bo'lmaydi. Ayni paytda davlat tomonidan funksional cheklangan xo'jaliklar ham mavjud, bular jumlasiga budget tashkilotlarida ishlovchi va davlat ajratgan daromadga qarab qolgan kishilar xo'jaligi, shuningdek davlat buyurtmalari, uning xarid narxlariga bog'lanib qolgan, shuningdek mustaqilligi chegaralangan tadbirkor xo'jaliklar kiradi. Bularga misol qilib O'zbekiston fermer xo'jaliklarini olish mumkin. Ularni funksional cheklanishlarini yer va suvning davlat mulki bo'lishi, resurslar bozorida qishloq xo'jaligi xomashyosi bozorida davlat monopoliyasini bo'lishini yuzaga keltiradi.

O'tish davrining iqtisodiyoti noturg'un xo'jaliklarni bo'lishi bilan ajralib turadi. Noturg'un xo'jaliklar bu transformatsiyalashuvga kirgan xo'jaliklardir. Bu yerda bir xo'jalik turini boshqasiga aylanishi kechadi. Bu jarayonda yollanma mehnat qiluvchilarni tadbirkorlarga aylanishi, tomorqa xo'jaligini dehqon xo'jaligiga, ya'ni mustaqil tovar ishlab chiqaruvchi xo'jaligiga aylanishi, ishchi yoki xizmatchi xo'jaligini yangi munosabatlarga kirishi yuz beradi.

Ammo bu noturg'un xo'jaliklar faqat o'tish davri iqtisodiyotiga xos degan gap emas. Shakllangan bozor iqtisodiyoti sharoitida ham noturg'un xo'jaliklar bo'ladi, bular raqobatbardosh bo'lmay tugab ketadigan, boshqalarga qo'shilib ketadigan xo'jaliklardan, tadbirkorlar xo'jaligidan yollanib ishlovchilar xo'jaligiga aylanayotgan yoki aksincha mehnat daromadidan tadbirkorlik daromadi olishga o'tayotgan uy xo'jaliklaridan iborat bo'ladi. Turli tipdagi xo'jaliklarni bo'lishi jamiyatdagi munosabatlarning tabiati va rivojlanish darajasidan kelib chiqadi.

Uy xo'jaliklari iqtisodiy tizimlarning tarixiy rivojlanishi va transformatsiyalashuvining mahsuli sifatida umumiy internatsional va milliy

xususiyatlarni o'zida mujassam etadi. Umumiylik ko'pchilik mamlakatlar va millatlarga xos belgilar bo'lib, ular bozor iqtisodiyoti rivojlangan sari kuchayib boradi, umumjahon xarakterga ega bo'ladi, chunki bozor munosabatlari resurslar va tovarlarni milliy chegaradan chiqib xalqaro oborotga kirishi bo'ladiki, bu iqtisodiyot singari uy xo'jaliklarini ham internatsionallashtiradi. Bu jarayon globalizatsiya sharoitida yanada kuchayadi, chunki iqtisodiyotni mamlakatlararo va xalqaro miqyosda integratsiyasi yuz beradi. Integratsiyaga uy xo'jaliklar ham tortiladi, bu yerda milliy qadriyatlar kontakti hosil bo'ladi. Milliy ko'nikmalarning bir qismi yo'qolib ketsa boshqasi o'zgargan sharoitga moslashib transformatsiyaga duch keladi. Erkin bozor munosabatlariga o'tilishi MDH mamlakatlarini, jumladan O'zbekistondagi integratsion jarayonlarni kuchaytiradi. Bu yerda ham uy xo'jaligi faoliyatidagi milliylik tobora umumiylikka aylanib bormoqda. Biroq milliylik darhol yo'q bo'lmaydi, chunki uning tarixiy ildizlari chuqur joylashadi. Uy xo'jaliklariga xos mentallik asrlar osha va turli tizimlar sharoitida shakllanib ularga xos alomatlarni o'ziga singdiradi. Milliylikni quyidagi omillar shakllantiradi:

1. Mamlakat geografik joylashuvi va tabiiy resurslarga naqadar boy bo'lishi. Resurslar ko'p va arzon joyda uy xo'jaliklarida mehnat faolligi zaif bo'lsa, resurslar tanqis joyda ishchanlik kuchli bo'ladi. Bunga misol qilib ko'chmanchi va o'troq xo'jaliklarni olish mumkin.

2. Tarixan shakllangan ishlab chiqarish va iste'molchilik an'analari. Bunga misol qilib O'zbekiston uy xo'jaliklarining mayda ishlab chiqarish va savdo-sotiqqa moyilligini olish mumkinki, bu kichik biznes uchun qulaylik yaratadi.

3. Shakllangan moyillik va urf-odatlarini naqadar saqlanishi, ular doimo takroran hosil bo'lavergach barqarorlikka ega bo'ladi, xo'jaliklarning iste'moli va jamg'arishiga ta'sir etadi. Bunga misol qilib namoyishkorona iste'mol va qishloqdagi yer ijarasiga bo'lgan kuchli intilishni olish mumkin.

4. Tovar-pul munosabatlarining naqadar rivojlanganligi, chunki oddiy munosabatlarning saqlanishi shunga bog'liq bo'ladi.

5. Milliy iqtisodiyotni integratsiyalashuv darajasi. Integratsiya turli millat va elatga tegishli xo'jaliklarning kontaktini kuchaytiradi, ular bir-biriga yaqinlashib tajriba va ko'nikmalarni ayirboshlash qiladilar. Kontakt qanchalik kuchli bo'lsa, uy xo'jaliklardagi milliylik qisqaradi. Bozor tizimi endigina rivojlanayotgan mamlakatlarda milliy belgilar kuchli bo'ladi. Ular O'zbekistonda quyidagilardan iborat:

1. Yirik oilalar asosida qurilgan uy xo'jaliklarining ko'pligi.
2. Ko'p oilali xo'jaliklarning saqlanib qolishi.
3. Oilasizlar xo'jaliklarining oz bo'lishi.
4. Xo'jaliklarda ishlovchilarga nisbatan ishlamaydiganlar (iste'molchilarning ko'p bo'lishi, natijada ishlovchilarga tushadigan sotsial yukni og'ir bo'lishi.
5. Mayda ishlab chiqarish va savdo-sotiq ishlarini xonadonlar afzal ko'rishi.
6. Xo'jaliklarda ortiqcha mehnat resusrlarini mavjudligi.
7. Agrar mehnat bilan shug'ullanuvchi qishloq xonadonlari salmog'ini kattaligi, qishlloqda yer ijara ko'nikmalarini saqlanishi.
8. O'ziga o'zi xizmat ko'rsatuvchi va natural iste'molga moyil xo'jaliklarni saqlanib qolishi.

Aytilgan belgilarni nafaqat tarixan shakllanib shu kunga qadar etib kelgan milliy odat va ko'nikmalar, balki bozor iqtisodiyotining rivojlanish darajasi, industrial potentsial va ishlab chiqarish tarkibini ham belgilaydi.

Xo'jaliklar ko'paygani holda uni tarkibi ixchamlashadi, ya'ni unda istiqomat qiluvchilar soni qisqaradi. Agar ilgari bir xo'jalikda 7.1 kishi bo'lsa, endi ular soni o'rtacha 5.2 kishini tashkil qilmoqda. Xo'jaliklarni tarkiban maydalashuvini bozor munosabati yuzaga keltiradi. Bozor tizimidagi noaniqlik ishlab daromad topish binobarin tirikchilik o'tkazish riskining mavjudligi oilaning demogafik faoliyatini susaytirib, aholi o'sishini sekinlashtiradi. Aholining o'sishiga kelajakdagi risk ham ta'sir etadi. Bu bolalarni tarbiyalab voyaga yetkazish, mustaqil ishlab daromad topishga tayyorlash xarajatlarni katta

bo'lib oilaga sotsial yuk hosil etishidir. Bozor tizimidagi ishsizlik riski ham kishilarni xushyor qiladi, chunki bu vaqti-vaqti bilan tirikchilik o'tazish muammosini yuzaga keltiradi. Xullas bozor sharoitida tirikchilikni o'tkazish mas'uliyati har bir ishga yaroqli kishining o'ziga yuklatiladi, chunki buni o'zgalar kafolatlamaydi.

O'zbekiston Respublikasi prezidenti I.A.Karimov kichik biznes va tadbirkorlikni kengaytirish uchun "... biznesning yangi tashqiliy -huquqiy shakli sifatida oilva'iy biznesni qonuniy belgilab qo'yish vaqti keldi. Mamlakatimizda biznesni tashkil qilishning ushbu shakli biznesni yuritishda yuzaga kelgan milliy an'analarimizga, xo'jalik yuritish faoliyatining mavjud holatiga to'la mos keladi. Ishonchim komilki, bunday biznesni tashkil qilishning qonunchilik bazasi yaratilsa, oilaviy biznesning xuquqiy kafolatlarini kuchaytirish, iqtisodiyotning turli sohalarida uning jadal va keng rivojlanishi va yangi ish o'rinlari ochilishiga sharoit tug'iladi," deb aloxida uqtirgan. Mamlakatimizda demokratik isloxlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasida belgilangan vazifalar asosida 2012 yil 26 aprelda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida"gi Qonun aholi farovonligini oshirish, oilaviy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishda muhim omil bo'layotir.

1.3. Uy xo'jaliklari investitsiya faoliyatini tashkil etish xususiyatlari va yo'nalishlari

Investitsiyalar asosiy kapital va aylanma mablag'larga, inson kapitaliga yo'naltirilib, iqtisodiy faollik va moliyaviy salohiyatni oshiradi. U aholini ijtimoiy himoyalash va farovonligini oshirish, mamlakatning iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash, qudratini yuksaltirish yo'lidagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning tayanchi, tadbirkorning o'z turmush tarzini yanada yaxshilashi va yuqori daromad olish imkonini beruvchi vosita hisoblanadi.

Keng ma'noda investitsiyalar - bu moddiy, moliyaviy resurslar va intellektual qobiliyatning daromad topish yoki ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish va samaraga erishish maqsadida u yoki bu sohaga joylashtirilishidir. Tor ma'noda investitsiya aniq shakldagi mablag'larni joylashtirishdir. Investitsiya qanday ma'noda talqin etilmasin, baribir, u iqtisodiy o'sishi omili ekanligi inkor etilmaydi. Investitsiya jarayoni mablag'larni izlab topish, turli iqtisodiy vositalar yordamida amalda ularni taqsimlash, foydalanish, undan real daromad topish orqali iqtisodiy-ijtimoiy muammolarni hal qilishdan iborat.

Uy xo'jaliklari iste'mol qilishdan tashqari investitsiya faoliyati bilan ham shug'ullanadi. Ularning bu faoliyati boshqa investorlar faoliyati bilan bog'langan holda kechadi. Buni chuqur anglash uchun uy xo'jaligi faoliyatini boshqa xo'jalik subyektlari faoliyati bilan taqqoslash zarur.

Ma'lumki, har bir subyektning investitsiyadagi ishtirokini uning mulkiy maqomi belgilaydi. Investitsiyalarni, mulkiy jihatdan qaralganda, davlat va nodavlat investitsiyalariga ajratish mumkin. Davlat investitsiyalari davlatning iqtisodiy va ijtimoiy funksiyalarini bajarishni tegishli resurslar bilan ta'minlaydi. Uning manbai davlat budget, budgetdan tashqari fondlar va davlat qarzi mablag'laridir. Ularning barchasi yaxlitlikda ijtimoiy sektorning investitsiya resurslarini tashkil etadi. Ular, asosan, ijtimoiy ne'matlarni yaratishga va ularni aholiga bepul yetkazib berishga qaratiladi, biroq, bular ishlab chiqarishdagi davlat sektorini rivojlantirishni ham ko'zlaydi.


Davlatning investitsiyalardagi hissasi iqtisodiyotning liberallik darajasiga va mamlakatning taraqqiyot modeliga bog'liq bo'ladi. Iqtisodiyot liberal bo'lgan joyda davlat katta hajmda investitsiya qilmaydi, chunki buni xususiy sektor amalga oshiradi. Biroq, iqtisodiyot zaif joyda aholining ijtimoiy ne'matlarga ehtiyojini minimal darajada qondirish lozim bo'lgan holda, ularning aholiga bepul yetkazib berilishi ta'minlash uchun katta hajmdagi davlat investitsiyalari talab etiladi.

Investitsiyalarning mulkiy tuzilishi sodda ko'rinsa-da, uning tarkibida murakkabliklar mavjud. Bu, eng avval, nodavlat investitsiyalariga taalluqlidir.

O'zbekistonda shakllangan nodavlat sektori ikki qismdan iborat. Birinchisi, xususiy sektor bo'lsa, ikkinchisi, jamoa sektoridir. Xususiy mulk esa tarkiban bir xil emas, u individual va korporativ mulkdan iborat. Bu mulklar tabiatdan xususiy hisoblansa-da, ular farqlanadi. Shunga binoan investitsiyalarni ham mulk obyekti sifatida farqlantirish zarur.

Individual mulkchilikka asoslangan uy xo'jaliklarida investitsiyalash yo'nalishlari, eng avvalo, moddiy aktivlarni yaratishga qaratilgan bo'ladi va bu aktivlar, asosan, ijtimoiy xarakterga kasb etib, aholining turmush sharoitini yaxshilashga xizmat qiladi.

So'ggi yillarga to'xtaladigan bo'lsak, respublikamizda 2015 – yilda 3,5 milliard dollarlik xorijiy investitsiya o'zlashtirilishi rejalashtirilmoqda. O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov qarori bilan tasdiqlangan investitsiya dasturiga muvofiq, ko'rsatilgan hajmda 76 loyiha bo'yicha 965 million dollar davlat kafolati ostidagi xorijiy kreditlar, 80 loyiha bo'yicha 2,569 milliard dollar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobidan o'zlashtirish ko'zda tutilgan. Eng katta hajmdagi xorijiy investitsiyalar – 2,299 milliard dollar miqdorida 35 loyiha bo'yicha issiqlik-energetika sohasida o'zlashtirish rejalashtirilgan. Bundan xorijiy kompaniyalarning 2,071 milliard dollarlik to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalari neft-gaz sohasidagi 15 ta loyihaga yo'naltirilishi ko'zda tutilmoqda.



1.3.1-rasm. Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar¹⁵

Xulosa qilib shuni ta’kidlash mumkinki, rivojlangan mamlakatlar tajribasi ularning iqtisodiy yuksalishida faol investitsiya siyosati markaziy o’rinni egallashini tasdiqlaydi. Shu bois O’zbekiston ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanish maqsadlari uning investitsiya siyosatida to’liq aks ettirilishini taqozo etadi.

Bugungi kunda esa mamlakatimizda faoliyat ko’rsatuvchi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarga amaldagi soliqlar va bojlar yuzasidan qator yengilliklar, imtiyozlar berilgan. Ushbu imtiyozlarning amal qilishi bevosita mamlakatimizda yuritilayotgan investitsiya siyosatining asosiy negizlaridan birini tashkil etib, o’z ijobiy samarasini bermoqda.

O’zbekistonda xususiy sektor kengayishi natijasida xususiy investitsiyalarning ahamiyati ancha oshdi, biroq, bu, ko’proq, individual mulkchilikka xos bo’ldi. Natijada turli mulkka oid korxona va tashkilotlarning investitsiyadagi ishtiroki o’zgargan(1.3.1-jadval).

1.3.1-jadval

O’zbekiston iqtisodiyotida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning mulkiy tuzilishi¹⁶, (%)

Investitsiyalarning mulk shakllari bo’yicha taqsimlanishi	2008 y.	2009 y.	2010 y.	2011 y.	2012 y.
1. Davlat mulki	63,9	39,7	33,1	23,9	23,4
2. Nodavlat mulk	36,1	60,3	66,9	76,1	81,5
Jumladan:					
Fuqoralar xususiy mulki	15,6	13,6	13,7	12,1	17,4
shirkatlar mulki	1,0	6,0	8,8	5,6	3,9
xo’jalik birlashmalari mulki	12,7	24,1	26,8	25,0	27,1
chet el fuqarolari va qo’shma korxonalar mulki	6,5	16,3	17,5	33,4	28,2
boshqa mulklar	0,1	0,3	0,3	0,1	-

Davlat investitsiyasi uning mulki bo’lib, markazlashgan tartibda shakllanadi, uning amaliy ishlatilishi korxona va tashkilotlarda kechadi. Davlatnikidan farqliroq boshqa subyektlar investitsiyasining shakllanishi va

¹⁵ www.cbu.uz veb sayti ma’lumotlari asosida magistrant tomonidan tayyorlandi.

¹⁶ Statistika ma’lumotlar asosida jadval magistrant tomonidan tuzildi

amalda ishlatishi bir-biridan ajralmaydi. Mulk sohibi bo'lgan uy xo'jaligi o'z investitsiya resursini o'zi ishlatadi, birok, investorlik funksiyasi har doim emas, balki zarur holatda yuz beradi, chunki zarurat paydo bo'lganda investitsiyaga yo'naltiradi. Shu sababli mikrodarajada investorlar tarkibi tez-tez o'zgarib turadi, ulardan biri investitsiya jarayoniga kirib kelsa, boshqasi undan chiqib turadi. Qancha yuridik va jismoniy shaxslar bo'lsa, shuncha potentsial investorlar bor deb aytish mumkin, lekin ularning faqat bir qismi real investitsiya jarayonida ishtirok etadi. Bunda ular kutgan maqsad bir-biridan ajralgan, hatto, ziddiy holatda bo'ladi.

Davlat investor sifatida o'z mablag'larini joylashtirganda iqtisodiydan ko'ra, ko'proq ijtimoiy maqsadlarni, ya'ni ijtimoiy ne'matlarni yaratishni ko'zlaydi. Bu ne'matlar xalq uchun bepul bo'lganidan ularning bozorda shakllangan narxi yo'q, shu sababli ijtimoiy sektordagi investitsiya xarajatlari davlat budjeti hisobidan koplanib, ekvivalent qaytimi bo'lmaydi. Ammo bundan tijorat yo'lidagi investitsiyalar mustasnodir, chunki bularning qaytimi kutiladi.

Korporativ investitsiyalar keng ma'noda bu korxona, tashkilot va uy xo'jaliklarining investitsiyasidir. Tor ma'noda esa bu hissadorlikka asoslangan korxonalar investitsiyasidir. Individual korxonalarda investitsiya resursining egasi ayrim subyektlar bo'lsa, korporativ korxonalarda bu ko'pchilikdan iborat hissadorlar mulki hisoblanadi. Korporativ, investitsiyalar iste'molni emas, balki tovar va xizmatlarni ishlab chikarib, foydani maksimallashtirishni ko'zlaydi, bu yerda investitsiya guruhli korporativ maqsadni ko'zlaydi. Uy xo'jaliklari investitsiyasi xususiy bo'lsa-da, korxona investitsiyasidan farqlirok individual maqsadni ko'zlaydi. Ularning investitsiya borasidagi hatti-harakatlarini o'z faoliyatidan naf ko'rishi izohlaydi. Bu yerda naflilikni maksimallashtirish qoidasi amal qiladi, ya'ni uy xo'jaligi ratsional egoizmga amal qiladi. Biroq, bu egoizm salbiy ma'nodagi xudbinlik emas, balki ijobiy bo'lgan ratsional kutishdan iborat.

Har doim inson o'z oldiga qo'ygan maqsadga maksimal darajada erishishga intiladi. Bu uy xo'jaligi investitsiyasiga ham taalluqlidar. Uy

xo'jaliklari boshqa investorlardan farqli holda, birinchidan, ko'pchilikni tashkil etadi, ikkinchidan, mayda investorlar hisoblanadi. Shu sababli uy xo'jaliklarining jami investitsiyalardagi hissasi ularning daromadlardagi hissasidan ancha kichikligi kuzatiladi. Bizning hisoblashimizga ko'ra, 2014yil 1 yanvar holatiga ko'ra O'zbekistonda o'rtacha 6,5 mln. atrofida uy xo'jaliklari bo'lib, ular potentsial investor bo'lgan. Uy xo'jaliklarining moddiy investitsiyalari, birinchidan, kichik biznes, dehqon va fermer xo'jaliklariga yuborilsa; ikkinchidan, uy-joy qurilishiga joylashtiriladi. Shuningdek, sog'ligini tiklashga yo'naltirilgan investitsiyalar, madaniy-ma'naviy maqsadlar uchun investitsiyalar hamda ta'lim olishga yo'naltirilgan investitsiyalar ham xosdir. Biroq, ulardan yuqoridagi ikki ko'rinishi aksariyat uy xo'jaliklarida asosiy o'rinni egallaydi. Birinchi holda individual xususiy mulk doirasida tadbirkorlikni ko'zlagan investitsiya yuz bersa, ikkinchi holda iste'molga qaratilgan investitsiya hosil bo'ladi. Binobarin, uy xo'jaligi investitsiyasi o'zining ikki yoqlama xarakteri bilan ajralib turadi. Bu yerdagi iste'mol va tadbirkorlik yo'sinidagi investitsiyalarning nisbati aholining uy-joy bilan ta'minlanish darajasiga, daromadlar miqdoriga va nihoyat, kichik biznes rivojlanishi imkoniyatlariga bog'liq bo'ladi. O'zbekiston sharoitida rivojlangan mamlakatlarga nisbatan aholining daromadlari unchalik katta emas, shu sababli ularning o'ziga to'q qatlami xususiy mulk doirasidagi tadbirkorlik investitsiyalarini ta'minlab turadi. Pulni tadbirkorlikka investitsiyalashga qulay sharoit yaratib beruvchi omillardan biri O'zbekiston xalqi mentalitetida mayda biznesga intilishning kuchliligidir. Bu, umuman, Osiyocha iqtisodiy rivojlanish modeliga xosdir. Yuqori qayd etilgan omillar ta'sirida O'zbekistonda ishlab chiqarish va iste'mol yo'sinidagi investitsiyalar nisbati o'zgarib turadi.

Tahlillarning ko'rsatishicha, aholining uy-joy qurilishiga yuborilgan investitsiyalari milliy boylikning o'sishiga o'z hissasini qo'shadi. Uning pul shaklidagi investitsiyalari resurslar bozori orqali moddiylashib, asosiy va aylanma kapitalni yaratadi. Uy xo'jaligi nominal investitsiyalarining real investitsiyaga aylanishi resurslar bozorining holati va u yerdagi narx-navoga

bog'liq. O'zbekiston sharoitida xo'jaliklarning natural ishlab chiqarishga moyilligi mavjud. Bu, nafaqat, qishloq, hatto, shahar xo'jaliklarida ham kuzatiladi. Aholining tomorqa xo'jaligiga yuborgan investitsiyalari ikki xil mahsulot yaratishda ishtirok etadi: Birinchisi, bozorni mo'ljallagan tovar mahsuloti. Ikkinchisi, o'zini-o'zi ta'minlashga qaratilgan natural mahsulot.

Uy sharoitida natural shaklda mahsulotlarning bir qismi jamg'arilib, moddiy shakldagi investitsiya resurslarini hosil etadi. Bular moliyalashtirish jarayoniga kirishmaydi, balki, to'g'ridan-to'g'ri resurs bozorini chetlagan holda ishlab chiqarishga qaytib boradi, u yerda real investitsiyani yaratadi. Bunday hodisa, ko'pincha, dehqon xo'jaliklarida yuz beradi. Bu yerda mahsulotlarning bir qismi urug'lik, ko'chatlar, yosh hayvonlar va parrandalar sifatida asosiy va oborot kapitalga qo'shilib, takror ishlab chiqarishda qatnashadi. Binobarin, dehqon xo'jaliklarida takror ishlab chiqarish yuz berishi uchun investitsiyalarni moliyalashtirish har doim ham shart emas. Buning natijasida investitsiyaning moliyaviy resurslari sun'iy ravishda qisqaradi.

Inson kapitaliga investitsiya qo'yishda uy xo'jaliklari ancha faol bo'ladi, ammo bu jarayon, ko'proq, puldor uy xo'jaliklarda yuz beradi. O'zbekistonda puldorlar o'z pulini o'qish, jumladan, chet elda o'qish, malaka oshirish, kasbiy tajriba, sog'liqni ta'minlashga yo'naltiradilar. Bunday investitsiyadan kutilayotgan mukofot, ko'pincha, noaniq, chunki buni puldorlardan ko'ra, ko'proq, bozor belgilaydi. Uy xo'jaligi investorligida stixiyalik mavjud, bu yerda bozorning o'zgarishi chuqur tahlil etilmagan holda pul u yoki bu ishga sarflanadi, natijada risk ko'payadi. Bunday tendensiya mayda korxona va dehqon xo'jaligida, ko'proq, kuzatiladi. Masalan, 2008 va 2009 yillarda issiq xonasi bor dehqon xo'jaliklari yoqilg'i va elektr energiyasi bilan ta'minlanishda uzilishlar bo'lishini bilmay o'z xo'jaligiga katta pul sarflab, zarar ko'rishgan. Masalan, 2012 yillarda uy-joydan iborat ko'chmas mulkka pul qo'yishgan, lekin sotilish chog'ida bozor kutilgan narxni ko'tarmagan. Ular investitsiya mukofotini olabilmaganlar. Shunday sharoitda ular institutsional investorlar vazifasini bajaruvchi bozor vositachilariga, ko'proq, murojaat etishgan.

Uy xo'jaliklari ko'pligi bois ularning investitsiya resurslari g'oyat tarqoq bo'ladi, unda individual resurslar kichikligi bilan ajralib turadi. Ayrim xo'jalik resursi, ko'p hollarda, individual kapital hosil etish uchun kamlik qiladi, shu sababli pulni moliyaviy aktivlarga joylashtirish afzal ko'riladi. Bu investitsiya, ko'proq, vositachilik qiluvchi moliya institutlari yordamida amalga oshiriladi, ularning uzoq davrga mo'ljallangan investitsiyalarini ixtisoslashgan institutlar boshqaradi. Demak, bu xo'jaliklarda boshqarish funksiyasi investitsiya resursi egasidan ajralgan bo'ladi.

Uy xo'jaligida boshqa investorlardan farqli holda pul qo'yish demografik omillarga ham bog'liq bo'ladi. U yerdagi yosh investorlarning riski katta bo'lsa-da, kelajakni ta'minlovchi va tez daromad beruvchi investitsiyalarni afzal ko'radilar. O'rta yoshli investorlar riski katta bo'lmagan, muhim ravishda joriy daromad keltiruvchi investitsiyalarni yoqtiradilar. Yoshi ulug' investorlar uchun kapitalning o'sishidan ko'ra uni saqlab qolish, ishonchli ravishda katta bo'lmaganda joriy daromad olish muhim hisoblanadi. O'zbekiston aholisi tarkibida birinchi demografik guruhga xos investitsiyalar ko'p bo'ladi.

Uy xo'jaliklariga xos yana bir xususiyat shundaki, ular o'z mablag'ini bilvosita investitsiyalaganda moliya institutlari xizmatidan foydalanishadi. Bular jumlasida banklar, investitsiya va sug'urta kompaniyalari, pensiya fondlari, trast kompaniyalari bo'lib, bular institutsional investorlar vazifasini o'taydilar, ya'ni ular aholi mablag'larini boshqarib turadilar. Ular kishilar pulini daromadli ishlarga yo'naltiradi va undan o'zlari ham daromad ko'radi, bu tabiatan vositachilar daromadidir. Shu sababli uy xo'jaligi daromadidan uning mablag'ini ishlatgan vositachi daromadi ko'p bo'lishi kerak. Bunda $D_1 > D_2$ bo'ladi. Aytilgan daromadlar orasidagi farq institutsional investorlarga tegadi. Uy xo'jaligi investitsiya qilganda, ko'pincha, institutsional institutlarga murojaat etib, amalda individual dillerlar xizmatidan kamdan-kam foydalanadi.

Yuqorida qayd etib o'tilgan holatlarga tayanib xulosa chiqaradigan bo'lsak, investitsiyalarning mulkiy tuzilishiga qarab investorlarning tarkibi shakllanadi. Shunga ko'ra davlat, korporativ va uy xo'jaligi investitsiyalari

yuzaga keladi. Uy xo'jaliklari investor sifatida bir qator xususiyatlari bilan ajralib turadi: bular kichik, lekin eng ko'p bo'lgan individual investorlar hisoblanadi, ularning investitsiyalari iste'mol yo'nalishida ham ishlatiladi, ular individual egoistik manfaatni ko'zlaydi. Bu investitsiyalarda moliyaviy aktivlarga ustuvorlik beriladi, shu sababli ular investitsiya institutlari vositasida amalga oshadi, investitsiyalash, asosan, puldorlar tomonidan amalga oshiriladi. Ular investitsiyalariga stixiyalik va investitsiya mukofotining noaniqligi xosdir.

Biz mazkur bobda uy xo'jaliklarining investitsiya faoliyatining boshqa turdagi xo'jalik subyektlari investitsiya faoliyatidan farq qiluvchi jihatlari hamda o'ziga xos jihatlari o'rganib, muayyan xulosalarni chiqarishga muvaffaq bo'ldik.

Birinchi bob bo'yicha xulosa

Bozor munosabatlari sharoitida uy xo'jaligi sektori muhim o'rin egallaydi. Uy xo'jaligi sektori- asosan ishlab chiqaruvchi va iste'molchi bo'lgan yagona va grupp shaxslarni, xamda ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi xo'jalik birliklarini o'z ichiga oladi.

Uy xo'jaliklari asosan jamiyatda yaratilgan moddiy boyliklar va xizmatlarning yakuniy iste'molchilari bo'lib hisoblanadi. Shu bilan birga, ular iqtisodiy faoliyatning barcha turlari bilan shug'ullanishlari, mahsulot ishlab chiqarishlari va xizmat ko'rsatishlari mumkin.

O'z o'rnida shuni ta'kidlab o'tish kerakki, respublikamizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar va bozor munosabatlarini rivojlanishi uy xo'jaliklari iqtisodiy faoliyatini uy ichida va uy xo'jaligidan tashqari mustaqil iqtisodiy subyekt sifatida moliyaviy faoliyat ko'rsatishlari uchun kundan-kunga keng imkoniyatlar yaratib kelinmoqda.

Investitsiyalarga keladigan bo'lsak, investitsiya - bu moddiy, moliyaviy resurslar va intellektual qobiliyatning daromad topish yoki ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish va samaraga erishish maqsadida u yoki bu sohaga joylashtirilishidir. U

iqtisodiy o'sish omili hisoblanadi va investitsiya jarayoniga investitsiya resurslarining safarbar etilishi bilan bog'liq faoliyatda mujassamlashadi.

Investitsiya jarayoni ko'p subyektli bo'lib, uning har bir ishtirokchisi moliya resurslarini o'z manfaatlaridan kelib chiqqan holda joylashtiradi. Ular orasida uy xo'jaliklari g'oyat ko'pchilik, tarqoq va investitsiya resursining cheklanganligi bilan ajralib turadi. Ularning investitsiya faoliyati doimiy emas, balki vaqti-vaqti bilan takrorlanib turadi, iste'molni qondirish, daromad topish va kelajakni ta'minlash kabi maqsadlarga qaratiladi.

Uy xo'jaliklarida investitsiya resurslari uch manba: foyda, amortizatsiya ajratmalari hamda qarz hisobidan shakllantiriladi. Ular mazkur resurslar hajmiga qarab investitsiyalashda muqobil tanlovni amalga oshiradilar. Investitsiya yo'nalishlarini afzal ko'rish va tanlash ularning investitsiya salohiyatiga hamda maqsadlariga bevosita bog'liq bo'ladi. Ularning investitsiya salohiyati o'ta tabaqalashgan va saylanma tarzida yuz beradi.

Uy xo'jaliklari investitsiyalari aholi bandligi va ijtimoiy himoyasini ta'minlashda katta ahamiyatga ega. Shuningdek, ularda jamg'armaga intilish o'ta yuqoridir. Jamg'arma qanchalik katta bo'lsa, investitsiyalash ham shunchalik yuqori bo'ladi.

II BOB. O'ZBEKISTONDA UY XO'JALIKLARI INVESTITSIIYA FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISH AMALIYOTI TAHLILI

2.1. Uy xo'jaliklari investitsiya faoliyatini mikrokreditlash institutlari resurslari orqali moliyalashtirish tahlili.


Banklar tomonidan iqtisodiyotga yo'naltirilayotgan kreditlar hajmining oshayotganligi barqaror raqobat muhitini shakllantirishga asos bo'lib xizmat qilmoqda. Mamlakatimizda yanada qulay tadbirkorlik muhitini yaratish maqsadida amalgam oshirilayotgan chora-tadbirlar doirasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashni uzluksiz davom ettirish maqsadida ushbu sektor ishtirokchilari uchun moliyaviy kredit resurslaridan keng foydalanishni ta'minlaydigan bozor vositalari, mexanizmlari va amaliyoti takomillashtirilib borilmoqda.

Birgina, o'tgan yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining loyihalarini moliyalashtirishni kengaytirish maqsadida xalqaro moliya institutlari va xorijiy mamlakatlar hukumatlarining imtiyozli 157,8 mln. AQSH dollari miqdorida kredit mablag'lari ajratildi yoki belgilangan ko'rsatkich 121,4 foizga bajarildi¹⁷.

Moliya-bank tizimini barqarorligini yanada oshirish va xalqaro andozalarga muvofiq rivojlanishini ta'minlash hamda yuqori iqtisodiy o'sishini ta'minlashda amalga oshirilayotgan ko'plab chora-tadbirlar iqtisodiyotimizni yanada rivojlanishiga asos bo'lib xizmat qilmoqda. Investitsion muhitning ham kengaytirilayotganligi yanada barqaror o'sish omili hisoblanmoqda. Jumladan, 2014-yilda iqtisodiyotimizga jalb qilingan investitsiyalar hajmi 10,9 foizga o'sdi va AQSh dollari hisobida 14 milliard 600 million dollarni tashkil etdi. Bunda jami kapital qo'yilmalarning 21,2 foizdan ortig'i yoki 3 milliard dollardan

¹⁷F.Mullajonov. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankli Raisi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan iqtisodchi. "O'zbekiston bank tizimi: 2014 yil natijalari va 2015 yildagi ustuvor vazifalar". 2014 yilda pul-kredit sohasidagi vaziyat va monetary siyosatning 2015 yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari. "Bozor, pul va kredit". 1/2015. (www.bpk.uz).

ziyodini xorijiy investitsiya va kreditlar tashkil qildi. Ularning to'rtidan uch qismi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalardir¹⁸.



2.1.1-rasm. Investitsion kreditlar dinamikasi¹⁹

Korxonalarning o'z mablag'lari hisobidan yo'naltirilgan to'g'ridan-to'g'ri xususiy investitsiyalar hajmi 10,3 foizga o'sib, 4 milliard 300 million dollarni yoki jami investitsiyalar hajmining qariyb 30 foizini tashkil etdi²⁰.

Mamlakatimizni xalqaro andozalarga mos ravishda, jahon mamalatlari bilan erkin raqobat qiladigan, iqtisodiy barqaror, makroiqtisodiy ko'rsatkichlar o'sishini yanada kengaytirish bu bizning, mamlakatimizning, moliya-bank sohasini yanada rivojlantirishga qaratgan e'tiborimiz desak hech mubolag'a bo'lmaydi. Iqtisodiyotimizni rivojlanishi, davlatimizning taraqqiyoti kundan kunga yanada rivojlanishi va ravnaq topishi eng oliy va ustuvor vazifadir.

Har bir alohida mamlakatning rivojlanishini namoyon qiluvchi yalpi ichki maxsuloti (YaIM)ning dinamik o'sishini belgilab beruvchi asosiy iqtisodiy omil bu—shubhasiz investitsiyalar hisoblanadi.

Har qanday investor investitsiya faoliyatida, eng avvalo, o'z mablag'lariga tayanadi, bular ikki qismdan, ya'ni foyda va amortizatsiya

¹⁸O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2014-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. www.uza.uz

¹⁹ 2014 yilda pul-kredit sohasidagi vaziyat va monetary siyosatning 2015 yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari. "Bozor, pul va kredit" 1/2015 (www.bpk.uz).

²⁰ O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2014-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. www.uza.uz

ajratmasidan iborat. Foyda uy xo'jaligi budjetiga tadbirkorlik daromadi sifatida tushadi, o'sha yerda taqsimlanib, investitsiya resursini hosil qiladi. Bu resurs, albatta, uy xo'jaligiga tekkan foydaning miqdoriga bog'liq, chunki xo'jalikdagi biznes bilan shug'ullanuvchilar turlicha darajada foyda ko'radilar. Biroq, boshqa daromadlar ham investitsiya resursini, ayniqsa, iste'molni ko'zlovchi resursni yaratishda qatnashadi. Uy xo'jaligi kapitali qo'yilgan kichik biznes sohalarida mehnat unumdorligi yuqori bo'lmaganidan, ular tovarlariga sarf oshib boradi, rentabellik esa pasayadi.

Uy xo'jaliklari investitsiyalarini moliyalashtirish imkonini ular tomonidan yaratilgan YaIM qiymatining miqdori ifodalaydi (2.1.1-jadval).

Uy xo'jaligi sektoriga tekkan YaIM qiymati ikki qismdan iborat. Birinchisi amortizatsiya bo'lsa, ikkinchisi qo'shilgan qiymatdir. Qo'shilgan qiymatning o'zi foyda va ish haqidan iborat. Ish haqi hissasi katta bo'lmaganidan foydaning talay qismi iste'molga yuboriladi va bu investitsiyani cheklab turadi. Uy xo'jaliklari tomonidan olingan foyda yalpi miqdori katta bo'lsa-da, u bir uy xo'jaligiga hisoblaganda kichik chiqadi. Biroq, hamma uy xo'jaliklari emas, balki tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchilar foyda oladilar va mazkur mablag' ular qo'lida investitsiya resursiga aylanadi.

Demak, foyda investitsiya manbai sifatida faqat tadbirkorlarda bo'ladi va uning soliqlar va iste'moldan ortib qolgan qismi investitsiya resursiga aylanadi. Biroq, uy xo'jaligi sektorida bu resursning hammasi emas balki, uning bir qismi investitsiyalanadi, qolgan qismi korxona va tashkilotlar nomidan biznesga yuboriladi. Foyda olmaydigan uy xo'jaliklarga kelsak, bu yerda ish haqining, mulk daromadining va transfertlarning iste'moldan ortib qolgan qismi investitsiya resursiga aylanadi. Bu qism katta bo'lmaganidan investitsiyalash uchun jiddiy manba bo'la olmaydi.

Qishloqdagi dehqon (tomorqa) xo'jaligi ham kam unumli bo'lib, u, asosan, iste'molga qaratilgan holda katta moliya resursini yaratmaydi. Buning ustiga dehqon xo'jaligidagi amortizatsiya ham sezilarli investitsiya manbai bo'la

olmaydi. Shunday holat fuqarolarning individual mulki hisoblangan korxonalarga ham xosdir.

2.1.1-jadval

O'zbekiston Respublikasida uy xo'jaligi sektori daromadlarining

YAIMdagi hissasini o'zgarishi²¹ (%)

№	Ko'rsatkichlar	Yillar								
		2006	2007	2008	2009	2010	2011	2012	2013	2014*
1.	YAIM qiymati	47,4	48,2	59,6	61,2	63,9	64,1	65,6	68,6	71,7
2.	Yalpi qo'shilgan qiymat	34,3	34,5	34,1	35,6	55,3	64,7	65,3	70,5	75,6

* 2012 va 2013 yillarning bazasi sifatida olib, o'rtacha qiymati asosida magistr tomonidan hisob-kitob qilindi.

Uy xo'jaligi sektoridagi ishlab chiqarish, ayniqsa, u servis sohasida bo'lganda, o'zining sermehnatligi bilan ajralib turadi. Sermehnat joyda esa ishlab chiqarish kapital sig'imi kichik bo'ladi, shunga binoan aytilgan sektorda asosiy kapital katta emas, binobarin, u yerda investitsiya ham ko'p talab qilinmaydi.

Amortizatsiya ajratmasi uy xo'jaligi sektorida investitsiya uchun yetarlicha manba bo'la olmaydi. Buni quyidagi ma'lumotlardan ham ko'rish mumkin (2.1.2-jadval). Amortizatsiya ajratmalari va asosiy kapital qiymati bilan quyidagi holat kelib chiqadi.

Amortizatsiya ajratmalari va asosiy kapital qiymati bilan quyidagi holat kelib chiqadi. 2.1.2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, respublikamizda 2003-2014 yillarda uy xo'jaliklari xarajatlarining umumiy hajmida investitsion xarajatlarning salmog'i yuqori darajada o'sdi. Bu esa, aholining turmush farovonligini tobora oshib borayotganligidan dalolat beradi. O'z navbatida, aholining turmush farovonligining oshishi ularning uy-joy, mashina, zargarlik buyumlariga bo'lgan ehtiyojlarini ortishiga olib keladi.

Ayni vaqtda, uy xo'jaliklari xarajatlari hajmida amortizatsiya xarajatlari salmog'i past darajada qolgan. Bu esa, ularning investitsiya xarajatlarini moliyalashtirish imkoniyatini sezilarli darajada cheklab qo'yadi. Agar uy

²¹Yillik statistik ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tuzildi.

xo'jaligi sektoridagi foyda va amortizatsiya jamlansa, bu sektorning o'z investitsiya resursi kelib chiqadi. Agar foydaning hammasi emas, balki bir qismi investitsiyaga yuborilishini nazarda tutsak va jismoniy shaxslar qo'lidagi asosiy kapital amortizatsiyasini istisno etsak, aytilgan resurslar miqdori jiddiy qisqaradi. Bu yerda yana bir narsani e'tirof etish kerakki, uy xo'jaligi qo'lidagi noishlab chiqarish tasnifidagi asosiy fondlar iste'molga xizmat qilgani uchun, ular amortizatsiyasi pul tushumi hosil etmaydi, chunki xarajatga kirmaydi, aksincha, bu joriy daromad hisobidan qoplanadi. Bu ham investitsiya resurslarni qisqartiradi. Ammo, bunday holatdan uy-joyning ijaraga berilishi istisnodir, chunki bu yerda ijara haqi pul tushumiga aylanadi, shundagina u investitsiya resursi uchun manba bo'ladi.

2.1.2-jadval

O'zbekistonda uy xo'jaliklari investitsilari va amortizatsiya ajratmalari darajasi²² (foizda)

Ko'rsatkichlar	Yillar				2014 yilda 2003 yilga nisbatan o'zgaris hi
	2003	2012	2013	2014	
Uy xo'jaliklari xarajatlari hajmida investitsion xarajatlar ulushi	8,8	15,2	15,4	15,9	3,6
Uy xo'jaliklari xarajatlari hajmida amortizatsiya xarajatlari ulushi	1,9	2,3	3	3,04	1,3

Uy xo'jaliklari o'z investitsiya resurslari yetishmagan bir sharoitda tijorat banklarining kreditiga murojat etadi. Kredit, birinchidan, moliya resurslarini turli xo'jaliklar o'rtasida; ikkinchidan, ularni davlat tashkilotlari va uy xo'jaliklar o'rtasida taqsimlaydi. Birinchi holda ortiqcha puli bor subyektlar banklar orqali o'z pulini unga muhtojlarga yetkazib beradi. Ikkinchi holda yuridik va jismoniy shaxslar banklar ishtirokida bir-birini investitsion resurslar bilan ta'minlab turadi. Uy xo'jaliklarining kreditga talabi qimmatbaho tovarlarni olishga zaruriyat tug'ilganda, pulli ijtimoiy xizmatlardan foydalanilganda va

²²O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, BMTning "O'zbekistonda islohotlar jarayoniga ko'maklashish" loyihasining ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblandi.

nihojat, investitsiyaga muhtojlik paydo bo'lganda bo'ladi. Bu talab boshqa subyektlarni bankda jamlangan va vaqtincha bo'sh turgan puli hisobidan qondiriladi. Kredit iste'molni ko'zlaganda uni ishlatish daromad yaratmaydi, u kapital sifatida bo'lganda esa daromad beradi. Daromadlar oshgan paytda xo'jaliklar bir-birini kredit bilan ta'minlashi kuchayadi, chunki shundagina joriy iste'moldan ortib qolgan pul ko'payadi. Uy xo'jaliklari bir-birini kreditlaganda pul bevosita qarzga beriladi, ya'ni puldorlar ortiqcha pulini ishlatib turish va so'ngra ortig'i bilan qaytarib berish shartiga asoslanib qarzga beradilar. Shunday bo'lganda qavm-qarindosh va qo'ni-qo'shni krediti paydo bo'ladiki, undan muhtojlar foydalanadi. Bu kredit O'zbekistonda norasmiy valyuta krediti shaklini oldi, misol tariqasida oldingi yillarga nazar solsak, 1991-2002 yillar valyutaga talab yuqori bo'lgan. Xo'jaliklarning o'zaro kredit tijorat yo'lida oborot mablag'larini shakllantirish, qurilish qilish, turli qurilmalarni sotib olish maqsadida olingan, uning foiz stavkasi bank stavkasidan ancha yuqori bo'lgan. Valyutani kredit uchun sarflash uning aholi tomonidan xaridini oshirgan, chunki valyutada pul saqlash investitsiyaning muhim shakli hisoblangan. O'zaro kredit berish yashirin bo'lib, norasmiy berilgan, shu sababli uning rasmiy statistikasi bo'lmagan. Bu kreditning miqyosi haqida aholining valyuta xaridiga qarab xulosa qilish mumkin.

Uy xo'jaliklari o'z investitsiyasini moliyalashtirish uchun bank kreditini ham olishadi, bu, ko'pincha, iste'mol krediti shakliga ega, biroq, o'zining ishlatilishiga qarab iste'mol doirasidan chiqib ham turadi. Masalan, turar-joy qurilishi yoki o'qish haqini to'lash uchun olingan kredit shaklan iste'mol krediti bo'lsa-da, mohiyatidan investitsiya resursi bo'lib xizmat qiladi, uni jismoniy shaxslar olgan qarz bilan cheklab bo'lmaydi, chunki uy xo'jaligi sektoriga aloqador kichik korxonalar yuridik shaxs bo'lgan holda bank kreditidan foydalanishadi.

O'z daromadining investitsiya uchun yetishmasligi kreditning ahamiyatini oshiradi va bu kredit arzonlashtirilgan kezlarda kuchayadi. Ammo kreditning ahamiyatini oshiruvchi yana bir omil borki, u ham bo'lsa, uy xo'jaligida

dastlabki kapital jamg'arishining yuz berishidir. Sof daromadning jamg'ariladigan qismiga nisbatan biznesga talab qilingan pulning ortiq bo'lishi kapital jamg'arish kredit hisobidan ham ta'minlanadi. O'tish davridagi mamlakatlarda kapital jamg'arish shiddat bilan boradi, chunki busiz yangi iqtisod yuzaga kelmaydi. Ammo jamg'arilgan kapital miqdori ko'lam samarasi talabalariga javob bera olmasligi mumkin, shu sababli kapitalni yaxshi foyda olib ishlatish uchun uning miqdorini kredit hisobidan ko'paytirish kerak bo'ladi.

Ma'lumki, kredit investitsiya uchun pul topishning oson usuli, chunki jamg'arma sof daromad hisobidan ketganda yetarli kapital hosil etish uchun uzoq vaqt talab qilinadi. Investitsiya resursini qarzga olish bu vaqtni qisqartiradi.

Bozor iqtisodiyoti tizimiga o'tish davrida jamg'arilgan kapital miqdori kichik bo'lib, u ko'pchilik mulkdorlar o'rtasida sochilgan bo'ladi. Uni bir yerda to'plab, katta investitsiyaga yuborish uchun unga aksioner kapitali shaklini berish kerak. Kichik biznes o'z nomi bilan kichik bo'lganidan bu yerda aksioner kapital talab qilinmaydi. O'tish davridagi yirik kapital sof daromadni jamg'arishdan ko'ra, ko'proq, xususiylashtirish chog'ida davlat mulkini o'zlashtirib olish yoki karrupsionerlar ko'magida budget mablag'larini o'marish va nihoyat, serdaromad, lekin aslida g'ayri qonuniy operatsiyalarni o'tkazish natijasida shakllanadi. O'zbekistonda aytilgan jarayonlarga davlat yo'l bermaganidan o'zga daromadini o'zlashtirish hisobidan yirik kapital va uni egasi bo'lgan oligarxlar guruhi shakllanmadi. O'zbekiston sharoitida kapital jamg'arishning o'z sof daromadi evaziga borishi investitsiya uchun kreditning ahamiyatini oshirdi. Shuni e'tiborga olib davlat mikro kreditlarni rivojlantirish choralarini ko'radi. Arzon va shartlari yengil mikro kredit uy xo'jaligi sektoriga aloqador kichik biznesni moliyalashtirishning qulay vositasiga aylanadi, ayniqsa, bu uy xo'jaligi sektoridagi dastlabki kapitalni shakllantirishga katta hissa qo'shdi.

Buning uchun zaruriy me'yoriy-huquqiy asoslar yaratildi. Shu o'rinda "Mikromoliyalash to'g'risida"gi (2002 y.), "Kredit uyushmalari to'g'risida"gi (2002 y.), "Mikro kredit tashkilotlari to'g'risida"gi (2006 y.) Qonunlar,

Respublika Prezidentining Mikrokreditbank aksioner tijorat bankini tashkil etish to'g'risidagi (2006 y.) Farmoni, Respublika hukumatining mikromoliyaviy xizmatlarni rivojlantirishga oid qarorlari katta ahamiyat kasb etdi. Natijada mikromoliyaviy xizmat ko'rsatish tizimi shakllandi. Bugungi kunda mazkur tizimning asosiy ishtirokchilari bo'lgan mikrokreditlash institutlari sifatida quyidagilar faoliyat ko'rsatmoqda:

1. Tijorat banklari.
2. Kredit uyushmalari.
3. Mikrokredit tashkilotlari.
4. Lombardlar.

Mikrokreditlash institutlari moliyaviy resurslarining shakllanishi va o'sib borishi uy xo'jaliklari investitsiyalarini moliyalashtirishga qaratildi. Ular faoliyatining ahamiyati uy xo'jaliklarida yuz beradigan dastlabki kapital jamg'arishda qo'l keldi.

Keyingi paytda kichik biznes rivojiga kasanachilik, oilaviy va yakka tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash uchun katta miqdorda kredit ajratildiki, bu ham uy xo'jaliklari investitsiya quvvatini oshirdi. Bu o'rinda, ayniqsa, "Mikrokreditbank"ning imtiyozli kreditlari ahamiyatli bo'ldi. Chunki ular g'oyat past foiz stavkalarida ajratildi.

Mikrokreditbank tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga imtiyozli mikromoliyaviy xizmatlarning ko'rsatilayotganligi tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi fuqarolarning moliyaviy imkoniyatlarini sezilarli darajada oshirmoqda.

Aholining uzoq muddat foydalanishga mo'ljallangan mahalliy uy-ro'zg'or buyumlariga bo'lgan talablarini qondirishga 11,5 mlrd. so'm, shundan ayollarning qo'l mehnatini yengillashtirish maqsadida 10,5 mlrd. so'mlik imtiyozli iste'mol kreditlari ajratildi.

Aholi qo'lidagi bo'sh pul mablag'larini omonatlarga jalb etish maqsadida 24 ta aholi uchun qulay va jozibali omonat turlari taklif etildi, shu jumladan, "2014 yil Sog'lom bola yili" deb nomlanishi munosabati bilan "Paxlavon"


hamda “Qudratli yurt farzandi” nomli muddatli va jamg’arma omonatlar joriy qilindi.

Natijada, 2015 yil 1 yanvar holatiga omonatlar qoldig’i 141,1 mlrd.so’mni tashkil etib, o’tgan yilning shu davriga nisbatan 136,0 foizga o’sishiga erishildi.

Xalqaro moliya instiutlari kredit liniyalari va grantlarini jalb qilish hisobidan kichik biznesni moliyaviy qo’llab-quvvatlash hajmini yanada oshirishga asosiy e’tibor qaratilgan holda, jami 23,5 mln. AQSh dollari miqdorida mablag’lar jalb qilindi.

Jumladan, Xalqaro Taraqqiyot Uyushmasi ishtirokida “Qishloq xo’jaligi korxonalarini qo’llab-quvvatlash II-bosqich” kredit liniyasining 7,5 mln. AQSh dollari miqdoridagi mablag’lari hisobidan qishloq xo’jaligi korxonalarining jami 17,6 mlrd. so’mlik 180 ta loyihalari moliyalashtirildi.

Xususiy sektorni rivojlantirish Islom korporatsiyasidan jalb qilingan 10,0 mln. AQSh dollari mikdoridagi mablag’lar hisobidan 15 ta tadbirkorlik subyekting xorijdan zamonaviy texnika va texnologiyalar xarid qilish bilan bog’liq loyihalarni moliyalashtirishga erishildi.



2.1.2-rasm. O'zbekiston Respublikasi rivojlanishining 2014 yildagi makroiqtisodiy ko'rsatkichlari²³, (foizda)

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag’batlantirish bo’yicha ko’rilgan chora-tadbirlar natijasida o’tgan yili, fermer va dehqon


²³Davlat statistika Qo’mitasi ma’lumotlari asosida magistrant tomonidan tayyorlandi.

xo'jaliklarini hisobga olmaganda, 20 mingdan ziyod yangi kichik biznes subyektlari tashkil etildi. Ularning umumiy soni esa 195 mingdan ziyodni tashkil etdi. Bu 2000 yilga nisbatan 2 barobar ko'pdir.

Yalpi ichki mahsulotni shakllantirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasining ulushi 2000 yildan buyon 31 foizdan 56 foizga, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda 12,9 foizdan 31,1 foizga o'sdi.

2014 yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida 480 mingdan ortiq yangi ish o'rni tashkil etildi. Bu yaratilgan jami ish o'rinlarining yarmi demakdir. Bugungi kunda iqtisodiyotning ushbu sohasida ish bilan band bo'lgan aholining 76,5 foizdan ziyodi mehnat qilmoqda. 2000 yilda bu ko'rsatkich 49,7 foizga teng edi. Iqtisodiyot sohasida izchil amalga oshirayotgan chora-tadbirlar o'zining yuksak samarasini bermoqda.

Bank tizimi tomonidan kichik biznesni rivojlantirish uchun ushbu soha subyektlariga ajratilgan kreditlar hajmi 2013 yilga nisbatan 1,3 barobar ko'payib, 2015 yilning 1 yanvar holatiga 9,2 trln. so'mdan ortiq bo'ldi. So'nggi besh yilda kichik biznesni kreditlash hajmi qariyb 5 barobar ko'paydi.



2.1.3-rasm. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga ajratilgan kreditlar²⁴, 2015 yil 1 yanvar holatiga

Jumladan, mikrokreditlar hajmi 1,9 trln. so'mdan oshib, bu ko'rsatkich ham 2013 yilga nisbatan 1,4 barobar o'sishi ta'minlandi.

²⁴O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida magistr tomonidan tayyorlandi.


Tijorat banklari tomonidan ayollarning tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan kreditlar miqdori 2013 yilga nisbatan 1,4 barobar oshishi ta'minlandi va 960,2 mlrd. so'mdan oshiq bo'ldi.

Shuningdek, banklar yoshlarni, ayniqsa kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarini tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilish maqsadida, 2014 yilda mazkur yo'nalishga 200,9 mlrd. so'm miqdorida kreditlar ajratilib, mazkur ko'rsatkich ham 2013 yilga nisbatan qariyb 1,4 barobar o'sdi.

Xususan, Respublikaning barcha tijorat banklari tomonidan kichik biznesga ajratilgan kreditlarda bank ulushi 7,2 foizni, jumladan mikromoliyaviy xizmatlarda 15,6 foizni hamda banklar kreditlari hisobidan yaratilgan ish o'rinlari bo'yicha 7,9 foizni tashkil etdi.

Shu jumladan, Respublika bank tizimi orqali ayol tadbirkorlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlashga ajratilgan kreditlarda Mikrocreditbank ulushi 7,7 foizni va kasb-hunar kollejlarning bitiruvchilariga ajratilgan kreditlarda 18,6 foizni tashkil etdi.


Hisobot yilida naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimini yanada rivojlantirish maqsadida Respublika tijorat banklari tomonidan muomalaga chiqarilgan plastik kartochkalardagi "Mikrocreditbank" ulushi 5,2 foizni hamda savdo va xizmat ko'rsatish shoxobchalariga o'rnatilgan hisob-kitob terminallaridagi ulushi 7 foizdan iborat bo'ldi.



2.1.4-rasm. Kredit portfeli tuzilmasi²⁵

²⁵Mikrocreditbank yillik hisoboti asosida magistr tomonidan tayyorlandi.

Bankning aktiv amaliyotlarini diversifikatsiyalash siyosati natijasida kredit quyilmalari iqtisodiyotning turli tarmoqlarini rivojlantirishga yo'naltirildi, xususan sanoatga 81,3 mlrd. so'm, qishloq xo'jaligiga 328,3 mlrd. so'm, tarnsportga 3,5 mlrd. so'm, qurilishga 42,2 mlrd. so'm, savdoga 10,2 mlrd. so'm, aholiga maishiy xizmat ko'rsatish sohasiga 67,1 mlrd. so'm va boshqa tarmoqlarga 60,0 mlrd. so'm ajratildi.



2.1.5-rasm. 2012-2014 yillarda Mikrocreditbankning kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasiga ajratgan kreditlar dinamikasi²⁶ (mlrd. so'm)

2014 yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga barcha moliyalash manbalari hisobidan 654,8 mlrd. so'm kreditlar ajratildi, Kichik biznesga ajratilgan kreditlar 2013 yilga nisbatan 30,0 foizga, jumladan, ko'rsatilgan mikromoliyaviy xizmatlar 20,0 foizga oshdi.

O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2014 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasida "...shu borada ishbilarmonlik muhitini yaxshilash hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivoji uchun yanada

²⁶Mikrocreditbank yillik hisoboti asosida magistr tomonidan tayyorlandi.

qulay sharoitlar yaratishga qaratilgan chora-tadbirlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash zarurligini barchamiz albatta yaxshi tushunamiz", deya ta'kidlab o'tilgani mamlakatimiz iqtisodiyotida mazkur sohaning nechog'lik muhim bo'g'in ekaniga alohida urg'u beradi.


Darhaqiqat, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyotning tez o'zgaruvchan bozor talablariga javob beradigan zamonaviy tuzilmalarini shakllantirishda, yangi ish o'rinlari tashkil qilish va aholi daromadlarini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu soha mamlakatimiz taraqqiyotida, avvalambor, xalqimiz uchun munosib hayot barpo etish, murakkab va mas'uliyatli vazifalarni amalga oshirishda hal qiluvchi o'rin va ta'sirga ega bo'lib bormoqda.

Kichik biznesga berilayotgan imtiyozlar korxonalar mablag'larining tejalishiga va aylanma mablag'larini ko'paytirishga, faoliyatini kengaytirishga, pirovardida esa aholi daromadlarini oshirishga olib kelmoqda.

Bank tomonidan ko'rsatilayotgan mikromoliyaviy xizmatlar "Respublikada yangi ish joylari yaratish va aholi bandligini ta'minlash" davlat dasturi prognoz parametrlarida qayd etilgan barcha bandlik yo'nalishlari bo'yicha jumladan, yangi tashkil etiladigan kichik korxona va mikrofirmalarga hamda yakka tartibdagi tadbirkorlikni rivojlantirish uchun boshlang'ich sarmoya mikrokreditlari ajratish, ishlab turgan korxonalarni kengaytirish, parrandachilik, baliqchilik va asalarichilikni rivojlantirish maqsadlari uchun yo'naltirildi.

Mamlakatimizda 2014 yil – "Sog'lom bola yili" deb e'lon etilishi munosabati bilan qabul qilingan davlat dasturida belgilangan vazifalarni hususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni, fermerlikni yanada rivojlantirish, aholi bandligi va farovonligi hamda real daromadlarining izchil o'sishini ta'minlash, xalq turmush darajasi va sifatini oshirish, munosib uy-joylar va ijtimoiy-maishiy sharoitlar yaratish borasida bank tomonidan belgilab olingan bir qator ishlar amalga oshirildi.

Bankning “2014 yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga ko’rsatiladigan mikromoliyaviy xizmatlarni kengaytirish dasturi”da belgilangan prognozlar ijrosi to’liq bajarildi.




2.1.6-rasm. Mikrocreditbank tomonidan mikromoliyaviy xizmatlar²⁷

Xususan, hisobot yilida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga 296,7 mlrd. so’mlik mikromoliyaviy xizmatlar ko’rsatildi. Bunda, yangi tashkil etilgan subyektlarga boshlang’ich sarmoyani shakllantirish uchun ajratilgan mikrokreditlar 43,1 mlrd. so’mni tashkil etdi.

Hisobot yilida, oilaviy, xususiy tadbirkorlik va hunarmandchilik subyektlariga 48,5 mlrd. so’m miqdorida kreditlar yo’naltirildi. Yangi korxonalar barpo etish, mavjudlarni rekonstruktsiya va modernizatsiya qilish bo’yicha loyihani amalga oshirish hisobiga qishloq xo’jaligi mahsulotlarini qayta ishlashni kengaytirish va iste’mol oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarishni ko’paytirish yuzasidan oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalarga texnologik uskunar hamda xom ashyo va materiallar sotib olish uchun 95,4 mlrd. so’m miqdorida kreditlar ajratildi.

²⁷ Mikrocreditbank yillik hisoboti asosida magistr tomonidan tayyorlandi.



2.1.7-rasm. Kollej bitiruvchilariga ajratilgan kreditlar²⁸, mlrd.so'm

Bank yoshlarni tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash dasturida faol ishtirok etdi. Kollej bitiruvchilarini, xususan qizlarni tadbirkorlikka jalb etish borasida ham keng ko'lamli ishlar amalga oshirdi. Ularga ajratilgan imtiyozli mikrokreditlar 2013 yilga nisbatan 1,7 barobarga oshib, 37,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Umuman olganda, ko'pchilikning daromadlari investitsiya uchun yetishmaydi. Ayni paytda uy-joy qurish qiymatining o'sishi yuz bermoqda. Bu ipoteka kreditiga bo'lgan talabni oshiradi. Uy xo'jaliklari daromad jihatidan tabaqalashuvini va uy-joy qiymatining o'sishini nazarda tutib, ipoteka dastlabki to'lovining miqdorini mijozning moliyaviy ahvoriga qarab belgilash kerakki, bu daromadi kichik uy xo'jaliklar uchun qulay bo'lishi kerak. Shu maqsadda respublikamizda daromad darajasi past bo'lgan uy xo'jaliklarining tijorat banklari ipoteka kreditlaridan foydalanish darajasini oshirish uchun ipoteka kreditlarining imtiyozli stavkasi bilan bozor stavkasi o'rtasidagi farq summasini davlat tomonidan subsidiyalash, ipoteka kreditlari bo'yicha avans to'lovini ushbu toifa uy xo'jaliklari uchun kamida 10 foizli punktga pasaytirish lozim.

²⁸Mikrokreditbank yillik hisoboti asosida magistr tomonidan tayyorlandi.

Shunday bo'lganda ipotekani aholi investitsiyasidagi roli jiddiy tarzda kuchayishi mumkin.

Xulosa qilsak, uy xo'jaligi investitsiyalarini moliyalashtirishda amortizatsiya ajratmalari sezilarli manba bo'la olmaydi, chunki uning ixtiyoridagi asosiy fondlarning katta qismi iste'mol tavsifida bo'lib, ular amortizatsiya hosil etmaydi, shu bois uy xo'jaligi investitsiyasi uchun kreditning rolini kuchaytirish zarurati mavjuddir. Bu esa foiz stavkasini kishilarining moliyaviy ahvoriga qarab tabaqalashtirish yoki kredit foizining bir qismini dotatsiyalashtirishni talab qiladi.

2.2. Uy xo'jaliklari aktivlari – investitsiya faoliyatini jadallashtirishdagi roli

Uy xo'jaliklari jahondagi har bir mamlakatning o'ziga xos eng muhim institutlaridan biri hisoblanadi. Uning samarali faoliyat ko'rsatishi iqtisodiy o'sishning sifatiga va ijtimoiy farovonlikning darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham keyingi yillarda O'zbekistonda uy xo'jaliklari moliyasi masalalariga katta e'tibor qaratilmoqda.

Aholi daromadi farovonligini oshirish borasida sifat jihatdan chuqur o'zgarishlar yuz bermoqda. Aholining ish haqi va umuman, pul daromadlari oshib bermoqda, uning xarid quvvati muttasil o'smoqda, fuqarolarimiz iste'mol qiladigan mahsulot tarkibining sifati oshmoqda. Aholining daromadlari tarkibida tadbirkorlik faoliyatidan olinayotgan daromad ulushi tobora salmoqli o'rin egallamoqda va barcha daromadlarning 50 foizdan ortig'i ushbu soha hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Mamlakatimizda zamonaviy uy xo'jaliklari moliyasini barpo etish mustaqilligimizning dastlabki yillaridanoq boshlangan edi. Bu narsa mamlakat iqtisodiyoti oldida juda keskin o'zgarishlarni amalga oshirish sharoitida sodir bo'lib, ular o'z navbatida, uy xo'jaliklari moliyasining oldida turgan birinchi darajali vazifalarni ham aniqlab berdi. Ularning orasida uy xo'jaliklarini xo'jalik yuritishning bozor sharoitlariga moslashtirish, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash

va milliy iqtisodiyotda investitsion faoliyatni rag'bantlantirish alohida o'rin egallaydi.

Uy xo'jaliklari aktivlari muhim investitsiya resurslaridan biri hisoblanadi. Hozirgi kunda O'zbekistonda 5 mln dan ortiq uy xo'jaliklari mavjud bo'lib, 2003-2010 yillar davomida uy xo'jaliklari aktivlarining umumiy qiymati 3 marta ortdi. 2003 yilda uy xo'jaliklarining umumiy aktivlari o'rtacha har bir xo'jalikka 6400 dollarni ya'ni umumiy hajmda 35 mlrd dollarni tashkil etgan bo'lsa, bu hozirgi patda o'rtacha har bir xo'jalikka taxminan 17000 dollarga yaqin ya'ni umumiy miqdorda 87 mlrd dollarni tashkil etmoqda²⁹.

Tarixiy nuqtai nazardan istiqbolimizning qisqa yillarida uy xo'jaliklari moliyasi masalalarida juda katta yutuqlarga erishilganiga qaramasdan, bu yerda hamon talay muammolar mavjud. Uy xo'jaliklari moliyasining eng muhim tarkibiy qismi va markaziy bo'g'ini hisoblangan uy xo'jaliklari budjeti daromadlarining juda murakkab tarzda va katta qiyinchiliklar evaziga shakllantirilayotganligi, uy xo'jaliklari jamg'armalarini ma'lum bir me'yorlar darajasida ushlab turishning zarurligi, hamma vaqt ham uy xo'jaliklari aktivlaridan samarali foydalanilmayotganligi ana shunday muammolar qatoriga kiradi.

2.2.2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Davlat Investitsiya dasturini amalga oshirishda, asosan, markazlashmagan investitsiyalar ishtiroki yuqori hisoblanadi va yil sayin o'sib borish tendensiyasiga ega. Bunda markazlashgan va markazlashmagan investitsiyalar tarkibida muayyan , ya'ni ham miqdor, ham ulush bo'yicha o'zgarishlar bo'lganligini ko'rish mumkin. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlarning Investitsiya dasturidagi ishtiroki, aynan, markazlashmagan investitsiyalar tarkibida alohida o'rin egallagan bo'lib, uning ulushi 2013 yilda 2011 yildagiga nisbatan 1,0 birlikka oshgan holda miqdor jihatidan 2,1 barobarga ortiqroqdir. Bu esa bugungi kunda hukumat kafolati ostida xorijiy sarmoyalarning jalb etilishi hajmi tobora qisqarib borayotganligini va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya ulushi ortib

²⁹Экономическое обозрение 2010 г., №3, стр. 20-21.

borayotganligini va hukumat tomonidan unga bo'lgan e'tibor ham ortib borayotganligini ko'rsatadi.

2.2.2-jadval.

Davlat investitsiya dasturlari doirasida asosiy kapitalga investitsiyalar tarkibida xorijiy investitsiyalar ulushi³⁰, mlrd. so'm

Ko'rsatkichlar	2011 yil		2012 yil		2013 yil	
	hajmi	ulushi, %	hajmi	ulushi, %	hajmi	ulushi, %
Asosiy kapitalga investitsiyalar	5479,7	100,0	8483,7	100,0	10458,9	100,0
Markazlashgan investitsiyalar	1099,7	20,1	1717,0	20,2	2465,0	23,6
- budget mablag'lari	492,9	9,0	761,8	9,0	902,7	8,6
- nobudget fondlari mablag'lari	334,8	6,1	533,6	6,3	572,0	5,5
- xorijiy investitsiyalar va hukumat kafolati asosidagi kreditlar	272,0	5,0	421,6	5,0	684,6	6,5
Markazlashmagan investitsiyalar	4380,0	79,9	6766,7	79,8	7993,9	76,4
- korxonalar mablag'lari	2610,0	47,6	3741,1	44,1	4643,0	44,4
- aholi mablag'lari	621,9	11,3	828,0	9,8	827,2	7,9
- to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar	975,7	17,8	1772,1	20,9	1963,7	18,8
- tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	172,4	3,1	425,5	5,0	560,0	5,3

Hozirgi kundagi uy xo'jaliklari aktivlarining harakatini tahlil qiladigan bo'lsak, foydalanilmayotgan imkoniyatlar anchagina ekanligini anglab olish mumkin. Masalan: 70 % atrofidagi uy xo'jaliklari so'ngi 5 yil mobaynida bankka murojat qilmaganlar, 39% uy xo'jaliklari esa ularning yashash punktlarida bank yoki bankning bo'limlari borligi haqida ma'lumotga ega emaslar, banklardagi uy xo'jaliklarining depozitlari anchagina kam ulushda, bank aktivlari va mulkdan olinadigan daromad uy xo'jaliklari umumiy daromadlarining arziyas qismini tashkil etadi, 35% oilalarning jamg'armalari u yoki bu formada taqsimlangan, ya'ni 24% oilalar bankda saqlanmayotgan naqd pul jamg'armalariga egalar, qimmatbaho buyum ko'rinishidagi qiymatliklar esa 11% ni tashkil etadi, 20% oilalar banklarda saqlash uchun yetarli jamg'armaga egalar. Ularning 45% bu jamg'armalarni uyda saqlashni afzal ko'rsalar, 45%

³⁰O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida magistr tomonidan hisoblandi.

dan ko'proq qismi esa bu jamg'armalarni turar joy yoki tovarlarga qo'yishni afzal³¹.

Banklar tomonidan aholiga ko'rsatilayotgan xizmatlar ko'lamini kengaytirish, zamonaviy texnologiyalar asosida qulayliklar yaratish maqsadida amalga oshirib kelinayotgan bir qator chora-tadbirlar ham mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida o'z aksini topmoqda.

Prezidentimiz «Bankdan tashqari pul aylanmasini keskin qisqartirish va pul muomalasini mustahkamlash, milliy valyuta barqarorligini oshirish, chakana savdo va xizmat ko'rsatish sohasida hisob-kitoblarni amalga oshirishda plastik kartochkalardan foydalanishni kengaytirish masalalari bundan buyon ham e'tiborimiz markazida bo'lishi darkor»³², deb ta'kidlab o'tgan edi.

Aholining muddatli omonatlarining bank uchun resurs sifatida afzalliklari quyidagilardan iborat:

- aholining muddatli omonatlari nisbatan arzon resurs hisoblanadi.
- muddatli omonatlarga foiz to'lash bilan bog'lik xarajatlar banklararo kreditlar, bank veksellari va boshqa moliyaviy instrumentlar bo'yicha xarajatlardan sezilarli darajada kamdir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida aholining va korxonalarning banklarga mablag'larini muddatli va jamg'arma depozitlari shaklida qo'yishdan manfaatdorligini yuzaga keltiradigan birlamchi omil depozitlarga to'lanadigan foiz stavkalarining darajasi hisoblanadi. Ammo aholining talablariga mos keladigan foiz stavkalarini jamg'arma depozitlari bo'yicha to'lanmayotganligi: aholining qo'yilgan jamg'arma depozitlari va ularga hisoblangan foizlarni o'z vaqtida banklardan naqd pul shaklida olishlariga to'liq ishonchning mavjud emasligi aholining mablag'larini to'liq hajmda banklarga jalb qilishda qiyinchiliklar tug'dirmoqda. Shu bois tijorat banklari o'z resurs bazasini oshirish uchun mijozlar bilan munosabatlarini takomillashtirish, mijozlarga xizmat


³¹Экономическое обозрение 2010 г., №3, стр. 20-21.

³² Islom Karimov "Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi". //2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. // Xalq so'zi. 2011 y 22 yanvar.

ko'rsatish va ularning talablarini qondirish bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalarni erkinlashtirishlari asosida aholi ishonchini qozonishi, ularning bo'sh pul mablag'lari va jamg'armalarini bankka jalb qilish bo'yicha yangi xizmatlar qo'llashni ishlab chiqishlari lozim.

O'zbekistonda banklarga bo'lgan ishonchning mustaxkamlanishida 2003 yilda "Bank siri to'g'risida"gi qonunning qabul qilinishi katta ahamiyatga ega bo'ldi. Unga ko'ra banklar tomonidan mijozlarning operatsiyalari, hisobvaraqlari va omonatlarga doir ma'lumotlar sir saqlanadi.

Ushbu qonun hujjatlarining qabul qilinishi hamda tijorat banklari tomonidan aholiga ko'rsatilayotgan zamonaviy bank xizmatlari turlari kengaytirilishi va banklar tomonidan aholiga qulay va jozibador omonat turlari taklif etilishi natijasida aholining banklardagi omonatlari salmog'i yildan-yilga oshib bormoqda. Birgina TIF Milliy banki misolida ko'rsak ham 2000 yilga nisbatan ham 442,1 mlrd.so'mga oshganligini ko'ramiz



2.2.1-rasm. TIF Milliy bankidagi so'mda qo'yilgan aholi omonatlari hajmining o'sishi³³ (mlrd.so'm) 2014 yil 1 yanvar holatiga

Diagramma ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, aholimiz tomonidan so'mda qo'yilgan jamg'armalar miqdori yil sayin ortib bormoqda. 2012 yilga nisbatan 2013 yil oxirida 110 mlrd so'mga qo'yilmalar ortganligini ko'rishimiz

³³ TIF Milliy bankining 2013 yil yakunlari hisoboti

mumkin. Bu bank tizimiga, xususan TIF Milliy bankining faoliyatiga ijobiy berilgan bahodir. 2014 yilda o'tkazilgan aholini o'zining jozibadorligi bo'yicha jalb qila oladigan omonat tanlovida ham tahlil qilayotgan bankimiz ikkinchi o'rinni egalladi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining omonatlarini jahonda yuz berayotgan moliyaviy inqirozning salbiy oqibatlaridan himoyalashning ishonchli kafolatlarini ta'minlash, mamlakat bank tizimiga aholining ishonchini tobora mustahkamlash, aholi omonatlarini tijorat banklariga jalb qilish uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish maqsadida 2008 yil 28 noyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Fuqarolarning banklardagi omonatlarini himoyalash kafolatlarini ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi.

Aholining omonatlarini banklarga keng ko'lamda jalb qilishni ta'minlash maqsadida banklarning joriy likvidligining barqaror darajasini ta'minlash lozim. Bunda muddati kelgan omonatlarining va ularga hisoblangan foizlarning naqd pulda o'z vaqtida va to'liq berilishini ta'minlashga e'tibor qaratish lozim.

Depozitlarning o'z vaqtida mijozlarga qaytarilishini ta'minlash maqsadida tijorat banklarining likvidliligi va to'lovga qobilligi ustidan amalga oshiriladigan nazorat va tahlilni kuchaytirish lozim.

Uy xo'jaliklari jamg'armalarining investitsiya resurslari sifatida jalb qilinishi, nafaqat ishlab chiqarishning o'sishi va rivojlanishini ta'minlaydi, balki milliy daromadning ko'payishiga, farovonlikni oshishiga va uy xo'jaliklari yashash sifatining yaxshilanishiga sabab bo'ladi.

2.3. Uy xo'jaliklari moliyaviy barqarorligini ta'minlashda davlatning aholi turmush darajasini yaxshilash borasidagi siyosati

Prezidentimiz tomonidan 2014 yil 6 fevralda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 2124-sonli Qarorga asosan yoshlarning mustaqil hayot yo'lidagi ezgu va qat'iy maqsadlarini ro'yobga

chiqarish, o'z orzu-istak va iqtidori, qolaversa, egallagan kasb-hunarlarini bo'yicha tadbirkorlik bilan shug'ullanishlariga qulay shart-sharoit yaratildi. Mazkur Qarorga muvofiq, Vazirlar Mahkamasi tomonidan ishlab chiqilgan «Mamlakatning ijtimoiy hayotida faol qatnashayotgan yosh oilalarni uy-joy bilan ta'minlashni yanada qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi 250-sonli qarorda turar joy sharoitlarini yaxshilashga muhtojlar sifatida hisobda turgan hamda fan, san'at, adabiyot, sport va boshqa sohalarda yuksak natijalarga erishgan yosh oilalar uchun ko'p kvartirali «Kamolot» uylarining bunyod etilishi belgilandi.

Hozirda ushbu turdagi uylarning qurilishini moliyalashtirish «Asaka» davlat aktsiyadorlik-tijorat banki, «O'zsanoatqurilishbank» ATB, «Qishloq qurilish bank» ATB, «Aloqabank» ATB, «Ipoteka-bank» ATIB, Davlat-tijorat Xalq banki, «Trastbank» XABB kabi moliya muassasalari tomonidan faol ravishda amalga oshirilmoqda.

Xususan, «Aloqabank» ATB Toshkent shahrining Uchtepa va Toshkent viloyatining Ohangaron, Bo'stonliq tumanlarida hamda Olmaliq, Angren, Bekobod shaharlarida 175 xonadondan iborat jami 6 ta «Kamolot» uylari qurilishini moliyalashtirmoqda. Ularning 2 tasi foydalanishga topshirilgan bo'lsa, yana bittasida (Bo'stonliq tumanidagi) qurilish ishlari yakunlanish arafasidadir³⁴.

Mamlakatimizda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotining shakllantirilganligi aholini ijtimoiy himoyalashda o'z ifodasini topmoqda. Davlat ijtimoiy siyosatining mohiyati turli ijtimoiy guruhlar, tabaqalar o'rtasida tabaqalanishning haddan tashqari chuqurlashuviga yo'l qo'ymaslik, ularning ma'lum darajada teng hayot kechirishini ta'minlashga qaratilganligida namayon bo'ladi. Jamiyat a'zolarining daromadlilik darajasi aholi farovonligining muhim ko'rsatkichi bo'lib, uni yuqori bo'lishi kishilarning moddiy va ma'naviy hayoti, ilm olishi, davolanishi, dam olishi va boshqa ehtiyojlarini to'liqroq qondirish imkoniyatini yaratadi. Shunga ko'ra, davlatning ijtimoiy siyosati – ijtimoiy

³⁴<http://www.finance.uz> veb sayti ma'lumotlari asosida magistr tomonidan tayyorlandi.

jarayon va kishilar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan davlat tomonidan amalga oshiriladigan chora-tadbirlarning yig'indisidir.

Ijtimoiy ta'minot tizimining quyidagi asosiy vazifalari mavjud:

- aholining turmush darajasi va uning sifatini oshirish;
- kishilarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini to'liqroq qondirish uchun shart-sharoitlar yaratish;
- ijtimoiy adolatni chuqurlashtirish, ijtimoiy kafolat va ijtimoiy himoya mexanizmini takomillashtirish.

Ijtimoiy himoyaning tub mohiyati Prezidentimiz I.A.Karimovning quyidagi fikrlarida o'z ifodasini topgan: “Barcha islohotlarning, iqtisodiy, demokratik, siyosiy islohotlarning asl maqsadi insonga munosib turmush va faoliyat sharoitlarini vujudga keltirishdan iborat”³⁵.

Mamlakatimizda islohotlarning boshlang'ich davridan boshlab aholini kuchli ijtimoiy himoya qilishga katta e'tibor qaratildi. Jumladan, miqdori muntazam o'zgartirib borilgan ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar, turli nafaqalar, kompensatsiya to'lovlari, bevosita pul to'lovlari, imtiyozlar va turli dotatsiyalar tarzidagi bilvosita to'lovlar keng qo'llanildi. Eng kam ish haqi va pensiyalar soliqqa tortilmadi. Korxonalarning o'z xodimlariga ijtimoiy yordam ko'rsatish sohasidagi xarajatlarini bir qismi budjet mablag'lari hisobidan qoplandi, ba'zi turdagi kommunal xizmatlar haqini to'lashda yengilliklar joriy etildi. Xususan, Prezidentimizning 2014 yil 13 oktyabrdagi “1941-1945 yillardagi urush va mehnat fronti faxriylarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni e'lon qilinganligi va joriy yilni mamlakatimizda “Keksalarni e'zozlash yili” deb e'lon qilinishi munosabati bilan 2015 yil 1 maydan e'tiboran, 100 yoshga to'lgan va undan oshgan fuqarolarga eng kam oylik ish haqining 100 foizi miqdorida ustama haq to'lash belgilandi. Shuningdek, uy-joy kommunal xizmatlari haqini to'lash bo'yicha eng kam oylik ish haqining tabaqalashtirilgan miqdorlarda har oylik kompensatsiya to'lovlari

³⁵I.A.Karimov “O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida” T. “O'zbekiston” 1995 y. 119 bet.

beriladigan shaxslar imtiyozli toifalarining yangi ro'yxati tasdiqlandi. Unga ko'ra har oylik kompensatsiya pul to'lovlari:

- 1941-1945 yillardagi urushda qatnashgan fuqarolarga eng kam oylik ish haqining 50 foizi miqdorida;
- o'zgalar qaramog'iga muhtoj bo'lgan yolg'iz pensionerlarga 45 foizi miqdorida;
- shaxsiy pensionerlar, fashistlar konslagerlarining sobiq voyaga yetmagan tutqunlariga 45 foizi miqdorida;
- 1941-1945 urush yillarida mehnat fronti qatnashchilariga eng kam oylik ish haqining 25 foizi miqdorida kompensatsiya to'lovlari to'lanishi ko'zda tutildi.

Bundan tashqari 2015 yil davomida 75 yosh va undan oshgan fuqarolarga tayinlangan pensiya va nafaqalarning hisoblanishi va qonunchilikda ko'zda tutilgan imtiyozlar qo'llanilganligining to'g'riligini tekshirishda aniqlangan ortiqcha to'langan pensiya va nafaqalarning miqdorlari hisobdan chiqarilishi belgilandi.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida aholini ijtimoiy himoyalash tizimi tubdan yangilanib, ishonchli kafolatlar ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini to'liq qamrab oldi. Moddiy yordam tizimi kam ta'minlangan va mehnatga layoqatsiz shaxslarga nisbatan qo'llanilib, bunda davlat budjeti mablag'lari bilan birga mehnat jamoalari, turli tashkilot va jamg'armalarning mablag'laridan ham keng foydalanilmoqda.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, islohotlar davrida davlat aholining muhtoj qatlamlarini ijtimoiy himoyalashning turli yo'llari bilan birga, o'z mehnat faoliyati natijasida oilasining farovonligini ta'minlashga harakat qiluvchi fuqarolarga keng sharoit va qulay imkoniyatlar yaratdi.

Fuqarolarni ijtimoiy himoyalashning huquqiy kafolatlangan kuchli va ta'sirchan mexanizmi mavjud bo'lgandagina mamlakatda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni saqlab qolish mumkin. O'zbek modeli sifatida tan olingan mustaqil

taraqqiyot yo'limizning negizida beshta tamoyildan biri – kuchli ijtimoiy siyosat olib borish ekani bugun o'zining yuksak samarasini ko'rsatmoqda.

Mamlakatimizda yalpi ichki mahsulot, mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarishning yuqori sur'atlarda barqaror o'sib borishi, budget sohasi xodimlarining ish haqi, pensiya, nafaqa va stipendiyalar miqdorining muntazam qayta ko'rib chiqilishi, ta'lim, sog'liqni saqlash va ilm-fan sohalari xizmatchilarining mehnatini rag'batlantirish, aholi turmush darajasini tubdan yaxshilashga qaratilgan boshqa chora-tadbirlar, ayniqsa, oxirgi yillarda xalqimizning hayot sifati izchil yuksalib borishini ta'minladi.

Yalpi daromadlar tarkibida shu davr mobaynida mulk daromadlari, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishdan olingan daromadlar ko'rinishidagi yangi daromad turlari paydo bo'ldi.

Oilaning yalpi daromadlari oshib borishi bilan bir vaqtda yurtimizda iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshirish va aholiga ko'rsatilayotgan xizmat turlarini kengaytirish hisobidan ushbu daromadlardan samarali foydalanish uchun sharoit yaratildi.

2.3.1-jadval

O'zbekiston Respublikasida aholi yalpi xarajatlarning tarkibi³⁶, foizda

Ko'rsatkichlar	2011 y	2012 y	2013 y
1. Jami xarajatlar tarkibi	100,0	100,0	100,0
ulardan:			
iste'mol xarajatlari	84,3	78,4	78,1
Iste'moldan tashqari xarajatlar (solliqlar, a'zolik badallari va boshqa majburiy to'lovlar)	6,9	6,2	6,0
pul omonatlari va jamg'armalar	8,8	15,4	15,9
2. Jami iste'mol xarajatlari	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:			
oziq-ovqat mahsulotlari uchun	59,8	49,8	49,5
nooziq-ovqat mahsulotlari uchun	26,8	33,7	33,8
xizmatlar uchun to'lovlar	13,4	16,5	16,7

³⁶ www.stat.uz sayti ma'lumotlari asosida magistr tomonidan tayyorlandi.

Jadvaldan ko'rinib turganidek, 2011-2013 yillar davomida jami xarajatlar tarkibida iste'mol xarajatlarining ulushi 84,3 foizdan 78,1 foizga, iste'moldan tashqari xarajatlar ulushi 6,9 foizdan 6,0 foizga qisqargan, aksincha, pul omonatlari va jamg'armalar ulushi 11,8 foizdan 15,9 foizga ortgan. Shu bilan birga, oilalarning iste'mol xarajatlari makrotarkibi ham optimallashtirib bormoqda: oziq-ovqat mahsulotlari uchun xarajatlar ulushi barqarorlashib, xizmatlar uchun xarajatlar ulushi ortib bormoqda. Bunday holat iqtisodiy rivojlanib borayotgan davlatlar uchun xosdir.

Aholi ehtiyojlarini ta'minlash uchun zarur bo'lgan nooziq-ovqat mahsulotlarning katta qismi ilgari respublikamizda ishlab chiqarilmas, balki chetdan keltiriladi. Jumladan, televizorlar, kir yuvish mashinalari, elektr changyutgichlar, yengil mashinalar 100 foiz, gazmollarning qariyb 40 foizi, barcha turdagi oyoq kiyim va boshqa shunga o'xshash mahsulotlarning 30 foizi chetdan olinib kelinardi.

Mustaqillik yillarida yurtimizda iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning ancha faol o'sishi asosan 2000 yildan so'ng, mamlakatimizda ularni ishlab chiqarishni rag'batlantiradigan shart-sharoitlar bosqichma-bosqich yaratila boshlanganidan keyin kuzatildi.

Hozirgi vaqtda mamlakatimiz sanoati aholining sifatli mebel, gilam mahsulotlari, yengil avtomobillarga bo'lgan ehtiyojini to'liq ta'minlay oladi. Yurtimizda televizorlar, konditsionerlar va ekologik xavfsiz muzlatgichlar ishlab chiqarish hajmi sezilarli darajada o'sdi. Trikotaj mahsulotlari, oyoq kiyimlar tayyorlash va yengil sanoatning boshqa tarmoqlari yuqori sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda.

Agar 2000 yilga qadar, o'tish davrining obyektiv shart-sharoitlari tufayli, aholining asosiy nooziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabi va ta'minoti pasaygan bo'lsa, so'nggi o'n yillikda bu boradagi ko'rsatkichlarda barqaror o'sish tendensiyasi kuzatilmoqda.

Bu jarayonda uy xo'jaliklari eskirgan va noqulay maishiy va elektrotexnika buyumlaridan voz kechib, yangi, zamonaviy, sifat jihatidan eski buyumlardan keskin farq qiladigan mahsulotlarni tez sotib olmoqda.

Qayd etilgan davrda mutlaqo yangi mahsulotlar paydo bo'ldi. Bugun ularni xonadon egalari katta qiziqish bilan sotib olmoqda: raqamli televizor va fotoapparatlar, sun'iy yo'ldosh antennalari va mobil telefonlar, DVD pleyerlar, komp yuter va unga qo'shimcha qurilmalar, noutbuklar va boshqa elektron texnikalar, qurilish materiallarining yangi turlari, qadoqlash buyumlari va boshqa ro'zg'or ashyolari shular jumlasidandir. Shunisi e'tiborliki, xonadonlarning zamonaviy maishiy va elektrotexnika bilan ta'minlanish sur'atlari yurtimizning barcha hududlarida bir maromda, mutanosib tarzda o'sib bormoqda.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, uzoq muddat foydalanishga mo'ljallangan buyumlar bilan ta'minlanish bo'yicha mamlakatimizda yuksak darajaga erishilgan. Buni har 100 xonadonga 133 ta televizor, 101 ta sovutgich, 66 ta DVD pleyer, 149 ta mobil telefon to'g'ri kelishi tasdiqlaydi. Aholining xarid qobiliyati, ya'ni uning oylik maosh va pensiya hisobidan eng zarur iste'mol mahsulotlarining sotib olish va xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari aholining iste'mol tovarlariga bo'lgan talab va ehtiyojlarining ta'minlanishi sezilarli darajada yaxshilanib borayotganini aks ettiradi.

Odamlarning daromadlari ortishi bilan oilalarning moddiy ahvoli ham sifat jihatdan o'zgarib bormoqda. Tadqiqotlarga qaraganda, bugungi kunda yurtimizdagi oilalarning 94 foizi xolodilniklar, 84 foizi turli oshxona elektr jihozlariga, 63 foizi kir yuvish mashinalari, yarmidan ko'pi kompyuter, changyutkich, mikroto'lqinli pechlarga ega, uchdan bir qismi esa konditsionerlardan foydalanmoqda³⁷.

Mustaqillik yillarida aholining televizorlar bilan, ayniqsa, mutlaqo yangi avlod televizorlari — plazma ekranli rangli televizorlar bilan ta'minlanishi 1,6

³⁷ I.Karimovning "Mamlakatimizni 2014 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan" ma'ruzasidan

barobar, yengil avtomobillar bilan ta'minlanishi 3,5 marta oshgani ham oilalarimizning farovonligi yuksalib borayotganining yaqqol tasdig'idir. Bugungi kunda deyarli har ikki oiladan biri shaxsiy transport vositasiga ega va bu mashinalar aynan yurtimizda ishlab chiqarilgani barchamizga mamnuniyat va g'urur bag'ishlaydi.

Misol tariqasida viloyat aholi daromadlariga nazar tashlaydigan bo'lsak, o'tgan yillar mobaynida Namangan viloyatida olib borilayotgan aholi daromadlarini oshirish siyosati natijasida aholi turli qatlamlarining daromadlari ortib borayotganligi ko'rinadi. Navbatdagi jadval ma'lumotlaridan biz viloyat aholisi daromadlari tarkibi haqidagi ma'lumotlarni olishimiz mumkin (2.3.2-jadval).

2.3.2-jadval

Namangan viloyat aholi daromadlari ko'rsatkichlari³⁸

ming so'm

№	Ko'rsatkichlar	2010 yil	2011 yil	2012 yil	2011 yil 2010 yilga nisbatan, %	2012 yil 2011 yilga nisbatan, %
1.	Aholining o'rtacha oylik daromadlari, jon boshiga	543	567,6	708	104,5	124,7
2.	O'rtacha oylik ish haqi miqdori	244,7	377,7	514,8	154,4	136,3
3.	O'rtacha pensiya miqdori	101,4	138,1	165,2	136,2	119,6
4.	Aholi daromadlari tarkibi, shu jumladan					
4.1.	Ish haqi, %	30	32,2	33,6	X	X
4.2.	Tadbirkorlik faoliyati, %	39,1	41,9	42,8	X	X
4.3.	Pensiya, nafaqa va spitendiya, %	20,8	19,4	18,9	X	X
4.4.	Natura shaklidagi daromadlar, %	7,2	4,1	2,6	X	X
4.5.	Boshqalar	2,9	2,4	2,1	X	X

Jadval ma'lumotlariga asosan 2012 yilda aholi daromadlarining aholi jon boshiga hissasi 708 ming so'mni tashkil qilib, oldingi yilga nisbatan 124,7 foizga oshgan. Aholi daromadlari tarkibiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, 2012 yilda ish haqi jami daromadlarning 33,6 foizini, tadbirkorlik faoliyatidan daromadlar 42,8 foizini, pensiya, nafaqa va stipendiyalar 18,9 foizini, natura

³⁸Namangan viloyati statistikasi boshqarmasi ma'lumotlari asosida magistr tomonidan tayyorlandi.

ko'rinishidagi daromadlari 2,6 foizini va boshqa manbalardan daromadlar 2,1 foizni tashkil qilgan. Yillar bo'yicha solishtirsak, aholining ish haq va tadbirkorlik faoliyatidan daromadlari ulushi ortib borayotganligini ko'rish mumkin.

Bozor munosabatlari chuqurlashib, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanib borgan sayin aholining yalpi xarajatlari tarkibida yangi yo'nalish – tadbirkorlik faoliyati uchun xarajatlar yo'nalishi paydo bo'ldi. Ularning ulushi hozirgi paytda yildan yilga ortib bormoqda. O'z mohiyatiga ko'ra, bu usul uy xo'jaligining asosiy kapital uchun mablag' jamg'arishning samarali shakli bo'lib, xususiy mulk asosida o'z daromadlarini shakllantirish va ko'paytirish imkonini beradi.

Iqtisodiyotda bir-biriga bo'lgan munosabatlar borki, ularni hal qilmasdan mamlakatning aholi turmush farovonligini oshirish mumkin emas. Shular qatorida:

- aholi daromadlarining pasayishi;
- ishsizlikning paydo bo'lishi;
- inflyatsiya va hakazo.

Hozirgi davrda O'zbekistonda korxonalarning aksariyat qismi davlat tasarufidan chiqarilgan. Lekin asosiy daromad keltiruvchi manbalar davlat qo'lida. Murakkab va ko'p xarajatlar talab qiladigan tadbirlarni amalga oshirish uchun davlat sektorining ahamiyati kuchaya boradi. Soliq tizimini to'g'ri yo'lga qo'yish, soliqlar asosan daromadi yuqori bo'lgan korxonalardan undirilib, kam rivojlanayotgan sohalarni oyoqqa turg'azish zarurati paydo bo'ladi. Ayni paytda xilma-xil ishbilarmonlik faoliyati turlaridan olinadigan daromadlar o'sdi hamda qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotishdan olingan foyda ko'paydi.

Aholi daromadlarining ortishi ish bilan bandlik oshishiga olib keldi. Masalan, hozirgi kunga kelib ish bilan bandligining mintaqaviy dasturlari asosida qishloq joylarda yashovchilarning 200 ming nafardan ortig'i ishga joylashdilar, bularning 90 %dan ortiqrog'i iqtisodiyotning nodavlat sektorida mehnat qilyapti. Ularning 40 %dan ziyodrog'i xususiy mehnat faoliyatining turli

shakllarida, 20 %i atrofida kichik biznes tarzidagi xususiy tadbirkorlik bilan shug'ullanishga kirishdilar. Davlat statistika qo'mitasi tomonidan o'tkazilgan tanlab oluv tekshirishlariga ko'ra, oilalarning umumiy daromadlari tarkibida tadbirkorlik faoliyatidan daromad olish birmuncha yuqori – 22,0 bo'lib, bu aholining shakllanib kelayotgan bozor sharoitlariga moslashayotganidan dalolatdir. Aholi daromadlarining ortishi iste'mol bozori ta'minlanishining yaxshilanishi bilan birga kechdi. O'zbekistonlik ishlab chiqaruvchilar tovar ishlab chiqarishining ortishi bozorda talab va takliflarning baravarlashuviga sezilarli ta'sir qildi.

Kelgusida aholining real daromadlari, turmush darajasini oshirish va ijtimoiy himoyalashni kuchaytirish maqsadida quyidagi yo'nalishlarda ish olib borilishi zarur:

- aholini ijtimoiy himoyalash va ish bilan ta'minlashda kichik tadbirkorlik sohasi asosiy sektor bo'lib xizmat qilishi kerak.

- kam ta'minlangan va bolali oilalarga ijtimoiy yordam aniq berilishini kuchaytirish, aholini ijtimoiy muhofaza qilish borasidagi chora-tadbirlarni ro'yobga chiqarishda fuqorolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari roli va mas'uliyatini oshirish zarur.

- joylarda aholi turmush farovonligi, yashash sharoitlarini yanada kengroq o'rganish maqsadida ijtimoiy so'rovnomalarni muntazam o'tkazish lozim.

- ijtimoiy so'rovnomalardan to'plangan ma'lumotlardan nafaqat uy xo'jaliklarining turmush tarzini tahlil qilishda, balki soliq, moliya, bojxona idoralari ham foydalanishlari lozim.

- aholi turli qatlamlarini mikrokreditlashga bo'lgan talabini kengroq o'rganish lozim. Mikrokreditlash tizimini ko'proq ayollarga berish.

- oilaning ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini ta'minlash, uy mehnati va madaniy-maishiy turmush sharoitini yaxshilash, oilaning ma'naviy-axloqiy asoslarini takomillashtirish, ko'p bolali, kam ta'minlangan, qarovchisini yo'qotgan nochor oilalarni, nogironlar, yetim-yesirlar, bemorlarni ijtimoiy

qo'llab-quvvatlash, oilada jamiyat talablariga mos komil insonlarni tarbiyalash borasida amalga oshirilayotgan tadbirlar markaziy o'rinni egallamog'i zarur.

Ikkinchi bob bo'yicha xulosa

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni o'ziga xos tashqiliy huquqiy shakli bo'lgan oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, uning iqtisodiyotimizda tutgan o'rni tobora ortib bormoqda. Keng aholini tadbirkorlik va xunarmandchilikka jalb qilish, o'zlariga ma'qul bo'lgan avloddan avlodga meros bo'lib kelgan sevimli kasblari bilan shug'ullanishlari uchun barcha shart sharoitlar, imkoniyatlar yaratib berish, ularning bu sohada egallab turgan o'rni va salohiyatini oshirishga xizmat kiladi.

Uy xo'jaligi budjetiga turli shakllardagi daromad kelib tushadi. Statistika qabul qilingan tasnifga ko'ra, uy xo'jaliklari daromadining bir qator turlari mavjud, ya'ni: mehnat daromadi; tadbirkorlik daromadi; individual faoliyat daromadi; mulk daromadi; tomorqa daromadi; pensiya; stipendiya; nafaqa.

Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar O'zbekiston uy xo'jaliklari va jon boshiga daromadlari yildan-yilga o'sib borayotganligini ko'rsatadi. Bu omil uy xo'jaliklarining jami investitsiyalar tarkibidagi va mamlakat YaIMini yaratishdagi salmog'i ortib borishiga ta'sir ko'rsatgan.

III BOB. UY XO'JALIKLARI INVESTITSIYALASHNI TAKOMILLASHTIRISH VA UNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH

3.1. Uy xo'jaliklarida istiqbolli investitsiyalarni moliyalashtirish

Mustaqillik yillarida dunyo hamjamiyati O'zbekistonni taraqqiyot yo'lidan dadil borayotgan mamlakat sifatida tan oldi. Ushbu davrda mamlakatimiz iqtisodiyoti qariyb 5 marta, aholi turmush darajasi va sifati keskin yaxshilanib, aholi jon boshiga daromadlar 8,7 barobar ko'paydi.

Iqtisodiyotimizning jadal va mutanosib rivojlanib borayotgani aholi hayot darajasi va sifatini izchil oshirish uchun mustahkam zamin yaratmoqda. Budget tashkilotlari xodimlarining ish haqi, pensiya va stipendiyalar hajmi 2014 yilda 23,2 foizga oshdi, aholining jon boshiga to'g'ri keladigan real daromadlar esa 10,2 foizga ko'paydi. Aholi daromatlari tarkibida tadbirkorlik faoliyatidan olinayotgan daromadlar ulushi tobora ortib bormoqda. Mustaqillik yillarida bu boradagi ko'rsatkich 10,6 foizdan 52 foizga o'sdi. Aholi daromatlari deyilganda ularning muayyan vaqt oralig'ida pul va natural shaklda olgan daromatlari miqdori tushuniladi. Aholi iste'mol darajasi to'g'ridan-to'g'ri ularning daromatlari darajasiga bog'liq bo'lib, bu daromadlarning aholi turmush darajasidagi rolini belgilab beradi. Aholining pul daromatlari ish haqi, tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan daromad, nafaqa, pensiya, stipendiya shaklidagi barcha pul tushumlarini, mulkdan foiz, dividend, renta shaklda olinadigan daromadlarni, qimmatli qog'ozlar, ko'chmas mulk, qishloq xo'jalik mahsulotlari, hunarmandchilik buyumlarini sotishdan va turli xil xizmatlar ko'rsatishdan kelib tushadigan daromadlarni o'z ichiga oladi.

Jamiyat a'zolari daromatlari darajasi ular turmush farovonligining muhim ko'rsatkichi hisoblanishi barobarida alohida shaxslarning dam olishi, bilim olishi, sog'lig'ini saqlashi, eng zarur ehtiyojlarini qondirishi imkoniyatlarini belgilab beradi. So'ngi paytlarda xususiy va yirik investorlar tomonidan qimmatli qog'ozlarga investitsiya kiritish, shuningdek aksiya, obligatsiya va

boshqa qimmatli qog'ozlar turlariga ega bo'lgan va ularni sotgan holda daromad olish ommalashib bormoqda.

Qimmatli qog'ozlar bo'yicha daromadning asosiy turlari emitent tomonidan qimmatli qog'ozlarning muayyan turlariga to'lanadigan foizlar, shuningdek, moliyaviy aktivlarning ushbu turini sotishdan olinuvchi daromad hisoblanadi. Qimmatli qog'ozni tasarruf etishdan olingan daromad sifatida uning bozor qiymati nominal yoki birlamchi qiymatidan yuqori qiymatda bo'lganda sotishdan olingan daromad e'tirof etiladi. Qimmatli qog'ozlarga egalik qilishdan olingan daromad esa turli usullar orqali olinishi mumkin. Ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

- a) fiksirlangan foiz to'lovini belgilash asosida daromad olish.
- b) pog'onali foiz stavkasini qo'llash asosida daromad olish.
- v) suzuvchi foiz stavkasi qo'llash asosida daromad olish.
- g) qimmatli qog'ozlar nominal qiymatini indeksatsiya qilish asosida daromad olish.
- d) yutuqli zayomlarni o'tkazish.
- e) dividendlar shaklida daromad olish.

Buning uchun aholi ongida qimmatli qog'ozlarga bo'lgan yangicha qarash shakllanishi va ushbu sohaga bo'lgan e'tibor o'zgarishi kerak.

Ta'kidlash joizki, qimmatli qog'ozlarning ishonchliligi bozor holatiga bog'liq likvidlilik va daromadlilik darajasi, siyosiy, ijtimoiy va ilmiy-texnikaviy kabi qator omillar ta'sirida bo'ladi. Shuningdek, qimmatli qog'ozlarni sotish bevosita sotish hajmi, umumiy tushumlar, soliq stavkalari, sof daromad, aktivlarning taqsimlanishi va boshqa ko'rsatkichlarga ham bog'liq.

Bundan tashqari qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanishi xususilashtirish sur'atlari, banklar hisob normalari, inflyatsiya sur'atlari va boshqa makroiqtisodiy omillarga bog'liq. Vaqtincha bo'sh pul mablag'larini qimmatli qog'ozlarga yo'naltirish investorlarni qo'yilma daromadi inflyatsiya va banklardagi qo'yilmalar foizlari templaridan yuqori bo'lgan holatda jalb qilishi mumkin. Shundagina aholi bo'sh turgan mablag'larini uyida yoki boshqa joyda

xorijiy valyuta yoxud boshqa shaklda saqlamasdan qimmatli qog'ozlar sotib olishga jalb qilish mumkin. Bu esa o'z navbatida pirovard maqsadimiz – aholi farovonligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Inson kapitali moddiy yoki moliyaviy shaklga ega emas, u o'zining moliyalashtirish manbalaridan qat'iy nazar ish kuchini takroran yaratishga yuborilgan xarajatdir. Lekin bu kapital sifatida inson jismida mujassamlashadi, uning ruhiyatiga bog'liq ish qobiliyati rivojlanishida ifoda etiladi. Mana shunga o'xshash holatlar uning o'ziga xos xususiyatini ifodalaydi. Inson kapitalining egasi jismoniy shaxslar hisoblanadi, ular uy xo'jaligidagi yollanib ishlovchilar, tadbirkorlar va yakka tartibdagi biznes qiluvchilardan iborat.

Jismoniy shaxslar faoliyatida ishlab chiqarish funksiyasi ham borki, bu bilim va mahoratga, mehnat sarfiga, ishdagi mavqeiga bog'liq bo'ladi. Bu funksiya bor ekan, uning amal qilishi investitsiyalarsiz bo'lmaydi.

Hozirgi davrning muhim belgisi bu informatsion-industrial iqtisodiyotning shakllanishi bo'lib, bu yerda iqtisodiy o'sishning barcha omillari inson omili ta'sirida harakatga keladi. Hozirgi jamiyatda intellektual mahsulot ahamiyati birinchi o'ringa chiqishi uni yaratuvchi inson omilining ustuvorligini yanada oshiradi, bu inson kapitaliga yuboriladigan investitsiyalarni oshiradi va rag'batlantiradi. Bu rag'batni faqat mamlakat ichidagi emas, balki, xalqaro mehnat bozoridagi malakali mehnatga talab ham yuzaga keltiradi. Uy xo'jaligining inson omiliga investitsiyasi bolalarni mehnat yoshiga tayyorlash sarfidan iborat, bu yosh ortishi bilan investitsiyalar ham ko'payadi. Ilgarilari mehnat yoshi 16-18 yosh hisoblansa, hozir 22-25 yosh hisoblanadiki, bu faqat o'rta-maxsus emas, balki oliy ma'lumotga ega bo'lish, yangi kasbni egallash sarflarini yuzaga keltirib investitsiyalarga talabni oshiradi.

Investitsiyalarga talabni ishlayotganlar malakasini doimo oshirib borish zarurati ham yuzaga keltiradi. Buni xalq ta'biri bilan aytganda “Beshikdan to qabrgacha ilm izla” kabi ibora bilan izohlash mumkin. Shu bois ishlab topilgan joriy daromadning bir qismi shu daromad sohiblari qobiliyatini rivojlantirishga investitsiyalanadi. Shu o'rinda ta'lim alohida ahamiyatga ega.

Hozirgi sharoitda ta'limga talabni faqat davlat tizimi emas, balki xususiy ta'lim tizimi ham qondiradi. Xususiy ta'lim tizimi saylangan tarzdagi nostandart ta'limga bo'lgan talabni qondiradi. Ta'limga yuboriladigan investitsiyani rag'batlantiruvchi omillardan biri - ish kuchi eksportidir. Yangi texnologiyalar va ish kuchi eksporti nostandart, ta'limga talabni keltirib chiqaradi, bunga ketgan xarajatlar, asosan, amalda jamiyat elitasini tayyorlashga yo'naltirilgan investitsiyalardir. Globalizatsiya sharoitida chet elda bilim olishning ahamiyati oshib boradi, chunki yangi texnologiya va menejment dunyo uzra tez tarqaladi. Shu sababli hozirgi dunyoda xorijlik studentlar sonining uzluksiz ko'payib borishi kuzatiladi. Xorijdagi ta'lim ish kuchi eksportini yengillashtiradi. Shu sababli O'zbekistondagi puldor uy xo'jaliklari chet eldagi elitar ta'lim uchun pul sarflashga kirishgan. Bu ham investitsiyaning bir ko'rinishi hisoblanadi.

MDHda jamlangan inson kapitali milliy boylikning qariyb 50 foizini tashkil etadi. Bu kapital jon boshiga hisoblanganda 275 ming dollarga teng, lekin bu bir necha avlod hayoti davomida qilingan investitsiya natijasidirki, uning bir qismi uy xo'jaliklariga to'g'ri keladi. Lekin joriy iste'mol sarflari qatoridan o'rin oladi.

Insonga yuborilgan investitsiya birinchidan, bilim olish, kasbga ega bo'lish, ish mahoratini oshirish bilan bog'liq sarflardan, ikkinchidan, sog'liqni mustahkamlash va umrni uzaytirish sarflaridan iboratdir. Bu sarflarning oz yoki ko'pligi ikki narsaga bog'liq.

Birinchisi, davlat ijtimoiy sarflarining miqdori, ya'ni davlat aholiga qay darajada bepul ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishi. Davlat sarfi qanchalik ko'p bo'lsa, uy xo'jaligi sarfi shunchalik qisqaradi.

Ikkinchisi, aholi pul daromadining miqdori. Agar daromad tirikchilik sarflaridan qanchalik ko'p ortib qolsa, shunchalik uning inson kamoloti uchun sarflari ko'payadi. Bunday tendensiya yuqori daromadli xo'jaliklarda kuzatiladi.

Inson omiliga investitsiya sifatida kiritiladigan pulli ta'lim xizmatlarining bir qator belgilari bor. Bunday iste'mol xususiy bo'lsa-da, uning tashqi samarasi bor. Bu ta'lim nafliligi faqat individual iste'molchi uchun emas, boshqalar

uchun bo'lishini ham bildiradi, ya'ni bilim berish orqali inson omilini rivojlantirish iqtisodiy o'sishga hissa qo'shadi. Biroq, ta'lim xizmatining nafliligi mehnat bozorida baholanadi. Bu bozordagi axborot assimetrik bo'lganda naflilik pasayadi, ya'ni ish joyi topilmay uy xo'jaligi investitsiyasi o'zini oqlamaydi. Binobarin, inson kapitaliga investitsiya qilinganda mehnat bozorida noaniqlik uning riskini oshiradi. Shuni hisobga olib, aholi prestiji aniq ta'lim muassasalar xizmatini sotib oladilar. Uy xo'jaligining inson kamoloti uchun sarfi natijasida aholi talabi tarkibida ijtimoiy xizmatlarga talab tez oshib boradi.

O'zbekistonda uy xo'jaliklari xarajatlari tarkibini o'rganish shuni ko'rsatadiki, inson kapitali rivojini ta'minlovchi ijtimoiy xizmatlar uchun sarflar o'sib borsa-da, ularning miqdori hozirchalik sezilmayapti.

Jadvaldan shaxsiy ijtimoiy sarflarning katta bo'lmasligini ko'ramiz. Buning sababi davlat sarflarining ko'p bo'lishi, uy xo'jaligi xarid qobiliyatining pastligi, pulli xizmatlarga talab ommaviy emas, balki saylanma bo'lishidir.

Biroq, umuman olganda, inson kapitaliga sarf jadal o'sgan. Aytilgan sarflarning o'sishiga bir qator omillar ta'sir etgan. Jumladan: daromadlarni ozligi bu sarflarni cheklab turadi; jismoniy mehnat ustuvor sohalarining ko'pligi, inson omiliga pul sarflashni rag'batlantirmaydi; aholi boy qatlamini ko'payib borishi insonga investitsiya qilish imkonini oshiradi; migrant bo'lishga moyillik va chet elda malakali mehnatga talabni ortishi ijtimoiy sarflarini oshirishga undaydi.

O'zbekistonda pulli ta'lim-tarbiya va tibbiy xizmatlarning xususiy bozori paydo bo'ldiki, bu inson kapitaliga uy xo'jaliklari pulini investitsiyalashga yo'l ochdi. Biroq, bu bozor oshkora va yashirin shakllandi. Oshkora bozor litsenziya olib xizmat ko'rsatish bo'lsa, yashirin bozor bu davlat tibbiy tashkilotlari, oliy va maxsus o'rta bilim yurtlari hamda umumta'lim maktablarida xizmat uchun pinxona pul olish tarzida yuz berdi. Yashirin xizmat ko'rsatish repititorlik va tibbiy xizmatni uyda ko'rsatishda ham ifodalanadi. Yashirin xizmatlar real hodisa bo'lsa-da, ular hajmining hisob-kitobi va nazorati yo'qligidan, ularni

inson kapitaliga yuborilgan investitsiyalar tarkibiga kiritishning iloji bo'lmashligi bu investitsiyalar hajmini sun'iy qisqartiradi. Oshkora xususiy xizmatlarga talab ortishi ularni sotib olish xarajatlarining uy xo'jaliklari sarfidagi hissasini oshirdi³⁹.

Inson kapitaliga yuborilgan investitsiya eng qulay investitsiyalar hisoblanadi, chunki bu inson tirikligida, uning ish qobiliyatini kuchaytirgani sababli eng samarali hisoblanadi. Inson kapitaliga pul qo'yish odatdagi investitsiya sikli davridan tashqariga chiqadi. Bu yerda investitsiya faol sikli hayot sikliga mos keladi va uzluksiz boradi. Bunga aholining o'z moliyaviy resurslari yetishmay qolganda, u kreditga murojaat qiladi. Shu sababli O'zbekistonda ta'lim krediti tashkil topdi, undan uy xo'jaliklari foydalana boshladilar.

Bundan tashqari, sog'liqni saqlash xarajatlarini imtiyozli kreditlar orqali moliyalashtirish hajmini oshirish maqsadida pullik sog'liqni saqlash xizmatini tashkil etish uchun beriladigan kreditlar banklarning imtiyozli kreditlash jamg'armasi mablag'lari hisobidan berilishini ta'minlash lozim. Bunda samarali va istiqbolli ta'lim hamda sog'liqni saqlash xarajatlari uchun imtiyozli kreditlar bergan tijorat banklarining imtiyozli kreditlardan olgan daromadlari soliqlardan ozod qilinishi lozim.

Kelajakni ko'zlagan investitsiya turi bu pensiya jamg'armasiga pul qo'yishdir. Bu jamg'arma kelajakda pensiyaga chiqqan chog'dagi iste'molni qondiradi. Agar davlat pensiyalari tirikchilik minimumini ta'minlasa, xususiy pensiya jamg'armasi uni ijtimoiy darajaga keltirishi lozim. Biroq, buning uchun uy xo'jaliklarining daromadi yetarli bo'lishi shart. Jahon tajribasi ko'rsatishicha, pensiya jamg'armasini hosil qilish uchun o'ziga to'q aholi ko'p bo'lishi lozim. Odatda, bu aholining o'rta hol tabaqasi bo'lib, uning joriy daromadi pensiya jamg'armasini tashkil etishga yetarli bo'ladi. O'zbekistonda o'rta sinfnining

³⁹Yillik statistik to'plam 2007. T.2007, 28, 185-betlar; ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan. Yillik statistik to'plam 2007. T.2007, 28, 185-betlar; Узбекистан в цифрах 2008, статсбор. Т.2008, стр.19. Узбекистан в цифрах 2010, статсбор. Т.2011, стр.21 ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

shakllanishi boshlangan bo'lsa-da, u hali ko'pchilikni tashkil etmaydi, bu hol pensiya jamg'armasiga pulni investitsiyalashni qisman cheklab turadi.

Biz bilamizki, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida 2004 yil 21 dekabr 595-sonli Qarori, Xalq banki tomonidan fuqarolarni jamg'arib boriladigan pensiya tizimida shaxsan hisobga olishni yuritish tartibi to'g'risida nizom, Xalq bankida fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlarini ochish va yuritish hamda ularga majburiy va ixtiyoriy badallarni kiritish tartibi to'g'risida nizom, Fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridan mablag'larni to'lash tartibi to'g'risida nizomlar asosida fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya amalga oshiriladi.

O'zbekistonda jamg'arilgan (xususiy) boriladigan pensiya jamg'armasi pul qo'yish majburiy va ko'ngillidir. Majburiy to'lov daromad solig'ining 1 % miqdorida belgilangan bo'lsa, ko'ngilli to'lovlar me'yoriy emas. Aholi daromadlarining o'sishi natijasida mazkur fond mablag'larining o'sishi kuzatiladi. Majburiy to'lovlar yillik foiz stavkasi Xalq bank belgilangan qayta moliyalashtirish stavkasi bilan belgilanadi, ko'ngilli to'lovlar esa Markaziy bankining belgilangan qayta moliyalashtirish stavkasi bilan amalga oshiriladi. Individual pensiya jamg'armasiga pul to'plash tez o'sib borgan. Buni aholi daromadlarining o'sishi va pensiya badali to'lovchilar sonining ko'payishi bilan izohlash mumkin.

Keyingi paytda badallarni ko'ngilli to'lovchilar sonini jadal o'sishi kuzatiladi, biroq, ular badallari g'oyat kichik miqdorga ega. Shu sababli ular jami individual jamg'armalarning atigi 0,23 foizini tashkil etadi (2010 yil holatiga). Shuni aytish joizki, badallar bankka joylashtirilganda ular beradigan daromad 9 foiz bo'lib, aholining depozitlardagi jamg'armasining daromadliligidan ancha past yuradi. 2010 yilda esa, pensiya badali to'lovchilar ish bilan band bo'lganlarning 35,6 foizini, ko'ngilli badal beruvchilar buning

1,75 foizini tashkil etadi. Jamg'arib boriladigan pensiya fondi rivojlanishini rag'batlantirish maqsadida u bo'yicha foiz stavkasini bank depozitlaridagi jamg'armalar stavkasiga imkon qadar tenglashtirish lozim.

O'zbekistonda ham har bir ishlovchi daromadining bir qismini o'zining jamg'arilib boruvchi pensiya fondiga o'tkazib, bundan investitsion daromad topishga yo'l berilgan. Biroq, bu yerda investitsiya riski ham mavjud, chunki jamg'arma oz bo'lgani holda uni o'rinsiz investitsiyalash natijasida moliyaviy yo'qotishlar bo'lishi yoki inflyatsiya natijasida pensiya fondining qadrsizlanishi ham ehtimoldan holi emas.

O'zbekistonda jamg'arib boriladigan pensiya fondi o'sishiga to'sqinlik qiluvchi omillar jumlasiga individual mehnat faoliyati bilan va dehqon xo'jaligida aholining katta qismi band bo'lishi, bular uchun pensiya jamg'armasining ko'ngilli bo'lishi, shuningdek, milliy mentalitetda islomiy qadriyatlarning mavjudligi kiradi.

Asrlar osha amal qilib kelinayotgan milliy qadriyatlarga ko'ra, bu ota-onaning bolalarni tarbiyalab, ularni fozil kishilar qilib voyaga yetkazish majburiyati, bolalarning ota-onalari qarigan chog'da ularga g'amxo'rlik qilib moddiy jihatdan ta'minlab turish majburiyati bor. O'zbekistonda g'arb mamlakatlaridan farqli holda pensionerlar, ko'p hollarda, (90%) bolalari qaramog'ida va ular bilan birga yashaydi. Aytilgan omillar jamg'arib boriladigan pensiya fondini ko'ngilli to'plashga moyillikni susaytiradi, albatta, O'zbekistonda yoshi qari pensionerlar 3 mln.ga yaqinni tashkil etadi. Bu daromadlarni qayta taqsimlashga asoslangan pensiya tizimining saqlanishini keltirib chiqaradi. Biroq, aholi daromadi o'sib borgan sari jamg'arish pensiyalari sekin-asta bo'lsa-da, o'sishi yuz beradi, chunki bozor tizimi har bir ishlovchining o'z kelajagini ta'minlashga ma'sul bo'lishini talab qiladi.

Jamg'arilib boriladigan pensiya fondiga investitsiyalarning yuborilishi ziddiy kuchlar ta'siriga duch keladi. Biroq, O'zbekiston uy xo'jaliklari tarkibidagi puldor qatlam pulini jamg'arib boriladigan pensiya fondiga jalb etish imkoni cheklangan sharoitda yo'naltiradi. Chunki jamg'arib boriladigan pensiya

fondi daromadliligining pastligi boy qatlam pulining erkin almashadigan xorij valyutasi shaklida chet el pensiya fondlariga qo'yilishiga ham olib kelishi mumkin, chunki bu yerda pensiya ajratmasi qiymatini o'stirish imkoni mavjud.

Chet el xususiy pensiya fondlari O'zbekiston pensiya fondlaridan farqli ravishda pulni qulay joylashtirish borasida tajriba to'plab ulgurishgan. Ular pensiya ajratmalarini muqim daromad keltiruvchi sohalarga qo'ya oladilar. Pensiya jamg'armasiga pul qo'yish ishlovchining faol pul topish davrida yuz beradi, bu 25-60 yoshlar oralig'idagi 35 yilni qamrab oladi. Pensiya jamg'armasi yaxshi boshqarilganda shu davrda jamlangan pul kapitalizatsiya hisobidan katta summani hosil etadi. Shu sababli O'zbekistondagi puldor qatlamning chet el jamg'armasida pul yig'ishga moyilligi kuchayadi. Bu pul qattiq valyuta shaklida bo'lganidan pensiya jamg'armasi inflyatsiyadan himoyalanaadi. O'zbekistonda ham chet el tajribasidan kelib chiqqan holda pensiya jamg'armasini shakllantirishga moyilligi kuchli bo'lgan uy xo'jaliklarining jamg'armalarini inflyatsiyadan himoyalangan va qiymati o'sib boruvchi pensiya fondiga jalb etish va uning mablag'larini daromadli sohalarga joylashtirish va kafolatlash tizimini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Inson hayotini sug'urtalash, tibbiy sug'urtalash mol-mulk sug'urtasidan farq qilib, ular strategik investitsiyalar sirasiga kiradi. Bu kelajak investitsiyasiga yaqin tursa-da, unda riskni kamaytirish yoki risk keltirgan yo'qotishlarni qoplash funksiyalari mavjud. Sug'urtaning bu turi rivojlanishi, ko'p jihatdan, uy xo'jaliklar budjeti chegaralangan bo'lishiga borib taqaladi. O'ziga to'q uy xo'jaliklarida hayot va meditsina sug'urtasiga moyillik bo'lgani holda, daromadi past uy xo'jaliklarida buning uchun hech bir moliyaviy resurs qolmaydi. Tabiiyki, sug'urta turlarini ko'paytirishning asosiy sharti aholi pul daromadining ortishi va bu oz bo'lsa-da, jamg'armani tashkil qilishga yetarli bo'lishidir. Uy xo'jaliklari jamg'armasining moliyaviy xavfsizligi va daromadliligini ta'minlash maqsadida ularni sug'urta tizimiga keng jalb qilish va sug'urta xizmatlari turini ko'paytirish, bahosini pasaytirish zarur.

3.2. Uy xo'jaligi moliyasini mustahkamlashda davlat rolining kuchayishi

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida qishloq aholisining turmush darajasini yuksaltirishga, qishloqlarimiz qiyofasini o'zgartirishga, jahon andozalariga mos keluvchi zamonaviy arxitektura va dizayn asosida barpo etiladigan, barcha qulayliklar va kommunikatsiya tizimlariga ega bo'lgan shinam uy-joylar barpo etishga, ijtimoiy soha va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Ma'lumotlarga ko'ra, bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi aholisining 14,76 mln. nafari yoki 48,4 foiz qismi qishloqda, 15,67 mln. nafari yoki 51,6 foiz qismi shaharda istiqomat qiladi. Shunday ekan, qishloqda yashayotgan aholi uchun munosib turmush sharoitlarini yaratish millionlab vatandoshlarimizning farovonligini yuksaltirishga, ularda ertangi kunga bo'lgan ishonch va hayotdan qoniqish hislarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy qishloq avvalambor arxitektura va me'moriy rejalashtirish talablariga mos kelishi, Bosh reja asosida tartib bilan qurilishi, barcha qulayliklar va kommunikatsiya tarmoqlariga (elektr, gaz uzatish tarmoqlari, suv ta'minoti, yo'llar va boshqa) ega bo'lishi hamda zamonaviy ko'rinishi va shinamligi bilan ajralib turishi lozim.

Aholi yashash joyining bosh rejasi – uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy dasturlar, respublikani va uning mintaqalarini rivojlantirish prognozlarini, tumanni rejalashtirish sxemalari yoki loyihalari asosida ishlab chiqiladi, aholi yashash joylarini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini va chegaralarini, ular hududining funksional vazifasini va qurilishni zonalashtirishni, muhandislik, transport ijtimoiy infratuzilmasini kompleks rivojlantirishni, hududlarni o'zlashtirishning navbatma-navbatligini, tarixiy-madaniy meros obyektlarini saqlashga, ekologik va sanitariya holatiga qo'yiladigan talablarni belgilab beradi.

Bugungi kunda mamlakatimizdagi barcha qishloq aholi punktlarini zamonaviy arxitektura va me'moriy rejalashtirish loyihasi talablariga to'liq javob beradi deya olmaymiz.

Me'moriy rejalashtirish loyihasi - imoratlar qurishning hajm-makon va arxitektura-badiiy yechimini, binolarning necha qavat bo'lishi va turlarini, imorat qurish va yerdan foydalanishni tartibga solishning qizil chiziqlari, chegaralarini, yerdan foydalanuvchilar hududlarining chegaralarini, ko'chalarning ko'ndalang ko'rinishini belgilab beradi, shuningdek, hududlarni muhandislik yuzasidan tayyorlash tadbirlarini, atrof muhitini muhofaza qilishni nazarda tutadi.

Me'moriy rejalashtirish talablariga ko'ra qishloq aholi punktlari ularda yashayotgan aholi soniga ko'ra 4 toifaga ajratiladi va shunga mos qishloqlarning me'moriy bosh rejasi ishlab chiqiladi.

Birinchi toifaga aholi soni 100 dan 1000 kishigacha bo'lgan kichik qishloqlar kiritiladi.

Ikkinchi toifaga aholi soni 1000 kishidan 3000 kishigacha bo'lgan o'rtacha qishloqlar kiritiladi.

Uchinchi toifaga aholi soni 3000 kishidan 5000 kishigacha bo'lgan katta qishloqlar kiritiladi.

Mamlakatimizda jami 11820 ta qishloq aholi punktlari mavjud bo'lib, ularning 5982 tasida (49,8 foizi) aholi soni 100 dan 1000 kishigachani, 4527 tasida (38,3 foizi) 1000 dan 3000 kishigachani, 1026 tasida (8,7 foizi) 3000 dan 5000 kishigachani tashkil etadi va faqat 375 tasida (3,2 foizi) 5000 kishidan ortiq. Zamonaviy arxitektura va me'moriy qurilish talablariga mos kelmaydigan qishloq aholi punktlari yagona rejaning mavjud emasligidan ko'p hollarda tartibsiz va tarqoq holda quriladi. Ayniqsa tumanlarning markazlaridan uzoqda joylashgan qishloq aholi punktlari Bosh reja asosida qurilmagani bois uy-joylar ko'chalarga bo'lingan holda batartib qurilmagan. Bunday qishloqlardagi uy-joylarning tashqi ko'rinishida ham xilma-xillik uchraydi. Shu sababdan ko'rinishi zamonaviy dizayn va shaharsozlik mezonlariga mos kelmaydi hamda kommunikatsiya tarmoqlariga ulash jarayonida noqulayliklar keltirib chiqaradi

3.2.1-rasmda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, respublikamizdagi mavjud jami 11820 ta qishloqlardan 7371 tasining (62 foizi)

Bosh rejasi umuman ishlab chiqilmagan, 3982 tasining (34 foizi) Bosh rejasi eskirgan, 467 tasining (4 foizi) Bosh rejasi yaroqli hisoblanadi. Demak, mavjud qishloqlarimizning 50-60 foizini zamonaviy arxitektura talablari darajasida bosh reja bilan ta'minlash talab etiladi.

Qishloqlarning umumiy soni	⇒	11820 ta
Bosh rejasi ishlab chiqilmagan	⇒	7371 ta yoki 62%
Bosh rejasi eskirgan	⇒	3982 ta yoki 34%
Bosh rejasi yaroqli	⇒	467 ta yoki 4%

3.2.1-rasm. Qishloq aholi punktlari bosh reja bilan ta'minlanganligi

Prezidentimiz I.Karimovning tashabbusi bilan qabul qilingan Davlat dasturlarining amalga oshirilishi qishloqlarimiz qiyofasini zamonaviy arxitektura va sanoat asosida tubdan o'zgartirish va yangilash, uy-joy, ijtimoiy va kommunal obyektlar, kommunikatsiyalarni barpo etish bo'yicha uzoq muddatga mo'ljallangan aniq maqsadli ishlarimizning boshlanishi bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 13 martdagi 68-sonli «O'zbekiston Respublikasi aholi punktlarining ma'muriy-hududiy tuzilishini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qaroriga binoan respublikamizdagi 965 ta aholi punktlari shahar posyolkalari toifasiga kiritilib, ularni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni yanada kuchaytirish borasida chora-tadbirlar belgilandi. Jumladan, mazkur qarorda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar hokimliklari⁴⁰:

⁴⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning «Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir» hamda «Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir» nomli ma'ruzalarini o'rganish bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. – Toshkent: Iqtisodiyot. - 2010. 142 bet.

- manfaatdor tashkilotlar bilan birgalikda aholi punktlari toifalarining o'zgartirilishi bilan bog'liq ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy tadbirlarning amalga oshirilishini ta'minlashlari;

- shahar posyolkalari toifasiga kiritilgan aholi punktlariga nisbatan qo'yiladigan shaharsozlik talablariga rioya etilishini ta'minlash va muhandislik, transport hamda ijtimoiy infratuzilmalarni oqilona joylashtirish masalalarini hal etish bo'yicha tadbirlar ishlab chiqishlari;

- shahar posyolkalari toifasiga kiritilgan aholi punktlari nomlarini «O'zbekiston Respublikasida ma'muriy-hududiy tuzilish, toponimik obyektlarga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish masalalarini hal etish tartibi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 17-moddasi talablariga muvofiqlashtirish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rishlari belgilab berildi.

Zamonaviy uy-joy loyihalari o'z ichiga zamonaviy qurilish materiallari va texnologiyalarini, respublika mintaqalarining tabiiy-iqlim sharoitlarini va joyning relyefini, ijtimoiy-demografik xususiyatlarini hisobga olgan holda tayyorlanadi.

Bugungi kunda zamonaviy arxitektura va me'moriy qurilish talablariga mos keladigan, shinam va barcha qulayliklarga ega bo'lgan, kommunikatsiya tizimlariga ulangan, jahon andozalari darajasidagi qishloqlarni barpo etish bo'yicha yirik loyihalar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 26 yanvardagi 1046-sonli «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili» davlat dasturi to'g'risidagi qarori ijrosini ta'minlash maqsadida 2010-2014 yillar davomida aholi soni 10 ming kishidan ortiq bo'lgan qishloq aholi punktlarini bosh reja loyihalari ishlab chiqish bo'yicha dasturiga jami 62 ta, qishloq aholi punktlarini qurilishi hamda qishloq ho'jaligi korxonalari hududlarini me'moriy rejalashtirish va tashkil qilish bosh reja sxema loyiha hujjatlarini ishlab chiqish bo'yicha dasturga aholi soni 5 ming kishidan kam bo'lgan qishloq aholi punktlari bo'yicha 990 ta, aholi soni 5 mingdan 10 ming kishigacha bo'lgan aholi punktlari bo'yicha 353 ta loyihalarni amalga oshirish ko'zda tutilgan.

Eng avvalo, qishloqda quriladigan zamonaviy uy-joylar va ijtimoiy infratuzilmalarni loyihalashtirishsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Buning uchun loyihalashtirish ishlaridan yaxshi xabardor bo'lgan, barcha moddiy-texnikaviy bazaga hamda yetarli ilmiy salohiyatga ega ixtisoslashgan loyiha-qidiruv institutlarini tashkil etish talab etiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 27 yanvarda qabul qilingan 1049-sonli «MChJ «Qishloqqurilishloyiha» loyiha-qidiruv institutini tashkil qilish to'g'risidagi» qaroriga muvofiq tashkil etilgan «Qishloqqurilishloyiha» loyihalash-qidiruv instituti aynan shu vazifani amalga oshirishga xizmat qiladi. «Qishloqqurilishloyiha» instituti:

- qishloq aholi punktlarini me'moriy rejalashtirish tizimini shakllantirish, rivojlantirishning bosh sxema loyihalarini ishlab chiqish;

- qishloq aholi punktlaridagi turar-joy binolari, ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasi obyektlarining namunaviy loyihalarini ishlab chiqish ishlarini amalga oshiradi.

«Qishloqqurilishloyiha» instituti hukumatimiz ko'magi bilan qishloqlarni zamonaviy arxitektura talablari asosida me'moriy loyihalashtirish ishlari uchun zarur bo'lgan barcha moddiy-texnikaviy va ilmiy salohiyat bilan ta'minlangan. O'tgan yili «Qishloqqurilishloyiha» instituti tomonidan 31 ta uy-joy loyihalari, 16 ta ijtimoiy soha obyektlarning loyihalari va hududlardagi loyiha institutlari tomonidan 20 ta uy-joy loyihalari ishlab chiqilib, qo'llash uchun tavsiya etildi.

Qishloqlarda zamonaviy uy-joylar va infratuzilmalar barpo etish uzoq muddatga mo'ljallangan, bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan yirik dastur bo'lib, uni hayotga tatbiq etish uchun katta mablag' talab etiladi. Qishloq qurilishiga sarflanadigan mablag'larning manbalari quyidagilardan iborat:

- qishloq aholisining o'z mablag'lari;
- «Qishloq qurilish bank» ochiq turdagi aktsiyadorlik tijorat bankining kredit resurslari;
- davlat budjetidan shu maqsadlarga ajratilayotgan mablag'lar;
- moliyalashtirishning boshqa manbalari.

Garchi qishloqlarda zamonaviy uy-joylar barpo etish loyihasining boshlanganiga endigina bir yil to'lganiga qaramay, ushbu maqsadlarga moliyalashtirishning barcha manbalari hisobidan 2009 yilning o'zida 2 trillion 600 milliard so'mdan ziyod mablag' yo'naltirildi. Eng muhimi, o'tgan yili qishloq joylarda qurilish olib borish uchun uzoq istiqbolga mo'ljallangan, loyihalashtirish, sanoat-qurilish, muhandislik-texnik jihatdan kuchli zamonaviy salohiyatga ega bo'lgan baza yaratishga erishildi.

Bu borada moliyalash manbalari va mablag' ajratish mexanizmi belgilab olindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 30 martda qabul qilingan PQ-1083 sonli «Qishloq qurilish bank» ochiq turdagi aktsiyadorlik tijorat bankini tashkil qilish to'g'risidagi» qaroriga muvofiq qishloq qiyofasini va qishloq aholisining uy-joy sharoitlarini sifat jihatdan yaxshilash, qishloq joylarda ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish, uy-joy qurilishini uzoq muddatli imtiyozli kreditlash tizimini keng joriy etish maqsadida «Qishloq qurilish bank» tashkil etildi.

Prezidentimiz tashabbusi bilan qishloq joylarda qurilayotgan uy-joylarni imtiyozli foiz stavkalari bilan uzoq muddatli ipoteka kreditlari orqali aholiga topshirish tartibi ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etildi.

Ipoteka – ko'chmas mulkni garovga qo'yish asosida beriladigan uzoq muddatli qarz; ushbu qarzni ta'minlashga xizmat qiluvchi garov.

Ipoteka krediti – ko'chmas mulk garovi ostida bank tomonidan beriluvchi kredit. Aksariyat hollarda ko'chmas mulkni sotib olish uchun kredit olishda shu ko'chmas mulkning o'zi bankka kreditni qaytarish kafolati sifatida ipoteka (garov) bo'lib xizmat qiladi.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 25 mayda qabul qilingan «Tasdiqlangan namunaviy loyihalar bo'yicha yakka tartibdagi uy-joy qurilishi uchun «Qishloq qurilish bank» aktsiyadorlik tijorat banki tomonidan imtiyozli ipoteka krediti berish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi 148-sonli qaroriga binoan yakka tartibda uy-joy qurishga

uzoq muddatli ipoteka krediti berishning asosiy shartlari quyidagicha belgilangan⁴¹:

- ipoteka kreditlari olti oydan iborat imtiyozli davr bilan 15 yilgacha muddatga beriladi;
- ipoteka krediti miqdori qonun hujjatlarida belgilangan eng kam oylik ish haqining 1000 baravaridan oshmaydigan miqdorda belgilanadi;
- ipoteka kreditidan foydalanganlik uchun bank tomonidan O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining bank kredit komissiyasi (qo'mitasi) tomonidan ijobiy qaror qabul qilingan kundagi qayta moliyalashtirish stavkasining 50 foizi miqdorida foizlar undiriladi;
- foizlar qarz oluvchi tomonidan uning olgan ipoteka krediti to'liq to'langungacha kredit bo'yicha qarzlarining amaldagi qoldig'iga hisoblab qo'shiladi.

Ipoteka kreditlari shartnoma asosida hamda qaytarilish, to'liqlik, ta'minlanganlik, maqsadli foydalanish va muddatlilik shartlari bilan quyidagi talablarga javob beruvchi qarz oluvchiga beriladi:

- qishloq joylarda yashaydigan, ipoteka krediti olish uchun murojaat qilgan kunida 18 yoshga to'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga;
- oxirgi 12 oy mobaynida doimiy ish joyiga, shaxsiy yordamchi yoki dehqon xo'jaligidan yoxud yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatidan doimiy daromadga, shuningdek ipoteka krediti bo'yicha hisoblab yozilgan foizlarni va asosiy qarzni to'lov jadvaliga muvofiq har oyda to'lash uchun yetarli bo'lgan, qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa daromad manbaiga ega bo'lgan shaxslarga;
- barpo etilayotgan uy-joy smeta qiymatining va bajarilgan qurilish-montaj ishlari hajmining yoki barpo etilayotgan uy-joy smeta qiymatining kamida 25

⁴¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning «Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir» hamda «Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir» nomli ma'ruzalarini o'rganish bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. – Toshkent: Iqtisodiyot. - 2010. 144 bet.

foizi summasidagi qurilish materiallari qiymatining kamida 25 foizi miqdorida boshlang'ich badal uchun mablag'ga ega bo'lgan shaxslarga;

- kredit tashkilotlaridan kreditlar bo'yicha to'lov muddati o'tgan qarzi bo'lmagan shaxslarga beriladi.

Qarz oluvchi ipoteka krediti bo'yicha boshlang'ich badalni to'lash uchun o'z mablag'lariga ega bo'lishi kerak. Bunda boshlang'ich badal summasining bir qismi yoki uning jami summasi qarz oluvchining ish beruvchisi hisoblanadigan yuridik shaxs tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qarz oluvchining nomiga bankda ochilgan omonat qo'yilma hisob raqamiga o'tkazilishi mumkin.

Berilayotgan ipoteka krediti miqdori qarz oluvchining to'lovga qodirligini baholashdan hamda qurilayotgan uy-joyning smeta qiymatidan kelib chiqqan holda belgilanadi hamda u eng kam oylik ish haqining 1000 baravaridan, shuningdek qurilayotgan uy-joy smeta qiymatining 75 foizidan oshmasligi kerak.

Zamonaviy uy-joylar va kommunikatsiya tarmoqlarini barpo etish uchun eng so'ngi fan-texnika yutuqlari hamda texnologiyalarga tayanadigan, mustahkam moddiy-texnikaviy bazaga ega qurilish tashkilotlari talab etiladi. Qishloq aholisiga qurilishni kompleks tarzda tashqillashtirish maqsadida bank tomonidan «Qishloq qurilish invest» ixtisoslashtirilgan sho''ba injiniring kompaniyasi tashkil etilgan. Ixtisoslashtirilgan «Qishloq qurilish invest» kompaniyasi barpo etiladigan uy-joylar, ijtimoiy ahamiyatdagi obyektlar va muhandislik infratuzilmalari tarkibi hamda tuzilmasini tanlab olish, qishloq aholi punktlarida yangi uy-joylarni qishloq fuqarolari bilan «tayyor holda topshirish» shartlarida buyurtmachi funksiyalarini asosida bajarish, pudratchi qurilish tashkilotlari o'rtasida tanlov asosida qurilishni tashqillashtirish, tanlangan yer massivlarida namunaviy loyihalar bo'yicha uy-joy qurilishini tashqillashtirish va namunaviy loyiha bo'yicha bino qurilishi yuzasidan nazorat etish masalalari bilan shug'ullanmoqda.

O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror, tez rivojlanishi va davlatning faol ijtimoiy siyosati aholi farovonligini yangi bosqichga olib chiqdi. Aholi daromadi va farovonligini oshirish borasida ham sifat jihatidan chuqur o'zgarishlar yuz bermoqda.

Bunday o'zgarishlarni kelajakda ham kutish mumkin. Shu bois farovonlikni oshirish dasturlarini ilmiy prognozlash asosida ishlab chiqish talab qilinadi. Iqtisodiy farovonlik istiqbollari aniqlanganda, unga ta'sir etuvchi iqtisodiy va etnodemografik omillarni hisobga olish zarurki, bular quyidagilardan iborat:

1. Iqtisodiy taraqqiyot darajasi va uning o'sish imkoniyatlari;
2. YaIMni iste'mol va jamg'arishga taqsimlanishi;
3. Aholining o'sish sur'atlari;
4. Ishlab chiqaruvchilar va sof iste'molchilar nisbati;
5. Iste'moldagi milliy mentalitet xususiyatlari.

Farovonlik iqtisodiyotning hosilasi, chunki, iste'mol ne'matlarini yaratishdan maqsad ularni iste'mol etish bo'ladi. Biroq iste'mol ishlab chiqarilgan ne'matlarni shunchaki sarflab yuborilishi emas, chunki qayerda iste'mol miqdori ko'p va tarkiban zamonaviy bo'lsa, shu yerda inson kamolotiga erishiladi. Inson omili esa iqtisodiy o'sishda etakchi rol o'ynaydi. Farovonlik ortishi uchun daromad aholi soniga nisbatan jadalroq o'sishi zarur. Aholining ko'payishi to'la bandlik sharoitida ishlab chiqaruvchilarni ham ko'payishini bildiradi. Turmush darajasining o'sish istiqbollari aniqlanganda, farovonlik fondining miqdori va tarkibi qanday o'zgarishi ham nazarda tutilishi lozim.

O'zbekistonda kam ta'minlangan kishilarga yordam turli usullarda amalga oshiriladi:

1. Muhtojlarga ijtimoiy himoya shaklida pul nafaqalarini berish;
2. Qarovsiz qolgan yoshi ulug' kishilarni qariyalar uyida boqish va parvarishlash;
3. Yetim-yesirlarni mehribonlik uylarida boqish va tarbiyalab voyaga yetkazish;

4. Muhtoj oilalarga sigir olib berish shaklida ularni moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash;

5. Muhtoj oilalardagi o'quvchilarga kiyim-kechak berish, ularni o'quv anjomlari bilan ta'minlash.

Yordam shakllari orasida muhtoj oilalarga pul shaklida nafaqalar berish miqdoran ustuvorlikka ega. Bu yordamning miqyosi davlatning iqtisodiy imkoniyatlari va muhtojlar soniga bog'liq bo'ladi.

Kam ta'minlangan kishilarga beriladigan davlat yordami kambag'allikni qisqartirishga o'z hissasini qo'shishi lozim. Ammo bu ishda daromadlarni davlat yo'li bilan taqsimlashdan ko'ra, ko'proq iqtisodiy o'sish ahamiyatliroqdir. Iqtisodiy o'sish birinchidan, joriy daromadlarni oshiradi. Ikkinchidan, investitsiya uchun qo'shimcha resurslar yaratib, kelajakdagi bandlik, binobarin daromadlarni oshirish imkonini beradi. Uchinchidan, muhtojlarga ko'rsatiladigan ijtimoiy yordamni oshiradi.

Alohida e'tiborga molik tomoni shundaki, mazmun-mohiyatiga ko'ra noyob bo'lgan bu kompleks loyihalar yurtimizning barcha hududlarida qishloq ahli va butun jamoatchiligimiz tomonidan keng qo'llab-quvvatlanmoqda.

Aytish joizki, mamlakatimizda barcha zarur ijtimoiy va kommunikatsiya infratuzilmasiga ega bo'lgan, izchil rivojlanib borayotgan o'ta yirik uy-joy bozori shakllanmoqda.

2014 yil uchun tasdiqlangan Davlat dasturiga muvofiq, «Qishloq qurilish bank» ATB ishtirokida qurilishi moliyalashtirilayotgan uy-joylarga 2015 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra, jami 1 266,5 mlrd. so'm, shundan 753,4 mlrd. so'm miqdorida imtiyozli ipoteka kredit mablag'lari pudrat tashkilotlarini moliyalashtirish uchun o'tkazib berildi.

«Qishloq qurilish bank» ATB tashkil etilganidan buyon o'tgan 2009-2014 yillar davomida bank ishtirokida moliyalashtirilayotgan 39720 ta uy-joy qurilishi uchun aholining 1 772,5 mlrd. so'mdan ziyod mablag'lari hamda markazlashtirilgan mablag'lari hisobidan 2 585,3 mlrd. so'm miqdorida imtiyozli ipoteka kreditlari yo'naltirilganligini qayd etish lozim.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, mazkur strategik muhim vazifani amalga oshirishda ko'plab nufuzli xalqaro moliya institutlari ham faol ishtirok etmoqda. Xususan, 2011 yilda Osiyo taraqqiyot banki tomonidan jami 500 mln. AQSh dollari miqdoridagi «O'zbekistonda qishloq joylarida uy-joylar qurishni rivojlantirish» loyihasini ko'p transhli moliyalash dasturi ma'qullandi va bugungi kunda Osiyo taraqqiyot banki tomonidan ajratilgan 362,4 mln. AQSh dollari miqdoridagi mablag'lar «Qishloq qurilish bank» ATB tomonidan o'zlashtirilib, uy-joylar qurilishini moliyalashtirishga yo'naltirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 7 yanvardagi PQ-2282-sonli Qarori bilan 2015 yilda qishloq joylarda namunaviy loyihalar bo'yicha yakka tartibdagi uy-joylar, tashqi muhandislik va transport kommunikatsiyalari, ijtimoiy va bozor infratuzilmasi obyektlarini qurish Dasturi ma'qullangan bo'lib, ushbu qarorga asosan 2015 yilda respublikamiz hududlarida 12 mingta uy-joy qurilishi ko'zda tutilgan. Mazkur Dastur doirasida namunaviy loyihalar bo'yicha uy-joylar qurilishini moliyalashtirishda joriy yilda ham bankning faol ishtirok etishi ta'minlanadi.

Shu bilan birga, xorijiy moliyaviy institutlar bilan hamkorlikni davom ettirgan holda namunaviy loyihalar asosida uy-joy qurilishini moliyalashtirish maqsadlari uchun Osiyo taraqqiyot banki tomonidan joriy yilda ajratilayotgan 100,0 mln. AQSh dollari miqdoridagi uchinchi transh qarz mablag'larini o'zlashtirishda uy-joy qurilishini moliyalashtirishda ishtirok etuvchi boshqa banklar qatorida «Qishloq qurilish bank»ning ham izchil ishtiroki maqsad qilingan.

Uchinchi bob bo'yicha xulosa

Uy xo'jaliklari moliyasi ijtimoiy-iqtisodiy tushuncha bo'lib, u xo'jalik a'zolarining moddiy va ma'naviy-ma'rifiy ehtiyojlarini qondirilishi hamda turmush sharoiti yaxshilanish darajasini tavsiflaydi. Biz bu toifaning naqadar murakkab va ko'p qirrali mazmunga ega ekanligiga ishonch hosil qildik. Demak, u qandaydir bitta ko'rsatkich emas, uy xo'jaligi a'zolari daromadi va turmushining turli qirralarini ifodalovchi ko'rsatkichlar natural va qiymat

ko'rinishida ifodalanib, aholi turmush darajasining miqdor va sifat tomonlarini o'zida aks ettiradi.

Uy xo'jaliklarining jamg'arish funksiyasi daromadlarning bir, qismini kelajakda sarflash uchun to'planib borishi bo'lib, uning motivlari iqtisodiy, sotsial va psixologikdir. Jamg'arishga moyillikni jamg'arish normasi ifodalaydi. U O'zbekistonda mutassil oshib boradi, uy xo'jaliklarning milliy jamg'arishdagi xissasi oshib boradi. Jamg'arish xonadonlarning o'zidan ko'ra ko'proq tashqarida va moliya institutlari ishtirokida investitsiyaga aylanadi va iqtisodiy o'sishga xizmat qiladi.

Uy xo'jaliklari dastlabki inson, kapitalini jamg'arishi ular uchun asosiy, lekin bular kapitalni rivojlantirishda davlat va korporativ investitsiyalar bilan birgalikda amalga oshiriladi. Insonga yuborilgan investitsiyalar samaradorligi ular xarajatini va keltirgan daromadni taqqoslash orqali aniqlash mumkin.

Umuman olganda, uy xo'jaliklarining jami daromadlarida natural daromadlarning salmog'i uncha katta bo'lmagan qismni tashkil etadi. Shunday bo'lishiga qaramasdan, uning darajasi (salmog'i) alohida olingan uy xo'jaliklarining an'analari, ustuvorliklari, afzalliklari, demografik va ijtimoiy tavsifnomalariga muvofiq ravishda o'zgarib turishi mumkin. Shu munosabat bilan qayd etish kerak, aholining kambag'al qatlamlari va qishloq aholisida natural daromadlarning salmog'i an'anaviy ravishda nisbatan yuqoriroq bo'ladi. Bir vaqtning o'zida uy xo'jaligining naturallashtirilganligi tashqi muhitning (masalan, urushlar davrida, tizimli transformatsiyalanish jarayonlarida va h.k.) noqulay shart-sharoitlariga o'ziga xos tarzda moslashish mexanizmi bo'lib ham hisoblanadi.

XULOSA

Uy xo'jaliklari moliyasi ijtimoiy-iqtisodiy tushuncha bo'lib, u xo'jalik a'zolarining moddiy va ma'naviy-ma'rifiy ehtiyojlarini qondirilishi hamda turmush sharoiti yaxshilanish darajasini tavsiflaydi. Biz bu toifaning naqadar murakkab va ko'p qirrali mazmunga ega ekanligiga ishonch hosil qildik. Demak, u qandaydir bitta ko'rsatkich emas, uy xo'jaligi a'zolari daromadi va turmushining turli qirralarini ifodalovchi ko'rsatkichlar natural va qiymat ko'rinishida ifodalanib, aholi turmush darajasining miqdor va sifat tomonlarini o'zida aks ettiradi.

Uy xo'jaliklari investitsiyalarini moliyalashtirishni takomillashtirish yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar natijasida bir qator ilmiy xulosalar va amaliy takliflarni ishlab chiqarishga muvaffaq bo'ldik. Jumladan:

1. Uy xo'jaligi investitsiyalari xususiy investitsiyalarning asosiy qismidir. Ularning jami miqdori katta bo'lsa-da, ayrim uy xo'jaliklarining investitsion salohiyati kichik hisoblanadi. Bu investitsiyalar miqdoriga aholi joriy daromadi va mol-mulki hajmi, ijtimoiy demografik tarkibi, individual tarzda nimani afzal ko'rishi, iqtisodiy faol yoshlarning ko'pligi va aholi umrining uzunligi ta'sir ko'rsatadi.

2. Uy xo'jaligida investitsiyalarni moliyalashtirish qimmatbaho tovarlar olish, pul rezerviga ega bo'lish, pul to'plab kapital hosil qilish, kelajak hayotni moliyaviy jihatdan ta'minlash motivida tashkil etiladigan jamg'armalar hisobiga, natural investitsiyalar, moliyaviy investitsiyalar, kelajakga mo'ljallangan investitsiyalar shaklida ta'minlanadi.

3. Uy xo'jaligi investitsiyasi moliyalashtirilishida muqobil iqtisodiy tanlov uning daromadliligi, risklilik darajasi, daromadning soliqqa tortilishi va obyektning likvidligiga bog'liq bo'ladi.

4. Tijorat banklari (shu jumladan, "Xalq banki" va boshqa banklar) o'rtasidagi raqobatning kuchayishi aholi mablag'larini jalb qilish shakllari va metodlarining rivojlanishiga o'z ijobiy ta'sirini ko'rsatdi, taqdim etiladigan

xizmatlar doirasi kengaydi, omonatlarning yangi turlari ishlab chiqildi va boshqalar;

5. Uy xo'jaligi a'zolari ehtiyojlarini bugun, ertaga va kelajakda ta'minlash maqsadida shakllantiriladigan pul jamg'armalarini tashkil etish va ulardan foydalanish bilan bog'liq moliyaviy munosabatlar uy xo'jaliklarining ichki moliyaviy munosabatlari deyiladi.

6. Uy xo'jaligi a'zolarining iqtisodiyotning uy xo'jaligidan tashqaridagi subyektlari ya'ni, davlat va turli mulkchilik shaklidagi korxona va tashkilotlar, jismoniy shaxslar bilan moliyaviy aloqalari uy xo'jaliklarining tashqi moliyaviy munosabatlarni tashkil etadi, zero bu moliyaviy munosabatlar uy xo'jaliklari moliyasini asosini tashkil etish bilan xususiyatlanadi.

Dissertatsiya ishida uy xo'jaliklari investitsiyalarini moliyalashtirilish va samaradorligini oshirishga qaratilgan quyidagi ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Uy xo'jaligi sektorining bugungi kundagi rivojlanish holatini hisobga olib, ishlab chiqarishni kelgusidagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari ishlab chiqish. Ularni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari ishlab chiqayotganda yaqin yillarga mo'ljallab, iqtisodiy matematik, matematik statistik usullar(korrelatsion va regression tahlil, ekstropolyatsiya), matematik programalashtirish usullaridan (transport masalasi) foydalanish maqsadga muvofiq;

2. Respublikamizda daromad darajasi past bo'lgan uy xo'jaliklarining tijorat banklari ipoteka kreditlaridan foydalanish darajasini oshirish maqsadida ipoteka kreditlarining imtiyozli stavkasi bilan bozor stavkasi o'rtasidagi farq summasini davlat tomonidan subsidiyalash, ipoteka kreditlari bo'yicha avans to'lovini ushbu toifa uy xo'jaliklari uchun ma'lum imtiyozli foizli punktga pasaytirish;

3. Moliya vazirligi huzurida "Uy xo'jaliklari daromadlarini shakllantirish, ulardan investitsion faoliyatda samarali foydalanishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot instituti"ni tashkil etish. Ushbu institut chiqargan xulosalar, tahliliy axborotlar

va amaliy ma'lumotlar asosida tayyorlangan investitsion takliflarni uy xo'jaliklariga tijorat asosida taqdim etish va "ochiqlik" tamoyiliga amal qilish;

4. Aholining moliya bozoridagi operatsiyalarni chuqur egallashi, manfaatli moliyaviy qarorlar qabul qilishi bo'yicha moliyaviy savodxonligini tegishli institutlar vositasida oshirish;

5. Uy xo'jaliklari investitsiyalarini moliyalashtirishga oid alohida statistik hisobotni tashkil etish, ularning samaradorligini aniqlashga qaratilgan uslubiy tavsiyanomalarni ishlab chiqish;

6. Investitsiyalarning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini jadallashtirish maqsadida dehqon xo'jaligi va yakka tartibdagi mehnat faoliyati sohasida arzon ish o'rinlari tashkil etilganligi uchun ular olgan tijorat kreditlariga nisbatan moliyaviy imtiyozlar yanada ko'proq berish;

7. Ta'lim krediti arzonlashtirish, uni ishlab pul topgandan so'ng qaytarishni tashkil etish, kredit foizini dotatsiyalashga o'tish;

8. Tarixiy nuqtai nazardan istiqbolimizning qisqa yillarida uy xo'jaliklari moliyasi masalalarida juda katta yutuqlarga erishilganiga qaramasdan, bu yerda hamon talay muammolar mavjud. Uy xo'jaliklari moliyasining eng muhim tarkibiy qismi va markaziy bo'g'ini hisoblangan uy xo'jaliklari budjeti daromadlarining juda murakkab tarzda va katta qiyinchiliklar evaziga shakllantirilayotganligi, uy xo'jaliklari jamg'armalarini ma'lum bir me'yorlar darajasida ushlab turishning zarurligi, hamma vaqt ham uy xo'jaliklari aktivlaridan samarali foydalanilmayotganligi ana shunday muammolar qatoriga kiradi.

9. Uy xo'jaliklari jamg'armalarining investitsiya resurslari sifatida jalb qilinishi, nafaqat ishlab chiqarishning o'sishi va rivojlanishini ta'minlaydi, balki milliy daromadning ko'payishiga, farovonlikni oshishiga va uy xo'jaliklari yashash sifatining yaxshilanishiga sabab bo'ladi. O'z aktivlari va jamg'armalari orqali investitsion jarayonga jalb qilingan aholi mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga katta hissa qo'shadi.

10. Uy xo'jaliklari moliyasini shakllantirishga iqtisodiy jihatdan baho berishda qarindosh urug'lik va oilaviy rishtalarni asosiy omil deb hisobga olishni to'g'ri deb hisoblaymiz. Chunki garchand bir oilaga ikkinchi oila tomonidan moliyaviy resurslar orqali yordam berilgan taqdirda ham bu yordam bergan oila uchun o'zi yaratgan moliyaviy resurslarni ishlatilishi, yordam bergan oila shu yordam orqali daromad olsa faqatgina ana shu daromad uy xo'jaligi moliyasi uchun moliyaviy resursni jamg'arilishi hisoblanadi, olingan yordam esa qachondir qaytariladi, natijada oilaviy budjetida balans hosil bo'ladi.

Biz tomondan yuqorida ko'rsatib o'tgan ilmiy xulosalar hamda taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilishi, aminmizki, uy xo'jaliklari investitsiyalarini moliyalashtirishning samaradorligi oshishiga qulay zamin yaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T., O'zbekiston 1992 . -32b.
2. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. – Toshkent.: Adolat, 1996. 263 b.
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: Adolat, 2010. - 40 b.
4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: O'zbekiston, 2012

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari va Qarorlari,

Vazirlar Mahkamasining Qarorlari:

1. O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining parametrlari va asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning prognozi to'g'risida” O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-1676 sonli Qarori, 30 dekabr 2011 yil.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2012-2016 yillarda Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini yanada modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash dasturi to'g'risida» 2012 yil 21 maydagi PQ–1758-son Qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2011-2015 yillarda Respublika moliya-bank tizimini yanada isoh qilish va barqarorligini oshirish hamda, yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida”gi 2010 yil 26 noyabrdagi PQ-1438-son Qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2011-2015 yillarda O'zbekiston Respublikasi sanoati rivojlanishining ustuvor yo'nalishlari to'g'risida”gi 2010 yil 15 dekabrdagi PQ-1442-son Qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasining 2013 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida”gi 2012 yil 25 dekabrdagi PQ-1887-son Qarori.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Obod turmush yili Davlat Dasturi to'g'risida”gi 2013 yil 14 fevraldagi PQ-1920-son Qarori.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasining

2014 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi 2013 yil 25 dekabrda PQ-2099-son Qarori.

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2015 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi 2014 yil 4 dekabrda PQ-2270-son Qarori.

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sog'lom bola yili Davlat Dasturi to'g'risida"gi 2014 yil 19 fevralda PQ-2133-son Qarori.

10. "Bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish sohasidagi ustuvor yo'nalishlar amalga oshirilishini jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 14 iyunda Farmoni.

11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007 yil 19 martda "Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish va mustahkamlashga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori.

12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 15 fevralda 44-son Qarori «Kam ta'minlangan oilalarga ijtimoiy nafaqalar va moddiy yordam tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida»gi Nizom.

13. O'zbekiston Respublikasi 2015 yil 18 fevralda "Keksalarni e'zozlash yili" Davlat dasturi to'g'rsida"gi PQ-2302-sonli Qaror.

III. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari

1.Karimov.I.A. Mamlakatimizni demokratik yangilash va modernizatsiya qilishga qaratilgan taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirish – bosh maqsadimizdir. – T.: O'zbekiston, 2015 y. – 40 bet.

2.Karimov I.A. 2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amaga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish – ustuvor vazifamizdir. – T.: O'zbekiston, 2015 y. – 72 bet.

3.Karimov I.A. 2014 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi. – T.: Xalq so'zi gazetasi 2014 yil.

4.Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – keng ko’lamli islohotlar va modernizatsiya yo’lini qat’iyat bilan davom ettirish. – Toshkent: - “O’zbekiston”, 2013. - 64 b.

5.Karimov I.A. 2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko’taradigan yil bo’ladi. – T.: “O’zbekiston”, 2012. – 36 b.

6.Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. – T.: “O’zbekiston”, 2011. – 48 b.

7.Karimov I.A. «Asosiy vazifamiz - vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir» –Toshkent: «O’zbekiston», 2010.

8.Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo’lini izchil davom ettirish – taraqqiyotimizning muhim omilidir. – T.: “O’zbekiston”, 2010. 5-32b.

9.Karimov I.A. Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi, O’zbekiston sharoitida uni barataraf etishning yo’llari va choralari. Toshkent: O’zbekiston- 2009.

10. Karimov I.A. Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik to’grisida. – Toshkent: O’zbekiston, 2005.

IV. Asosiy va qo’shimcha adabiyotlar

1. Abulqosimov H. Iqtisodiyotda inson omili: shakllanishi, amal qilishi va faollashuvi. -T.: Akademiya, 2006. -347 b

2. Самуэльсон П.Т. Экономика 1,2. –М.: Алгон, 1992. -704 с.;

3. В.М Жеребин., Романов А.Н. Уровень жизни населения./ -М.: ЮНИТИ, 2002 г. 591-с.

4. Социальная функция государства в условиях инновационного развития экономики России, / Под ред. Г.А. Ахинова, И.Н. Мысляевой. – М.: МАКС Пресс, 2013. -220 с.

5. O’lmasov A. Oila iqtisodi. -T.: Mehnat, 1991. -225 b.

6. Shodieva G.M., Qudratov G’H., Pardaev M.Q. Kasanachilik aholining bandligi va farovonligini oshirish omili. Risola.-T.: “Fan va texnologiya”, 2007. -32 b.

7. Shodieva G.M. Oila xo’jaligi farovonligi – kichik va xususiy tadbirkorlik

rivojiga bog'liq. -T.: "Fan va texnologiya", 2007. -20 b.

8. Shodieva G.M. Oila xo'jaligi farovonligini oshirish: muammolar va ularning echimlari. -T.: Fan, 2006. -243 b.

9. М.Блауг экономическая мысль в ретроспективе М.1996г. стр-489.

10. Я.С.Ядгаров История экономических учений. М.2006г. стр-337.

11. В.М.Жеребин Экономикадомашних хозяйств М. 2012г. Стр-68.

12. Макконнелл, С.Л. Брю : в 2 т. - М. : Прогресс, 1992. 936-б.

13. Экономическая теория (политэкономия) учебник "прома медиа" м. 2013. 275 б.

14. Олейник А. Институциональная экономика : учеб.-мстод. пособие. Тема 12. Домашнее хозяйство и другие организационные структуры // Вопросы экономики. - 1999. 127 б.

15. А.Маршалл Принципы политической экономии. М. 1983, Т. 1, 69 –

16. История экономических учений учеб. Пособие М. 2004. стр-46

V. Davriy nashrlar, statistik to'plamlar va hisobotlar

1. Инвестиции республики Узбекистан 2013. Статистический сборник. – Т.: Госкомитет РУз по статистике, 2014. – 148 с

2. Труд и занятость в Республике Узбекистан 2009. Статистический сборник. - Т.: 2010. - с. 105.

3. Труд и занятость в Республике Узбекистан 2010. Статистический сборник. - Т.: 2011. - с. 107.

4. Труд и занятость в Республике Узбекистан 2012. Статистический сборник. - Т.: 2013. - с. 107.

5. Промышленность республики Узбекистан 2013. Статистический сборник. - Т.: Госкомитет РУз по статистике, 2014. – 156 с.

6. O'zbekiston iqtisodiyoti. Axborot taxlilii byulleten 2011 yil uchun. T.: JICA nashriyoti. 2012.

7. O'zbekiston iqtisodiyoti. Axborot taxlilii byulleten 2012 yil uchun. T.: JICA nashriyoti. 2013.

8. Raximova D. Davlat tomonidan kuchli ijtimoiy imoya tadbirlari qo'llanishi//O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi, 2000, №3. –B. 40.
9. Rahimova D. Davlat tomonidan kuchli ijtimoiy himoya tadbirlari qo'llanishi //O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi, 2000, №3.-40 b.
10. Allaxverdieva L. Aholini ijtimoiy himoyalash //Bozor, pul va kredit, 2001, №10. –B. 9.
11. Zakirova N. O'zbekistonda ham ta'minlangan oilalarni ijtimoiy himoyalash //Bozor, pul va kredit, 2001, №7. 8 b.
12. Abulqosimov H. Ijtimoiy himoya //Jamiyat va boshqaruv, 2004, №3.-26 b.
13. Инвестиции республики Узбекистан 2013. Статистический сборник. – Т.: Госкомитет РУз по статистике, 2014. – 148 с
14. Труд и занятость в Республике Узбекистан 2009. Статистический сборник. - Т.: 2010. - с. 105.
15. Труд и занятость в Республике Узбекистан 2010. Статистический сборник. - Т.: 2011. - с. 107.
16. Труд и занятость в Республике Узбекистан 2012. Статистический сборник. - Т.: 2013. - с. 107.
17. Промышленность республики Узбекистан 2013. Статистический сборник. - Т.: Госкомитет РУз по статистике, 2014. – 156 с.
18. O'zbekiston iqtisodiyoti. Axborot taxlilii byulleten 2011 yil uchun. T.: JICA nashriyoti. 2012.
19. O'zbekiston iqtisodiyoti. Axborot taxlilii byulleten 2012 yil uchun. T.: JICA nashriyoti. 2013.

VI. Internet manzillariwww.minfin.ru[www.soliq.uz.](http://www.soliq.uz)www.mf.uzwww.google.ruwww.budget.ruwww.ya.ruwww.gov.uzwww.5ballov.uzwww.mfa.uzwww.ref.uzwww.mfer.uzwww.поиск.uzwww.cer.uzwww.tradeeconomics.ruwww.eduworld.ruwww.cbu.uzwww.businessvoc.ruwww.lex.uzwww.arxiv.uzwww.stat.uz